

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

**Qo'lyozma huquqida
UO'K: 330.101.542 (575.1)**

KURBONOV SALIMJON NUMONJONOVICH

**IQTISODIYOTNI INVESTITSION-INNOVATSION RIVOJLANISHINI
DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH**

08.00.02 – “Makroiqtisodiyot”

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar:

**S.A.Abduraximova,
i.f.d., professor**

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-BOB. MILLIY IQTISODIYOTNING INVESTITSIYA VA INNOVATSION RIVOJLANISHINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	13
1.1. Iqtisodiyotning investitsiya va innovatsion rivojlanishini tartibga solishning nazariy yondashuvlari	13
1.2. Iqtisodiyot subyektlarining innovatsion-investitsion rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari va omillari.....	23
1.3. Innovatsion-investitsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va uni tartibga solish aspektlari	40
1-bob bo‘yicha xulosalar	52
2-BOB. MILLIY IQTISODIYOTNING INVESTITSIYA VA INNOVATSION RIVOJLANISHINING MAKROIQTISODIY TAHLILI	55
2.1. Milliy iqtisodiyot subyektlarining investitsiya va innovatsion faoliyatining holati.....	55
2.2. Iqtisodiyot subyektlarining investitsiya va innovatsion faolligini ekonometrik baholash.....	66
2.3. Milliy iqtisodiyot subyektlarining investitsiya va innovatsion faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va rag‘batlantirishning amaldagi mexanizmi	89
2-bob bo‘yicha xulosalar	97
3-BOB. MILLIY IQTISODIYOTNI INVESTITSIYALAR VA INNOVATSİYALARNING RIVOJLANISHINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	99
3.1. Iqtisodiyot subyektlarining investitsiya faolligini rag‘batlantirish mexanizmi	99
3.2. Innovatsion investitsiyalarni davlat tomonidan rag‘batlantirish.....	117
3.3. Milliy iqtisodiyot subyektlari faoliyati samaradorligini oshirish uchun soliq tizimini takomillashtirish.....	136
3-bob bo‘yicha xulosalar	147
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	149
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	151

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida raqobatning kuchayishi va texnologiyalar risklarining qisqarib borishi sharoitida milliy iqtisodiyotni investitsion-innovatsion rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish barqaror iqtisodiy o'sishning hal qiluvchi omillaridan biriga aylanmoqda. Davlat institutlarining investitsion muhitni yaxshilash, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, soliq-kredit imtiyozlari va targetlangan subsidiyalar orqali xususiy sektor riskini pasaytirish borasidagi faol ishtiroki yuqori texnologiyali tarmoqlarga kapital oqimini rag'batlantirib, iqtisodiyotning ilg'or tarmoqlarini shakllantirishga zamin yaratadi.

Bu esa, tarmoqlar tarkibiy diversifikatsiyasi, mehnat unumdorligi va qo'shilgan qiymat o'sishi, shuningdek, tashqi shoklarga makroiqtisodiy bardoshlilikning oshishi orqali milliy raqobatbardoshlikni mustahkamlaydi.

Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ning "Innovatsiyalar zarurati: samaradorlik, iqtisodiy o'sish va jamiyat farovonligiga qo'shilayotgan hissa" hisobotiga ko'ra, "Innovatsion siyosat innovatsiyalarni kuchaytirish va ularni inklyuziv hamda "yashil" o'sishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi tarzda yo'naltirishni istagan hukumatlar uchun o'ziga xos "dastaklar to'plami"ni taqdim etadi", degan xulosa davlatning investitsion-innovatsion rivojlanishni yo'naltirish va tartibga solishdagi o'rni global darajada ortib borayotganini namoyon etadi. Shu sababli, milliy iqtisodiyotni investitsion-innovatsion rivojlantirish jarayonlarini davlat tomonidan tartibga solishning institutsional-huquqiy, moliya-iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarini ilmiy jihatdan chuqur o'rganish yuqori darajada maqsadga muvofiqdir.

Jahonda milliy iqtisodiyotni investitsion-innovatsion rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish masalalari bo'yicha keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda va ularda davlatning strategik reguliator sifatidagi o'rni, funksiyalari hamda ta'sir doirasi turli modellar asosida tahlil etilmoqda. Mazkur ilmiy izlanishlarda, asosan, investitsion-innovatsion siyosatning institutsional-huquqiy bazasini takomillash-tirish, davlat ishtirokida innovatsion infratuzilma va klasterlarni rivojlantirish, soliq va moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlari orqali xususiy investitsiyalarni jalb etish, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosida yuqori

texnologiyali tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash hamda innovatsion faollikning milliy raqobatbardoshlikka ta'sirini baholash kabi ustuvor yo'nalishlar alohida o'rganilmoqda.

O'zbekistonda milliy iqtisodiyotni investitsion-innovatsion rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha vazifalar "O'zbekiston – 2030" strategiyasida aniq belgilangan bo'lib, ularda inson kapitali rivoji, milliy innovatsion tizimni shakllantirish va Global innovatsiyalar indeksida ilg'or 50 ta davlat qatoriga kirish ustuvor maqsad sifatida qayd etilgan. Ushbu maqsadlarga erishish uchun davlat tomonidan investitsiya muhitini yaxshilash, 2022–2026-yillarda katta hajmda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy va ichki investitsiyalarni jalb etish, innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash, O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni, yashil iqtisodiyot va raqamli transformatsiyaga oid tarmoq dasturlari orqali investitsion-innovatsion jarayonlarni rag'batlantirish kabi kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (BMT TD) xulosalariga ko'ra, "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi va 2019–2021-yillarga mo'ljallangan Innovatsion rivojlanish strategiyasi mamlakat taraqqiyotini boshqarish, tartibga solish, muvofiqlashtirish va rag'batlantirishda davlat ishtirokining barcha sohalari, jihatlar va shakllarini qamrab oladi", deb ta'kidlanishi mazkur yo'nalishda davlat siyosatining tizimli va keng qamrovliligini namoyon etadi. Shu bois, belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirishda investitsion-innovatsion rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini ilmiy tadqiq etish yuqori darajada dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Investitsion-innovatsion rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solishda boshqa muhim jihat sifatida risklarni boshqarish va loyihalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash ko'riladi. Davlat kafolatlari, grantlar va kredit liniyalari orqali yangi va innovatsion loyihalar moliyaviy jihatdan xavfsiz sharoitda amalga oshiriladi. Bu esa investorlarning ishonchini oshiradi va innovatsion g'oyalarni amaliy loyihalarga aylantirish jarayonini tezlashtiradi.

Davlatning investitsion-innovatsion rivojlanishdagi roli strategik rejalashtirish va hududlar o'rtasida innovatsion faoliyatni muvofiqlashtirish orqali ham namoyon bo'ladi. Maxsus zonalar, texnoparklar va innovatsion klasterlar tashkil etilishi hududiy

rivojlanish va iqtisodiy diversifikatsiya uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Shu bilan birga, mahalliy va xorijiy investorlar uchun imkoniyatlar kengayadi va innovatsion loyihalarning samaradorligi oshadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF–16-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”, 2024-yil 21-fevraldagi PF–37-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF–158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 21-iyuldagi PF–111-son “Ma’muriy islohotlar doirasida investitsiyalar, sanoat va savdo sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2021-yil 1-apreldagi PF–6198-son “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF–6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2021-yil 1-apreldagi PQ–5047-son “Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 545-son “Ilmiy va innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va ushbu sohadagi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot mavzusining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dissertatsiyada investitsiya va innovatsion faoliyat masalalari bo‘yicha ko‘plab xorijiy va mahalliy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, O.M.Vabina, I.Grishchenko, N.Bileska, L.Klividenko, Yu.Juravel,

I.Morgachev, O.I.Yankovska, G.M. Saranchuk kabi mutaxassislarning investitsion va innovatsion faoliyatni rivojlantirishga oid ilmiy yondashuvlari chuqur tahlil qilingan.

Shuningdek, R.Reid, D.Gibson, D.Miller, Maatoofi Ali Reza, Tajeddini Kayhan, Y.Schumpeter, B.Wingwon, A.L.Fruhling, K.Siau, H.Sulistyo, Siyamtinah, O.Takhumova, F.Kotler, J.Lamben, D.Daniels, Dj.Sanders, G.Armstrong va shu kabi boshqa xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ham mazkur masala bo'yicha tahlillar olib borilgan¹.

MDH mamlakatlari olimlaridan S.Arezeni, A.D.Artemenko, M.I.Balanov, Ye.P.Golubkov, V.G.Yefimova, L.Chyorniy, N.Baldich, O.A.Anya, B.F.Xoselits, M.Harris, R.M.Xodgets, R.Reinek, N.L.Samuel, X.Diao, J.Kveka, M.Ms.Milan, J.P.Pelegrin, U.Venesar, Z.A.Yusof, D.Battasali, S.N.Nikolas va boshqa olimlarning ilmiy ishlari kichik va o'rta biznes subyektlarining barqaror rivojlanishi, investitsion faollik va innovatsion salohiyatni oshirishga qaratilgan yondashuvlari bilan boyitilgan². Ularning tadqiqotlarida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, investitsiya strategiyalarini tanlash, risklarni boshqarish va texnologik yangiliklarni joriy etishning samarali usullari tizimli tarzda ko'rib chiqilgan.

Shu bilan birga, mahalliy olimlarimiz ham innovatsiya va investitsiya muhiti, investitsiyalarning nazariy va amaliy ahamiyati, moliyaviy qo'llab-quvvatlash

¹ Reid R. & Gibson D. (2004). Innovation and organizational size in Irish SMEs: an empirical study. *International Journal of Innovation Management*, 8(2), 147–165.; Miller, D. (1983). The Correlates of Entrepreneurship in Three Types of Firms. *Management Science*, 29(7), 770–791. <https://doi.org/10.1287/mnsc.29.7.770>.; Maatoofi, A.R. & Tajeddini, K. (2011). Effect of market orientation and entrepreneurial orientation on innovation. *Journal of Management Research*, 11(1), 20–30.; Fruhling, A.L., & Siau, K. (2007). Assessing organizational innovation capability and its effect on e-commerce initiatives. *Journal of Computer Information Systems*, 47(4), 133–145.; Sulistyo, H., & Siyamtinah. (2016). Innovation capability of SMEs through entrepreneurship, marketing capability, relational capital and empowerment. *Asia Pacific Management Review*, 21(4), 196–203. <https://doi.org/10.1016/j.apmr.2016.02.002>.; Takhumova, O. (2020). Business Mechanism for Agricultural Production Sustainable Development Management. *E3S Web of Conferences*, 208, 03043, <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202020803043>.

² Chyorniy, L., & Baldich, N. (2016). *Entrepreneurship Development Strategy: Expert Opinion*; Anya, O.A. (2003). *Empowering Small and Medium Scale Enterprises in Nigeria*. Enugu: CIDAP Printing Press.; Hoselitz, B.F. (1954). *The Early History of Entrepreneurial Theory*. Explorations in Entrepreneurial History.; Harris, M. (2000). *The Current Situation of Small and Medium-sized Industrial Enterprises in Trinidad & Tobago, Barbados & St. Lucia*. Desarrollo Productivo, 69. United Nations, ECLAC: Santiago, Chile.; Hodgetts, R.M., & Kuratko, D.F. (2002). *Effective Small Business Management*. Dryden Press.; Reinecke R., & White S. (2004). *Policies for Small Enterprises: Creating the Right Environment for Jobs*. International Labour Organisation (ILO); Samuel, N.L. (2004). *Entrepreneurship: A Challenge Facing the Education System of Trinidad & Tobago*. PhD Dissertation, University of the West Indies (UWI); Diao, X.S., Kweka J., & McMillan M. (n.d.). *Small Firms, Structural Change and Labor Productivity Growth in Africa: Evidence from Tanzania*. Presented at the Conference on Structural Transformation of African Agriculture and Rural Spaces (STAARS); Venesaar U. (n.d.). *Entrepreneurship and Small Business Research in Estonia: An Overview*; Yusof, Z.A., & Bhattasali, D. (2008). *Economic Growth and Development in Malaysia: Policy Making and Leadership*.

mexanizmlari, davlat siyosati va strategiyalarining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri kabi masalalarni chuqur o'rganishgan. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, innovatsion va investitsion salohiyatni rivojlantirish uchun nafaqat moliyaviy resurslar, balki bilim, texnologik imkoniyatlar, institutsional infratuzilma va xalqaro tajriba integratsiyasi muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanish, tartibga solishning ilmiy-amaliy masalalari bo'yicha B.Valiev, A.Vaxobov, A.Bekmuradov, N.Ismailova, B.Berkinov, A.Isadjanov, I.Mavlanov, N.Sirajiddinov, S.Zakirova, G.Sultanova, I.Ilxomjonov, L.Tashpulatova, S.Abduraximova, N.Maxmudov, J.Muminov, N.Xaydarov, N.Xashimova, Sh.Yuldashevlar va boshqalar chuqur izlanishlar olib borganlar³. Tadqiqotda ushbu manbalarning chuqur tahlili asosida milliy iqtisodiyot sharoitida investitsion va innovatsion jarayonlarni tartibga solishning samarali usullari ishlab chiqilgan.

Yuqorida sanab o'tilgan iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida innovatsion faoliyat subyektlarining barqaror rivojlanishini ta'minlash masalalariga qaratilgan bo'lib, globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlari innovatsion faoliyat subyektlarining

³ Валиев Б.Б. Миллий иқтисодийнинг барқарор ривожланишини таъминлашда тўғридан-тўғри хорижий инвестициялардан фойдаланиш самардорлигини ошириш: Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Тошкент, 2017. 23-24 б.; Вахобов А.В., Г.Х.Разиқова, Ш.Х.Хаджибакиев Иностранные инвестиции и модернизация национальной экономики. Т.: «Молия» 2011. 124 с.; Бекмурадов А.Ш. Глобальные тренды на мировых финансовых рынках и проблемы привлечения технологических инвестиций для реализации промышленной политики Узбекистана, Молия ва банк иши электрон илмий журнали. №2, январь, 2016.; Shermukhamedov A.T., Ismailova N. "Uzbekistan: growth of the investment climate in free economic zones" European science, no. 2 (44), 2019, P. 22-26.; Беркинов Б.Б. Тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар самардорлиги. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. №5, 2015.; Исаджанов А.А. Узбекистан: потенциал инвестиционного сотрудничества. Иностранные инвестиции в Республике Узбекистан. №1, 2008.; Мавланов И. Трансформация экономической дипломатии Узбекистана для реализации внешнеэкономических приоритетов Стратегии действий Республики Узбекистан на 2017–2021 гг. Международные отношения, УМЭД. №01, 2018. 62-73 с.; Сиражиддинов Н., Закирова С.А., Султанова Г.К., Илхомжонов И.И. Повышение конкурентоспособности экономики Узбекистана в условиях либерализации и углубления экономических реформ. Монография, Ташкент — "IQTISODIYOT" – 2021, 2021.; Бутиков И.Л. Основные направления совершенствования государственного регулирования фондового рынка в условиях современного этапа развития экономики Узбекистана, Экономика и финансы (Узбекистан). №. 9, 2017. 16-25 с.; Ташпулатова, Л.М., Абдурахимова С.А., Исмаилова Г.С., Внедрение принципов эффективного государственного управления в интересах устойчивого развития в Узбекистане. Право и управление. XXI век, 17(4), 2022. 3-19 с.; Махмудов Н.М. Инвестиции — ресурсный двигатель экономики, Иностранные инвестиции в Республике Узбекистан. — Ташкент, № 2, 2008.; Муинов Ж., Федяшева Г. Прогнозирование инвестиционных процессов и механизмы дальнейшего улучшения инвестиционного климата. Отчет о научно-исследовательской работы за 2015-2017 гг., ИПМИ, 2017.; Хайдаров Н.Х. Тўғридан-тўғри инвестициялар имкониятлари, Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар илмий электрон журнали, №1, 2011.; Хашимова Н.А. Агрегатный анализ динамики структуры инвестиционного потенциала Узбекистана. Экономический вестник Узбекистана. №5. 2016.; Юлдашев Ш.Г. «Иностранные инвестиции как фактор экономического роста и либерализации национального воспроизводства Республики Узбекистан», диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук, 2001

barqaror rivojlanishini ta'minlash va samaradorligini oshirish muammolariga yangicha yondashuvni talab etishi mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Milliy iqtisodiyotning investitsiya va innovatsion rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish" mavzusidagi fundamental tadqiqotlar loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi – iqtisodiyotni investitsion-innovatsion rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

iqtisodiyotning investitsiya va innovatsion rivojlanishini tartibga solishning nazariy yondashuvlarini o'rganish;

iqtisodiyot subyektlarining innovatsion-investitsion rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va omillarini aniqlash;

innovatsion-investitsion faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va uni tartibga solish aspektlarini ochib berish;

milliy iqtisodiyot subyektlarining investitsiya va innovatsion faoliyatining holatini tahlil qilish;

iqtisodiyot subyektlarining investitsiya va innovatsion faolligini ekonometrik baholash;

iqtisodiyot subyektlarining investitsiya faolligini rag'batlantirish mexanizmini ishlab chiqish;

milliy iqtisodiyot subyektlari faoliyati samaradorligini oshirish uchun soliq tizimini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan korxonalar iqtisodiyotini investitsion-innovatsion rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish tizimini shakllantirish va takomillashtirish jarayonlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti iqtisodiyotni investitsion-innovatsion rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishda vujudga kelayotgan iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiyalash, mantiqiy yondashuv, tizimli tahlil, statistik kuzatish, statistik jamlash va guruhlash, tanlanma, korrelyatsion va regression tahlil, SWOT-tahlil, ekonometrik modellashtirish hamda prognozlash kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "Investitsion-innovatsion rivojlanishni tartibga solish" tushunchasining iqtisodiy mazmuni milliy iqtisodiyotda investitsiya oqimlari va innovatsion jarayonlarning o'zaro integratsiyasini bozor mexanizmlari, raqamli boshqaruv tizimlari hamda institutsional rag'batlantirish vositalari orqali muvofiqlashtirishni ta'minlovchi kompleks boshqaruv tizimi nuqtai-nazaridan takomillashtirilgan;

barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda uzoq muddatli majburiyatlar shaklida kapital qo'yilmalarni takror ishlab chiqarish strukturasini, texnologik tarkibini va ulardan foydalanish samaradorligini tahlil qilishda muhim rol o'ynovchi omillar aniqlangan;

yuqori va past daromadli investitsiyalar rentabelligi dinamikasining chiziqli va eksponensial tahlili asosida ishlab chiqilgan investitsiya mexanizmlarini tartibga solishning bosqichma-bosqich modelini joriy etish orqali investitsiya samaradorligi indeksini 12,7% ga oshirish taklifi asoslangan;

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni investitsion-innovatsion rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish omillari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning ekonometrik modeli asosida 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatini muvozanatli rivojlantirishga xizmat qiluvchi davlat tartibga solish mexanizmi tarkibida strategik rivojlanish dasturlari, normativ-huquqiy asoslar, moliyaviy rag'batlantirish choralari kabi elementlar yagona tizimda integratsiyalangan holda taklif etilgan;

barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda uzoq muddatli majburiyatlar shaklida kapital qo'yilmalarni takror ishlab chiqarish strukturasini, texnologik tarkibini

va ulardan foydalanish samaradorligini tahlil qilishda muhim rol o'ynovchi omillar aniqlab berilgan;

iqtisodiyotda yuqori va past daromadli investitsiyalar rentabelligi dinamikasining chiziqli va eksponensial tahlili asosida investitsiya mexanizmlarini tartibga solishning bosqichma-bosqich modeli ishlab chiqilgan;

soliqqa tortish tizimini takomillashtirish borasida mavjud fiskal mexanizmlarni qayta ko'rib chiqish, mahalliy soliq imtiyozlarini joriy etish, shuningdek, soliqqa tortish siyosatida hududiy va sohaviy differentsiatsiyalash tamoyillarini qo'llashdan iborat yangi yondashuv ilgari surilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, O'zsanoatqurilish materiallari uyushmasi, Farg'ona viloyati statistika boshqarmasi statistik ma'lumotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va takliflarning mas'ul tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan korxonalar faoliyatida boshqaruv samaradorligini oshirish va korxonalarni rivojlantirish, raqobatbardoshligini oshirishga oid ilmiy-nazariy va amaliy-metodologik tadqiqotlarda, mavzuga oid maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ulardan faoliyat ko'rsatayotgan korxona faoliyatida investitsion-innovatsion rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishda, shuningdek, nazariy va tahliliy materiallardan oliy ta'lim muassasalarida "Menejment", "Korxona iqtisodiyoti" kabi fanlarni o'qitishda keng foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Iqtisodiyotni investitsion-innovatsion rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar va amaliy tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "Investitsion-innovatsion rivojlanishni tartibga solish" tushunchasining iqtisodiy mazmunini milliy iqtisodiyotda investitsiya oqimlari va innovatsion jarayonlarning o'zaro integratsiyasini bozor mexanizmlari, raqamli

boshqaruv tizimlari hamda institutsional rag'batlantirish vositalari orqali muvofiqlashtirishni ta'minlovchi kompleks boshqaruv tizimi nuqtai nazaridan takomillashtirish bilan bog'liq nazariy va uslubiy ishlanmalardan oliy ta'lim tashkilotlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Iqtisodiy siyosat" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-iyuldagi 258-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda kompleks boshqaruv tizimi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan "Investitsion-innovatsion rivojlanishni tartibga solish" tushunchasi bo'yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkonini beradi;

barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda uzoq muddatli majburiyatlar shaklida kapital qo'yimlarni takror ishlab chiqarish strukturasi, texnologik tarkibini va ulardan foydalanish samaradorligini tahlil qilishda muhim rol o'ynovchi omillarni aniqlashga oid taklifi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan tegishli me'yoriy hujjatlarni shakllantirish hamda Farg'ona viloyatidagi omillardan foydalanish samaradorligini tahlil qilishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 9-dekabrdagi 3/dn-247-sonli hamda Farg'ona viloyati hokimligining 2025-yil 17-iyundagi 04-07/1233-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda investitsion jarayonlarning samaradorligi va FIKning milliy me'yor sifatida joriy etilishi investitsiya siyosatini kuchaytirib, kapital, moliyaviy va ijtimoiy investitsiyalardan foydalanishni optimallashtirish hamda texnologik yangilanishni uzluksiz ta'minlash imkonini bergan;

yuqori va past daromadli investitsiyalar rentabelligi dinamikasining chiziqli va eksponensial tahlili asosida ishlab chiqilgan investitsiya mexanizmlarini tartibga solishning bosqichma-bosqich modelini joriy etish orqali investitsiya samaradorligi indeksini 12,7% ga oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan tegishli me'yoriy hujjatlarni shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 9-dekabrdagi 3/dn-247-son ma'lumotnomasi).

Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida investitsiyalarni amalga oshirish shakllaridan – ulushli ishtirok etish, qimmatli qog‘ozlar xaridi, konsessiyalar, yer va mulk huquqlarini qo‘lga kiritish hamda intellektual mulk obyektlariga investitsiya kiritish kabi yo‘nalishlardan oqilona va tartibli foydalanishni ta‘minlab, investitsiya shakllarining har biridan kutilayotgan iqtisodiy qaytishni ilmiy asosda baholash, investitsiya oqimlarining optimal tarkibini shakllantirish va investitsiya faoliyatining huquqiy shakllari bo‘yicha samaradorlikni oshirishga xizmat qilgan;

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni investitsion-innovatsion rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish omillari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning ekonometrik modeli asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlariga oid taklifi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan tegishli me‘yoriy hujjatlarni shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 9-dekabrdagi 3/dn-247-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mamlakatda investitsiya resurslari, davlatning tartibga solish maqsadlari va investorlar bilan ishlash funksiyalarini, investitsiya jarayonlarini ilmiy asosda baholash, resurslarni optimal taqsimlash va davlat investitsiya siyosatining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlari shakllantirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 15 ta ilmiy ish, shundan, 3 ta mahalliy jurnallarda, 3 ta xalqaro jurnallarda maqola, 3 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlari materiallari to‘plamida ma‘ruza tezlari chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, 9 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan bo‘lib, uning hajmi 150 betdan iborat.

1-BOB. MILLIY IQTISODIYOTNING INVESTITSIYA VA INNOVATSION RIVOJLANISHINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Iqtisodiyotning investitsiya va innovatsion rivojlanishini tartibga solishning nazariy yondashuvlari⁴

Hudud iqtisodiyotini rivojlantirish istiqbollarning zamonaviy qarashlari investitsiyalar va innovatsiyalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni tushunishga asoslanadi. Ularning bir-birini to'ldiruvchi ta'siri shundan iboratki, innovatsion loyihani amalga oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan tadbirkorlik subyektlarining kapital qurilishi (va investitsiya faoliyatining boshqa shakllari) mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy va logistika infratuzilmasini rivojlantirish uchun turtki bo'ladi.

Bu yangi ish o'rinlari yaratib, hududning yashash uchun jozibadorligini oshiradi. Biroq, O'zbekiston Respublikasida investitsiya va innovatsion loyihalarni amalga oshirishga hududlarning iqtisodiy rivojlanishidagi sezilarli nomutanosibliklar to'sqinlik qilmoqda. Ular, birinchi navbatda, investitsiya va innovatsion rivojlanishning asosiy predmeti bo'lgan hududlarni rivojlantirishning investitsion va innovatsion jarayonlarini o'rganish doirasida ularning sanoat salohiyati past chastotali mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilganligi bilan izohlanadi.

Bunday munosabatlarning sifatini tavsiflab, O.M.Vabina, birinchi navbatda, investitsiyalar va innovatsiyalar kombinatsiyasining multiplikativ ta'siriga ishora qiladi, bu esa xo'jalik yurituvchi subyekt miqyosida mahsulot tannarxini pasaytirishga, ishlab chiqarish hajmi va rentabelligi hamda mehnat unumdorligini oshirishga, ish o'rinlari sonining ko'payishiga, xodimlarning mehnat sharoitlarini yaxshilashga olib keladi. Uning fikricha, davlatning investitsiya va innovatsion siyosati biznesni davlat iqtisodiyotiga sarmoya kiritishga undaydigan qulay ishbilarmonlik muhitini – huquqiy va iqtisodiy sharoitlarni yaratishdan iborat⁵. Bu esa o'z navbatida, korxonalarining investitsiya-xo'jalik faoliyati bilan hududlarni rivojlantirish o'rtasidagi bog'liqlikni bilvosita tavsiflaydi. Investitsiyalarni faol jalb

⁴ 2025_МОНОГРАФИЯ_Зотикова О.Н.

⁵ Вабина О.М. Анализ инвестиционных возможностей предпринимательства с позиций развития инновационной деятельности в производстве энергии из альтернативных источников. Эффективная экономика. 2020. №4. URL: http://nbuv.gov.ua/UJRN/efek_2020_4_82.

etish va ulardan oqilona foydalanish – davlatning iqtisodiy rivojlanishini yangi bosqichga ko'tarishning eng qisqa yo'lidir.

Ushbu nuqtai nazar korxona miqyosida investitsiyalar va innovatsiyalar o'rtasidagi sifatli bog'liqlikni tavsiflaydi, lekin investitsiya va innovatsion faoliyatning hududlarni rivojlantirishga ta'sirini yuzaki tavsiflaydi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish samaradorligi va mahsulot raqobatbardoshligi ko'rsatkichlarini oshirishda ifodalangan multiplikativ iqtisodiy samara bunday loyihalarning o'ziga xos xususiyatini ifodalaydi. Investitsion va innovatsion rivojlanishning mohiyati bo'yicha ajoyib nuqtai nazar I.Grishchenko, N.Bileska va L.Klividenko tomonidan taqdim etilgan. Ular buni inqirozlarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan tizimli o'zgarishlarning eng samarali usuli deb bilishadi⁶. Investitsion va innovatsion loyihalar hamda hududlarni rivojlantirish xarajatlari o'rtasidagi bog'liqlik shundan dalolat beradiki, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini faollashtirish va rivojlantirishni rag'batlantirish iqtisodiyotning beqarorlashuvi oqibatlarini tezroq va pastroq darajada yengish imkonini beradi.

Bizning fikrimizcha, tizimli o'zgarishlar sharoitida investitsiya va innovatsion rivojlanish elementlari ishlab chiqarish hamda texnik salohiyatni oshirishga (modernizatsiya, texnik qayta jihozlash, rekonstruksiya qilish orqali) va tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishga (biznes jarayonlarini reinjining qilish, qayta tashkil etish orqali) ishlab chiqarish va boshqaruv tizimlarini qayta qurishga qaratilgan innovatsiyalardir.

Ilmiy tadqiqotlarning bevosita hududlarni rivojlantirishni boshqarish muammolariga bag'ishlangan qismida investitsiya va innovatsion rivojlanish maqsadi hududlarning investitsion jozibadorligini hamda tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faolligini oshirishdan iborat. Investitsion va innovatsion rivojlanishning asosiy istiqbollari barqaror istiqbolli talab bilan ta'minlangan tovar bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarning past ulushi, mahalliy mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishga investitsiya resurslarining past samaradorligi, yuqori investitsiya xatarlari kabi salbiy tendensiyalarni bartaraf etishda ko'riladi.

⁶ Грищенко И., Белецкая Н., Кливиденко Л. Инвестиционно-инновационное развитие предприятий в условиях системных преобразований. Вестник Львовской коммерческой академии. Серия экономична. 2016. №50. С. 157-160.

Mahalliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishining nazariy va tashkiliy jihatlarini hisobga olgan holda, Yu.Juravel uni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga e’tibor qaratadi.

Uning fikricha, milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish uchun investitsiya resurslari turli moliyaviy o‘z-o‘zini moliyalashtirish, o‘z kapitali, byudjet, qarz, venchur moliyalashtirish, lizing, xorijiy kreditlar va investitsiyalar usullardan foydalangan holda to‘planishi kerak. Shu bilan birga, u “innovatsion rivojlanish jamiyatda progressiv o‘zgarishlar amalga oshirilganda boshlanadi, ularning asosiylari iqtisodiyot tarkibidagi o‘zgarishlar, samarali institutsional tuzilmani yaratish, optimal institutsional muhitni rivojlantirishdan iborat”, deb ta’kidlaydi⁷.

Yuqoridagilarni sarhisob qilish investitsiya-innovatsion qo‘shilgan qiymatning mohiyatini va makroiqtisodiy subyektlarning asosiy manfaatlari hamda faoliyat yo‘nalishlarini o‘rganish, uy xo‘jaliklari, xo‘jalik subyektlari, iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish va korxonalarning innovatsion faoliyati uchun qulay tashqi muhitni shakllantirish hamda uni samarali moliyalashtirish maqsadida tashkil etish va o‘zaro muvofiqlashtirish jarayonlari sifatida resurs potensialini pasaytirishga imkon beradi.

Hududlarning iqtisodiy salohiyatini rivojlantirishning boshqa usullari qatorida investitsiya va innovatsion jarayonlar alohida o‘rin tutadi. Ularning o‘ziga xosligi shundaki, bunday rivojlanishning kutilayotgan natijasi ishlab chiqarishni tashkil etish va resurslarni boshqarishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash uchun butun davlatning sanoat majmuasini qayta formatlashdir. So‘nggi yillarda bu jarayonda alohida hududlarning hal qiluvchi roli hududiy hamjamiyatlarning vakolatlari va moliyaviy imkoniyatlarining kengayishi (markazsizlashtirish islohoti natijasida) bilan bog‘liq holda belgilandi.

Shu nuqtai nazardan, investitsiya va innovatsion salohiyatni “mintaqaviy investitsiya hamda innovatsion jarayonlarni, xususan, innovatsiyalar, innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun hududning maksimal

⁷ Журавель Ю. Формирование инвестиционных ресурсов для инновационного развития экономики. Экономический анализ. 2017. №1. Т. 27. С. 35–42.

imkoniyatlari” deb hisoblash mumkin⁸. Investitsion va innovatsion rivojlanishning hududiy rivojlanishning boshqa konsepsiyalaridan farqi innovatsion mahsulotni yaratishga qaratilganligi bilan bog‘liq. Shu munosabat bilan innovatsion jarayonlarni kvazinnovatsion jarayonlardan farqlash mezonlari muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, I.Morgachev ularni taqqoslash asosida ajratishni taklif qiladi:

- innovatsion va investitsiya jarayonlarining yo‘qligi va amalga oshirish shartlarining yalpi hududiy mahsuloti ($YaHM^{in} > YaHM$);

- ishlab chiqarish omillarining mintaqaviy marjinal mahsuloti ($MMM^{in} > MMM$);

- mintaqaviy ishlab chiqarish omillarining mahsuldorligi ($MOM_F^i < MOM_F$)⁹.

Investitsion va innovatsion jarayonlar hamda kvazinnovatsion jarayonlar o‘rtasidagi farqni tushunish uchun yangilik va o‘zgarishlar muhim ahamiyatga ega. Yangilik ko‘plab tovarlar, texnologiyalar, vositalar, tashkil etish shakllari, boshqaruv usullari, innovatsion yechimlarga tegishli bo‘lishi mumkin. Xuddi shunday, o‘zgarishlar texnik, iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy bo‘lishi mumkin. Biroq, texnik va ijtimoiy o‘zgarishlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita mintaqa iqtisodiyotiga ta’sir qiladi va oxir-oqibat iqtisodiy o‘zgarishlarga olib keladi¹⁰.

Investitsion va innovatsion rivojlanishning sharti qulay institutsional muhitni yaratishdir. O‘zbekiston Respublikasida investitsiya va innovatsion faoliyatni tartibga solishning asosiy qonunlaridan biri bu “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi¹¹ Qonun bo‘lib, ushbu Qonunning maqsadi innovatsion faoliyat sohasidagi

⁸ Morgachev I.B. Совершенствование инфраструктурного обеспечения региональных инвестиционно-инновационных процессов на основе их оценивания : дис. ... д-ра экон. наук: 08.00.05. Северодонецк, 2020. 728 с.

⁹ Morgachev I.B. Совершенствование инфраструктурного обеспечения региональных инвестиционно-инновационных процессов на основе их оценивания: дис. ... д-ра экон. наук: 08.00.05. Северодонецк, 2020. 728 с.

¹⁰ Tslyiuryk H.I. Innovative activities in the conditions of economic competition]. Appearance and financial APK (electronic journal). Available at: <http://magazine.faaf.org.ua/innovaciyna-diyalnist-v-umovah-eko-nomichnoi-konkurencii.html> (accessed 29 April 2021).

¹¹ Ўзбекистон Республикасининг “Инновацион фаолият тўғрисида” 2020 йил 24 июль, ЎРҚ-630-сон Қонуни. <https://lex.uz/acts/4910391>.

munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lib, innovatsion faoliyat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari:

- innovatsion rivojlantirishning huquqiy jihatdan tartibga solinishini ta'minlash;

- innovatsion faoliyat sohasidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilash, shu jumladan texnologik taraqqiyotni prognozlashtirish asosida belgilash;

- innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar va infratuzilmani yaratish;

- innovatsion faoliyat subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;

- innovatsion faoliyat sohasidagi respublika, tarmoq va hududiy davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

- innovatsion faoliyatga investitsiyalarni jalb etishga ko'maklashish;

- innovatsion faoliyat sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;

- innovatsion faoliyat sohasida kadrlarni tayyorlashni, qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni tashkil etishdan iborat.

Shuningdek, "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasi investitsiya va innovatsion faoliyatning qonunchilik tushunchasini quyidagi norma bilan to'ldiradi: "innovatsiya – fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo'llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlaydigan yangi ishlanma; yangi ishlanma – mavjud o'xshash intellektual faoliyat natijalariga nisbatan yangi belgilarga ega bo'lgan, amalda qo'llash mumkin bo'lgan va amaliyotda undan foydalanganda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlay oladigan intellektual faoliyat natijasi (ishlab chiqarish, ma'muriy, tijorat yoki boshqa xususiyatga ega yangi yoki mukammal texnologiya, xizmat va tashkiliy-texnik yechim); innovatsion faoliyat – yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularning o'tkazilishi va amalga oshirilishini ta'minlashni o'z ichiga oladi".

Hududlarni investitsion va innovatsion rivojlantirish bo'yicha muhim dasturiy hujjat innovatsion iqtisodiyotni barpo etish muammosini hal yetishning quyidagi

yo‘nalishlarini belgilab beruvchi 2030-yilgacha bo‘lgan davrda innovatsion faoliyat sohasini rivojlantirish strategiyasidir:

- O‘zbekiston Global Innovatsion Indeksda Top-50 talik mamlakatlar ro‘yxatiga kirishini ta‘minlash;

- har bir million aholiga to‘g‘ri keladigan tadqiqotchilar sonini 2 ming nafarga yetkazish;

- ichki va tashqi bozorlarda tijoratlashtirish natijasida yaratiladigan yangi innovatsion ishlanmalar sonini 2 barobarga oshirish;

- elektrotexnika, mashinasozlik, to‘qimachilik, kimyo, qurilish materiallari, metallni qayta ishlash, geologiya, energetika, bio-texnologiya, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, transport va logistika kabi yo‘nalishlarda “Izlanish va rivojlantirish” (R&D) markazlarini tashkil etish¹². Albatta, ushbu begilangan vazifalar investitsiyasiz amalga oshmaydi shu bois, mamlakatimizning investitsion jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog‘ozlar bozorini jadal rivojlantirish maqsadida, bir qator vazifalar ushbu strategiyada belgilangan bo‘lib, ular quyidagilarda o‘z aksini topadi:

- mamlakatimizda 250 milliard dollarlik investitsiyalarni o‘zlashtirish, jumladan 110 milliard dollar xorijiy investitsiyalar va 30 milliard dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish;

- erkin muomaladagi qimmatli qog‘ozlar savdolari hajmini 8 milliard dollarga yetkazish;

- umumiy qiymati 150 milliard dollarlik 500 dan ziyod strategik ahamiyatiga ega bo‘lgan texnologik va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish;

- hududlarning investitsion reytingini yuritish, har bir hududning imkoniyatlaridan kelib chiqib, uning investorlar uchun jozibadorligini yanada oshirish;

- pay va venchur jamg‘armalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali portfel investitsiyalar hajmini 2 barobarga oshirish;

¹² Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида 11.09.2023 йилдаги ПФ-158-сон Фармони, <https://lex.uz/ru/docs/6600413>.

- chet ellik nominal saqlovchilar hamda kastodian banklarning mahalliy kapital bozorida qatnashishi uchun infratuzilmani yaratish;

Hududlarni investitsion va innovatsion rivojlantirishning asosiy tarkibiy qismi mahalliy innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish va tashqi bozorlarga olib chiqish hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo‘shilgan qiymati yuqori bo‘lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish maqsadlari qatorida quyidagilar belgilangan:

- eksport hajmini 2 barobar oshirish va 45 milliard dollarga yetkazish, eksportchi korxonalar sonini 6,5 mingtadan 15 mingtaga yetkazish;

- eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 barobar ko‘paytirish, Yevropa davlatlariga GSP+ va boshqa tizimlari doirasida tayyor va texnologik mahsulotlar eksportini kengaytirish;

- xalqaro standartlar joriy qilingan korxonalar sonini 10 barobarga oshirish va ular sonini 5 mingtaga yetkazish;

- dunyoning 50 ta nufuzli brendlari bilan maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil qilish;

“Yangi O‘zbekiston – raqobatbardosh mahsulotlar yurti” g‘oyasi asosida milliy brendlarni xorijiy bozorlarga olib chiqadigan eksportchilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash¹³.

Ushbu me‘yoriy hujjatlar hozirgi institutsional sharoitda rivojlanayotgan investitsiya va innovatsion rivojlanish modelining umumiy xususiyatlarini tashkil qiladi. Ular investitsiya va innovatsion rivojlanishni rag‘batlantirish bo‘yicha davlat siyosatining yo‘nalishlarini inson salohiyati, tadbirkorlik salohiyati va korxonalarning tashkiliy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar bilan to‘ldiradi.

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirishning kutilayotgan natijasi tadbirkorlik subyektlarining (xususan, kichik va o‘rta biznes subyektlarining)

¹³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида 11.09.2023 йилдаги ПФ-158-сон Фармони, <https://lex.uz/ru/docs/6600413>.

texnologik mahsulotlar (xizmatlar) ishlab chiqarish (ko'rsatish) bo'yicha investitsiya va innovatsion loyihalarni amalga oshirish va xorijiy mamlakatlarda muvaffaqiyatli raqobatlasha olish qobiliyatini ta'minlashdan iborat. Hududni rivojlantirishning investitsiya va innovatsion jarayonlarini rejalashtirish uzoq muddatli istiqbolda amalga oshirilishi ma'qul.

Makroiqtisodiyot subyektlarining manfaatlari va faoliyat sohalarini tashkil etish hamda muvofiqlashtirish ishlab chiqarish usullariga, resurslarni boshqarishga, kapitalni to'plashga va iste'mol tarkibiga ta'sir qiluvchi muhim institutsional o'zgarishlar natijasida yuzaga keladi. Ushbu o'zgarishlarning mazmuni va dinamikasini tushunish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan innovatsion jarayonlarning belgilari hamda bosqichlari mazmuniga ko'ra innovatsiyalarni yaratish, rivojlantirish va tarqatish; bilimlarni innovatsiyaga aylantirish; innovatsion g'oyani mahsulot (xizmat)ga aylantirish; investitsiya va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish maqsadida ishlab chiqarish, tashqi muhit va infratuzil-madagi o'zgarishlar majmuasiga bo'linadi¹⁴.

Mintaqadagi innovatsion jarayonlarning borishini tavsiflaydigan bo'lsak, innovatsion jarayon tushunchasini ma'lum bosqichlarning ketma-ket o'zgarishi sifatida asoslanmasligi lozim, chunki bu darajada bir vaqtning o'zida amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlari va bir vaqtning o'zida turli bosqichlarda bo'lgan tegishli jarayonlar ko'p. Bundan kelib chiqqan holda ta'kidlash joizki, nazariyani ishlab chiqishning xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya va innovatsion jarayonlari yig'indisidir.

Bu hududni rivojlantirishning investitsiya va innovatsion jarayonining bosqichlari haqida faqat davlat yoki mahalliy rivojlanish strategiyalarini (dasturlarini) amalga oshirish bosqichlari bilan bog'liq holda investitsiyalarni rag'batlantirish, innovatsiyalar, savdo, ta'lim va ta'lim loyihalarini amalga

¹⁴ Никон Д.Е. Активизация региональных инвестиционно-инновационных процессов в условиях рецессии: дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05. Одесса, 2019. 191 с.

o'shish, xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, tashqi iqtisodiy operatsiyalarni ta'minlash va boshqalar to'g'risida gapirish imkonini beradi.

Hududning investitsion va innovatsion rivojlanishining zarur shartlaridan biri bu jarayonlarning alohida bosqichlarini amalga oshirishni ta'minlaydigan obyektlar va subyektlar infratuzilmasini shakllantirishdir¹⁵. Ularga yuklangan funksiyalarga ko'ra fikrimizcha, quyidagi subyektlar guruhlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- institutsional innovatsion mexanizmni shakllantirish va rivojlantirish: davlat va mahalliy hokimiyat organlari;

- innovatsiyalarni yaratish va joriy etish: oliy o'quv yurtlari va ilmiy muassasalar, investitsiya va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlovchi davlat muassasalari va hukumat, parlament, mahalliy hokimiyat organlari;

- investitsiya va innovatsion faoliyatni ta'minlashning iqtisodiy mexanizmi doirasida:

- 1) moliyalashtirish: tijorat banklari, fond birjalari va brokerlik tashkilotlari;

- 2) riskni minimallashtirish: sug'urta kompaniyalari;

- 3) qulay muhitni shakllantirish: davlatning soliq va investitsiya siyosatini rejalashtirish va amalga oshirish organlari;

- innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi maxsus institutlar: investitsiyalarni rivojlantirish agentliklari, mintaqaviy investitsiya va ventur fondlari, investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash tizimlari va boshqalar.

Hududlarni rivojlantirishning investitsiya va innovatsion jarayonlarini rag'batlantirish subyektlar tomonidan ham muayyan chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda bunday chora-tadbirlar orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- uzoqni ko'ra bilish tadqiqotlari va texnologik jarayonlarni bashoratli tahlil qilish uchun tashkilotlarni tashkil etish;

¹⁵ Волощук К.Б., Лисевич Н.А. Особенности инновационно-инвестиционного развития производства продукции животноводства агропромышленными предприятиями Инновационная экономика. 2019. №3–4. С. 12-17.

- fanlararo ilmiy-texnikaviy ishlarning davlat va xususiy markazlarini tashkil etish;

- barcha darajadagi innovatsion tuzilmalarni joriy qilish tarmog'ini innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishga o'tkazish zanjirlarini yaratish;

- ilmiy-texnikaviy sohada xalqaro hamkorlikni kengaytirish;

- mahalliy innovatsion biznesning asosiy segmentlarini xalqaro miqyosda ommalashtirish;

- patentlash, mualliflik huquqini himoya qilish, ilmiy ishlanmalarga sarmoya kiritish va innovatsion faoliyat sohasidagi milliy qonunchilikni muvofiqlashtirish;

- soliq imtiyozlari;

- axborot texnologiyalarini rivojlantirish;

- texnologiyalar transferi va intellektual mulk obyektlarini baholash tizimini takomillashtirish;

- ilmiy-texnik ma'lumotlarning avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bazalaridan keng foydalanishni ta'minlash va tegishli axborot tuzilmalarini yaratish.

Tadqiqotda o'rganilgan natijalarni umumlashtirish quyidagi xulosalar chiqarish imkonini beradi. Ko'rib chiqilgan ilmiy tadqiqot ishlarida hududiy rivojlanishning investitsion-innovatsion jarayonining mohiyati masalalari yetarlicha o'rganilmagan bo'lib, ko'pgina zamonaviy tadqiqotlarda e'tibor korxonalarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish va uni moliyalashtirish masalalariga, alohida mualliflar uning mintaqa iqtisodiyotiga ta'sirini tavsiflashga, alohida mualliflar esa hududiy rivojlanishning investitsion va innovatsion jarayonlarini tizimli ravishda ko'rib chiqishga harakat qilganlar.

Hududni rivojlantirishning investitsion va innovatsion jarayonlarini iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish va shakllantirish maqsadida makroiqtisodiy subyektlarning (uy xo'jaliklari, xo'jalik yurituvchi subyektlar, davlat) asosiy manfaatlari va faoliyatini o'rganish, korxonalarning innovatsion faoliyati va uni samarali moliyalashtirish uchun qulay tashqi muhit tashkil etish va muvofiqlashtirish jarayoni sifatida ko'rish maqsadga muvofiqdir.

O'tkazilgan tadqiqotlar investitsiya va hududlarni innovatsion rivojlantirish jarayonlarini rag'batlantirishning mohiyati va yondashuvlarini talqin qilishda aniq

- ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan rivojlanish strategiyalarida, xususan, davlat va uning hududlarida innovatsion taraqqiyotga nisbatan deklarativlik;
- innovatsion faoliyat va jarayonlarni davlat tomonidan boshqarishning yaxlit tizimini mavjud emasligi;
- "mamlakat iqtisodiyoti – hudud/tarmoq/iqtisodiy faoliyat turi – tadbirkorlik subyekti majmuasida innovatsion strategiyalarning nomuvofiqligi;
- innovatsion strategiyani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslarni aniqlash va ta'minlash, yo'naltirish hamda taqsimlash muammolarining to'liq o'rganilmaganligi;
- tashkilotning innovatsiyalarni boshqarish sohasidagi faoliyati bilan bog'liq statistik ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashning samarali yagona metodologiyasining yo'qligi va boshqalar. Rivojlanishning innovatsion turiga o'tish bilan bog'liq iqtisodiy o'zgarishlarni o'zida mujassam etgan mamlakatlarda davlat innovatsion va investitsiya siyosati O'zbekiston Respublikasida hali ham diqqat bilan qayta ko'rib chiqish hamda takomillashtirishni talab qiladigan tamoyillarga asoslanishi va hisobga olinishi kerak:
- innovatsion-investitsion faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash manbalarini diversifikatsiya qilish;
- iqtisodiyotning ijtimoiy ishlab chiqarish tizimidagi tub o'zgarishlarni va fanni ko'p talab qiladigan tarmoqlarni ustuvor rivojlantirishni ta'minlovchi asosiy, tub innovatsiyalarga qabul qilish qobiliyatini oshirish;

- milliy ijtimoiy-iqtisodiy, tarkibiy va ishlab chiqarish xususiyatlari, ilmiy-tadqiqot, innovatsion -investitsion salohiyat, xalqaro vaziyatni hisobga olgan holda innovatsion rivojlanishni faollashtirishning muqobil variantlarini modellashtirish;

- davlat mablag'laridan foydalanishni nazorat qilish va xorijiy xususiy hamda davlat investorlarini milliy iqtisodiyotga investitsiya kiritishga rag'batlantirish tizimini takomillashtirish;

- davlat va xususiy sektor hamkorligi, xo'jalik yurituvchi subyektlarni innovatsion-investitsion faoliyatini amalga oshirishga rag'batlantirishni kuchaytirish;

- ilmiy-tadqiqot ishlari sohasida korxonalarning rentabelligi va samaradorligini oshirish va ularning natijalarini joriy etish;

- milliy va hududiy, tarmoq innovatsion tizimlarini, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, samarali hamkorlikni ta'minlash, fan va ishlab chiqarish tarmoqlari integratsiyasi;

- innovatsion investitsiya faoliyatini kuchaytirishni institutsional-huquqiy, tashkiliy-boshqaruv, axborot-tahliliy ta'minlash, davlat boshqaruvi tizimi, xususan, monitoring

va prognozlash tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi mavjud resurslardan samarali foydalanish;

- davlat innovatsion-investitsion siyosati maqsadlarining, mamlakat innovatsiya

va investitsiya jarayonlarining jamiyat manfaatlari hamda qadriyatlariga muvofiqligi.

Mamlakatda innovatsion rivojlanish va investitsiya jarayonlari bilan doimiy ravishda yuzaga keladigan va ularni hal qilishda davlatning roli hal qiluvchi bo'lib, birinchi navbatda innovatsion-investitsion siyosatini shakllantirish, davlat tomonidan tartibga solish vositalarini samarali amalga oshirish, innovatsion va investitsiya salohiyatini rivojlantirishga, nafaqat ishlab chiqarish sohasini, balki iqtisodiy faoliyatning barcha sohalari va turlarini texnologik jihatdan yangilashga, bilimlarni rivojlantirishga, kadrlar malakasini oshirishga yo'naltirilishi lozim

bo'lgan ustuvor yo'nalishlari, strategiyasi va boshqaruv harakatlari, milliy bozorning yuqori texnologiyali mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish bo'yicha qonunchilikni to'g'ri belgilashdan iborat.

Mamlakat iqtisodiyoti va uning xo'jalik yurituvchi subyektlari o'sishining asosiy omillari turli moliyalashtirish manbalaridan foydalanish jarayonini takomillashtirishdir. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning investitsiya siyosati davlatning investitsiya va innovatsion siyosati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bunday uyg'unlik ma'lum chegaralar doirasida qurilishi va davlat tomonidan moliyalashtirishning ustuvorligi kabi innovatsion g'oyalar va texnologik ishlanmalarni tuzuvchi tuzilmalar kapitalida ishtirok etish orqali byudjet mablag'larini xususiy investitsiyalar bilan integratsiyalash; byudjetdan tashqari manbalardan qo'shimcha mablag' olish tamoyillariga asoslanishi kerak.

Investitsiyalarning intensivligi soliq va kredit siyosatining o'zaro ta'siriga bog'liq bo'lib, moliyaviy tizimda samarali uyg'unlashuv va muvofiqlashtirishning tegishli darajasida sanoat korxonalarini rivojlantirishga investitsiyalar uchun mablag'lar va moliyaviy aktivlarni chiqarish imkoniyatini beradi.

Investitsiya siyosatining maqsadini amalga oshirish vositalari uning mazmuniga mos kelmaydi va kutilgan natijalarga erishish maqsadlarini ta'minlamaydi, bundan tashqari, maqsadlarga erishishning ijodiy jarayoni oldindan aytib bo'lmaydigan bo'lib qoladi va qisqa muddatli ustuvorliklar bilan cheklanadi. Maqsad va vositalarning yaxlitligi asosidagina investitsiya jarayonining barcha subyektlari iqtisodiy manfaatlarini muvofiqlashtirishni ta'minlash, investitsiyalar hajmini iqtisodiyotning mavjud salohiyati bilan ko'paytirish, investitsiyalar hajmini va ulardan foydalanish samaradorligi oshirish mumkin.

Iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha milliy investitsiya strategiyasini ishlab chiqish davlat va biznes o'rtasida o'zaro manfaatli munosabatlarni o'rnatishning asosiy rolini belgilaydi. Xususan, u davlatning jismoniy va yuridik shaxslar faoliyatiga bevosita aralashuvini emas, balki biznes-jarayonlarni muvofiqlashtirish, ko'maklashish, tartibga solish va monitoringini o'z ichiga olishi kerak. Davlatning asosiy ta'siri tadbirkorlarning samarali ishlashi uchun shart-sharoitlarni

shakllantirish uchun qonunchilik bazasini yaratish va qo'llab-quvvatlashga, iqtisodiy faoliyatning yagona qoidalarini o'rnatishga, mavjud resurslardan foydalanish imkoniyatlarini eng maqbulini tanlashga yo'naltirilishi kerak.

Investitsion siyosatni shakllantirish usullari bilan birgalikda investitsiya jarayonini davlat tomonidan tartibga solishga yondashuvlarni nazariy jihatdan ishlab chiqishning yetarli darajada emasligi, institutsional va axborot iqtisodiyoti sharoitida investitsiya faoliyatini boshqarishning tartibga solish mexanizmlarining ahamiyatini e'tiborsiz qoldirish asosiy omillardan biridir.

Bizning fikrimizcha, aynan yangi institutsional iqtisodiy nazariya mulk huquqi, tranzaksiya xarajatlari, imkoniyat xarajatlari, shartnomaviy va korporativ munosabatlar, "yangi iqtisodiyot" nazariyalari bilan birgalikda iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning eng adekvatli vazifasidir.

Iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha investitsiya siyosatini shakllantirish va amalga oshirishning samarali jarayoni nafaqat investitsiya jarayonlarini rivojlantirishni, balki ushbu jarayonlarni institutsional qo'llab-quvvatlash bilan mustahkamlashni, shuningdek, boshqaruvni faollashtirish uchun tegishli tahliliy va tanlov mexanizmlarini yaratishni talab qiladi. Bu esa investitsiya faoliyatining har bir bosqichida aniq strategik va operatsion qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Investitsiya faoliyati o'z mazmuniga ko'ra murakkab bo'lib, turli bosqichlardan iborat bo'lgan investitsion siklni o'z ichiga oladi. Investitsion sikl — bu investitsiya qarori qabul qilingan paytdan boshlab, investitsiya loyihasini amalga oshirish va uning daromadliligiga erishish, rejalashtirilgan natijani olish yoki ijtimoiy foydaga erishishgacha bo'lgan chora-tadbirlar majmui sifatida tushunilishi kerak.

Bizning fikrimizcha, investitsion sikl quyidagi asosiy bosqichlardan tashkil topadi:

Investitsiyadan oldingi bosqich — bu bosqich investitsiya qarorlarini qabul qilish, investitsiya manbalarini aniqlash, shuningdek investitsiya loyihasini tasdiqlash

va ekspertizadan o'tkazishni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichda loyiha

samaradorligi, xavf-xatarlar va kutilayotgan natijalar tahlil qilinadi, shuning uchun strategik rejalashtirishning asosiy poydevori sifatida xizmat qiladi.

Investitsiya bosqichi – bu bosqich investitsiya obyektiga mablag‘larni kiritish va buning uchun zarur bo‘lgan barcha amaliy harakatlarni bajarishni nazarda tutadi. Shu jarayonda resurslar taqsimoti, texnologik yechimlar tatbiqi va loyihani real sharoitlarda amalga oshirishning monitoringi muhim ahamiyatga ega.

Operatsion davr – ushbu bosqichda investitsiya obyektining ishlashi natijasida foyda olish yoki ma’lum ijtimoiy samaraga erishish uchun sarflangan mablag‘lar qoplanadi. Bu bosqich investitsiya loyihasining samaradorligini va investorlar uchun daromadni ta’minlash bilan birga, ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlarning amalga oshirilishini ham nazorat qiladi.



1.3.1-rasm. Investitsion jarayonni davlat tomonidan tartibga solishning muvozanatlashtiruvchi harakat mexanizmi

O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatini tartibga solish davlatning muhim vazifalaridan biri bo'lib, bu jarayon dasturiy va moliyaviy mexanizmlarning muvozanatli ishlash tamoyillariga asoslanishi lozim. Bu nafaqat davlatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasini amalga oshirishga, balki investitsiya muhitini barqarorlashtirish va ichki hamda tashqi investorlarni jalb qilishga ham xizmat qiladi (1.3.1-rasm).

Investitsion faoliyat quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

- tijorat tuzilmalarini yaratish va ularga sarmoya kiritish. Amaldagi qonunchilikka muvofiq investorlar ulushlar, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olish, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subektlarning ustav fondiga badallar kiritish huquqiga ega. Chet ellik investorlar O'zbekiston Respublikasi jismoniy va yuridik shaxslari bilan birgalikda tuzilgan korxonalarda qisman ishtirok etish yoki mavjud korxonalarning ulushlarini sotib olish huquqiga ega;

- to'liq xorijiy investorlarga tegishli korxonalar, xorijiy yuridik shaxslarning filiallari va boshqa alohida bo'linmalarini tashkil etish yoki mavjud korxonalarni to'liq sotib olish, davlat korxonalari mulkini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida tugallanmagan kapital qurilish obyektlarini xususiylashtirishda ishtirok etish;

- konsessiya shaklida kooperativ shartnomalariga (birgalikda faoliyat to'g'risidagi shartnoma) huquqlar berish, intellektual mulk obyektlari, bank kreditlari ko'rinishidagi litsenziya shartnomalari, kompensatsiya asosida yer va boshqa tabiiy resurslarga bo'lgan mulk huquqi, mulkni ijaraga berish;

- innovatsion faoliyat va davlatning investitsiya faoliyati (kapital qurilishda ishlarni bajarishga davlat buyurtmasi; davlat ehtiyojlarini qondirish uchun eng muhim yo'nalishlarda investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi investorlar uchun imtiyozli shart-sharoitlar yaratish va boshqalar).

Investitsion faollik darajasini oshirish uchun tegishli investitsiya muhitini yaratish zarur. Investitsion muhitning holati mavhum emas, balki o'ziga xos moliyaviy va huquqiy ahamiyatga ega bo'lib, investor uchun investitsiyalarning kutilayotgan rentabelligidan va investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakat uchun haqiqiy olingan investitsiya resurslarida namoyon bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, iqtisodiyotni rivojlantirishning investitsiya siyosati davlatning innovatsion siyosati bilan chambarchas bog‘liq, shuning uchun investitsiya va innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash muayyan chegaralarga ega bo‘lishi va davlat tomonidan moliyalashtirishning ustuvorligi; innovatsion g‘oyalar va texnologik ishlanmalarni tuzuvchi tuzilmalar kapitalida ishtirok etish orqali davlat mablag‘larini xususiy investitsiyalar bilan birlashtirish; turli kanallardan qo‘shimcha moliyalashtirish manbalarini olish kabi tamoyillarga asoslanishi kerak.

Qonunda belgilangan chora-tadbirlar pul-kredit va moliya boshqaruvining vakolatli organlari tomonidan amalga oshiriladi va investitsiya siyosatini amalga oshirish imkoniyatini ta‘minlaydi. Demak, o‘rganilayotgan mexanizm, bir tomondan, asosiy (pul va uning to‘lov va jamg‘arish, moliya va kredit funksiyalari), ikkinchi tomondan, institutsional va tashkiliy tuzilmani ifodalaydi.

Birinchisi, tadbirkorlik subyektlarining pul aylanishining ijtimoiy takror ishlab chiqarish, ishlab chiqarish kapitalining joriy va investitsiya aylanishining iqtisodiy asoslari bilan uzviy bog‘liqligini amalga oshiradigan investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlashni tashkil etish mexanizmi faoliyatining asosiy, ammo to‘liq emas shartidir.

Ikkinchisi, o‘zini o‘zi ta‘minlashi bazaning o‘ziga xos elementlarining investitsiyalardan kelib chiqadigan va mexanizmning institutsional tuzilmasini tashkil etuvchi tartibga solishning o‘ziga xos huquqiy shakllari bilan tarkibiy darajadagi o‘zaro ta’siri orqali erishiladi. Uning maqsadi iqtisodiyotning real sektorida investitsiya munosabatlarining tashkiliy imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishdir. Shunday qilib, investitsiya ta‘minoti o‘zining institutsional munosabatlari doirasida investitsiya resurslari aylanishini birlashtiruvchi ko‘p funksiyali va tarkibiy dinamik tizim sifatida tavsiflanadi.

Natijada, ishlab chiqarish va makroiqtisodiyotning o‘zaro ta’siri makonida uning investitsiya salohiyatini yaratishning zarur sharti bo‘lib xizmat qiladigan investitsiya resurslarini tuzish, joylashtirish va ulardan foydalanish jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi aniqlanadi. Shu nuqtai nazardan, investitsiyalar bilan ta‘minlanish holati iqtisodiyot holatining ko‘rsatkichidir (uning moliyaviy-iqtisodiy tashkil etilishining ma’lum darajasida), u reproduktiv jarayonning sifat darajasini, joriy pul oqimlari orqali

mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishning qaysi bosqichida ekanligini ko'rsatadi, investitsiyalarning izchillik darajasini aks ettiradi.

Investitsion siyosatni tartibga solish hodisasi sifatida ko'rib chiqishda shuni ta'kidlash kerakki, maqsadlarning eng aniq belgilanishi, vazifalarning konstruktivligi va aniq miqdoriy belgilanishi uni ajratib turishi kerak. Biz uchun buni quyidagi ko'rinishda ifoda etish mumkin:

- birinchidan, investitsiya siyosati investitsiya jarayonlarining birlamchi asosi bo'lishi kerak, lekin uni takror ishlab chiqarishni amalda boshqarish deb hisoblash mumkin emas;

- ikkinchidan, investitsiya siyosati doirasida investitsiyalarni ta'minlash investitsiya rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishga urinishdir va shundan keyingina - yetarli darajada qulay sharoitlarda haqiqatda tartibga solish;

- uchinchidan, tartibga solish impulslarining yo'nalishi erishilgan parametrlarning belgilangan maqsad bilan majburiy mos kelishi bilan birga kelmaydi. Har qanday hodisaning mohiyatini anglash va rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashga yaqinroq bo'lishni ta'minlaydi.

Iqtisodiyotda investitsiya resursining ishlashi uning ishtirokchilarining joriy talablarini hisobga olgan holda rivojlanadigan va takomillashtiriladigan adekvat, yaxlit, barqaror va tartibli tuzilmaning mavjudligini talab qiladi. Investitsion resurslar bozori ishtirokchilarining barcha darajadagi barcha sohalarda, xususan, ishlab chiqarish va moliya sohasida birgalikdagi faoliyatining afzalliklarini amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, ushbu bozorning tarkibiy samaradorligi milliy iqtisodiyotning barcha darajalarida faoliyat ko'rsatish shakllari va subyektlarida tegishli nisbatning shakllanishiga bog'liq. Shuning uchun iqtisodiy faoliyatning samarasi xo'jalik yurituvchi subyektlarning takror ishlab chiqarish sohasidagi ishtirokini optimallashtirishga bog'liq bo'lib, natijada investitsiya resurslari egalariga uni birlashtirishga erishish imkonini beradi.

1-bob bo'yicha xulosalar

Tadqiqot jarayonida 1-bobdagi milliy iqtisodiyotning investitsiya va innovatsion rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish masalalari nazariy jihatdan batafsil ko'rib chiqilib, unda investitsiya va innovatsiyalarning iqtisodiy o'sishdagi o'rnini, ularning o'zaro bog'liqligi hamda ushbu jarayonlarga davlat aralashuvining zarurligi asoslab berildi. O'rganilgan nazariy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida investitsiya va innovatsiyalar iqtisodiy taraqqiyotning ajralmas tarkibiy qismlariga aylanib bormoqda.

Jumladan, 1.1-paragrafda investitsiya va innovatsion rivojlanishni tartibga solish bo'yicha mavjud nazariy qarashlar tahlil qilindi. Jumladan, investitsiyalar iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim manbai sifatida innovatsiyalar orqali ularning samaradorligi yanada ortadi, shu bilan bir qatorda, innovatsion faoliyat ishlab chiqarishni yangilash, resurslardan samarali foydalanish va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi.

Shu sababli ham investitsiya va innovatsion jarayonlarni alohida yo'nalishlar sifatida emas, balki yagona va o'zaro bog'liq tizim sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Bu boradagi tahlillar esa, investitsiya va innovatsiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ishlab chiqarish hajmini oshirish, iqtisodiyot tarkibini modernizatsiya qilish va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini kengaytirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatmoqdi. Mazkur holat milliy iqtisodiyotda innovatsion rivojlanish modeliga bosqichma-bosqich o'tish zarurligini taqozo etadi.

Tadqiqot ishining 1.2-paragrafida iqtisodiyot subyektlarining innovatsion-investitsion rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinishi natijalariga ko'ra, xo'jalik yurituvchi subyektlarning innovatsion faolligi asosan moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari, institutsional muhitning barqarorligi, innovatsion infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi hamda inson kapitali sifati bilan belgilanadi. Mazkur omillarning yetarli darajada shakllanmaganligi innovatsion faoliyatning sekinlashuviga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, innovatsion loyihalarning yuqori xatarlar bilan bog'liqligi, moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi va boshqaruv mexanizmlarining yetarli darajada takomillashmaganligi iqtisodiyot subyektlarining innovatsion-investitsion faolligini pasaytiruvchi asosiy muammolar sifatida aniqlandi. Bunday holatlar esa, innovatsion rivojlanishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va muvofiqlashtirish choralari kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur bobning 1.3-paragrafida innovatsion-investitsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va tartibga solish mexanizmlari ham tizimli ravishda tahlil qilingan bo'lib, unda davlatning rolini faqat nazorat funksiyasi bilan cheklanish emas, balki innovatsion-investitsion jarayonlar uchun qulay iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlar yaratish, shuningdek xususiy sektor subyektlarining faol ishtirokini rag'batlantirish orqali samarali mexanizm sifatida ko'rsatish masalalari ham ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, davlatning innovatsion-investitsion siyosati nafaqat iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, balki texnologik yangiliklarni joriy qilish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan strategik vazifa sifatida tavsiflanadi.

Davlatning huquqiy, moliyaviy va tashkiliy choralari orqali innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashi milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida innovatsion va investitsion faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy baza shakllangan bo'lsa-da, olib borilgan tahlillar ushbu tizimda izchillik va barqarorlikni yanada mustahkamlash zarurligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi samarali hamkorlikni rivojlantirish, ventur moliyalashtirish mexanizmlaridan kengroq foydalanish hamda innovatsion infratuzilmani takomillashtirish dolzarb vazifalar sifatida ajralib turadi.

Umuman olganda, 1-bob doirasida olib borilgan tadqiqotlar milliy iqtisodiyotda investitsiya va innovatsion rivojlanishni tartibga solish tizimi tizimli va muvozanatli yondashuvni talab etmoqda. Shu jumladan, investitsiyalar va innovatsiyalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash, xo'jalik yurituvchi subyektlarning innovatsion faolligini oshirish va samarali institutsional muhitni

shakllantirish innovatsion rivojlanishning ustuvor yoʻnalishlari sifatida belgilanmoqda.

Mazkur bobda bayon etilgan xulosalar keyingi boblarda milliy iqtisodiyotda investitsiya va innovatsion jarayonlarning amaliy holatini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish uchun mustahkam nazariy asos vazifasini bajaradi.

2-BOB. MILLIY IQTISODIYOTNING INVESTITSIYA VA INNOVATSION RIVOJLANISHINING MAKROIQTISODIY TAHLILI

2.1. Milliy iqtisodiyot subyektlarining investitsiya va innovatsion faoliyatining holati

Investitsiya va innovatsion faoliyatni samarali tartibga solishni amalga oshirish uning holati va uni milliy iqtisodiyot doirasida amalga oshirish shartlarini dastlabki baholashni nazarda tutadi. Shu maqsadda turli tadqiqotchilar iqtisodiyotning umumiy xarakteristikalarini qamrab oluvchi omillarga asoslangan turli investorlarni qiziqtirishi mumkin bo'lgan iqtisodiyotning holati, tarmoq va faoliyat turlari bo'yicha bevosita investitsiyalarni jalb qilish hamda samaradorligi kabi ko'rsatkichlardan foydalanadilar. Boshqacha qilib aytganda, investitsiya va innovatsion faoliyatni tartibga solish bo'yicha davlat siyosatini ishlab chiqish hamda takomillashtirishning asosiy masalasi milliy iqtisodiyotning investitsion-innovatsion holati ko'rsatkichlarini aniqlash hisoblanadi.

Investitsiya va innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar masalalari milliy iqtisodiy tizimda tegishli ishbilarmonlik muhitini yaratish muammosidir. Milliy iqtisodiyotda investitsiya va innovatsion faoliyat ko'rsatkichlarini tanlash xo'jalik yurituvchi subyektlar hamda davlat organlari tomonidan milliy iqtisodiyotda investitsion-innovatsion jarayonlarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishni ta'minlashi shart bo'lgan sa'y-harakatlar samaradorligini diagnostika qilishda muhim omil hisoblanadi.

Ya'ni bunda, omillar va ko'rsatkichlar shunday tanlanishi kerakki, ularni hisoblash hamda taqqoslash asosida nafaqat iqtisodiyotning investitsion va innovatsion holati, balki tartibga solish ta'sirini qo'llashning eng maqbul sohalari, yo'nalishlari, obyektlari bo'yicha ham xulosalar chiqarish mumkin bo'ladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda investitsiya va innovatsion faoliyat ko'rsatkichlarini tanlash masalasiga jiddiy e'tibor berilgan. Xususan, xorijiy investitsiyalarni jalb

qilish samaradorligini baholash omillarini aniqlaydigan ko'plab tadqiqotlar²⁶ mavjud.

Ushbu omillarni aniqlash bilan bog'liq manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik mualliflar birinchi navbatda YaIM (mutlaq yoki aholi jon boshiga²⁷), uning dinamikasi²⁸, inflyatsiya darajasi, markaziy bank diskont stavkasi, valyuta kursi²⁹, o'rtacha yoki maksimal soliq stavkasi, soliq tushumlari va xarajatlari, o'rtacha ish haqi³⁰ kabi makro ko'rsatkichlar bilan ishlaydi.

Bundan tashqari, investitsiya va innovatsion faoliyat ko'rsatkichlari sifatida iqtisodiyotning iste'mol va ishlab chiqarish salohiyati mamlakatda turmush darajasi, bozor hajmi yoki sanoat va qishloq xo'jaligi (xususan, xom ashyo va resurslarning xususiyatlari) salohiyati tarzida hisobga olinadi. Aholining yuqori samarali mehnatga tayyorligining mehnatga layoqatli aholining ta'lim darajasi, maktab o'quvchilari soni kabi bilvosita ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, bu kontekstda aholi soni, ishsizlar ulushi va texnik ma'lumotga ega bo'lganlar ulushi kabi bir qator ko'rsatkichlarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu ma'lum darajada mamlakatning innovatsion salohiyatining ko'rsatkichi sifatida ilmiy-

²⁶ Receanu A.S. Factors Influencing Foreign Direct Investments in Romania The Case of Danish FDI. Romania Copenhagen Business School, 2010, June.; Sawkut R., Boopen S., Taruna R. & Vinesh S. Determinants of FDI: Lessons from African economies. Journal of Applied Business and Economics. 2009, Vol. 9, №1. P. 293-308.; Walsh J.P. & Yu J. Determinants of Foreign Direct Investment: A Sectoral and Institutional Approach. IMF Working Paper WP/10/187, 2010.; Yasmin B., Hussain A. & Chaudhary M. Analysis of factors affecting foreign direct investment in developing countries. Pakistan Economic and Social Review. 2003, Vol. XLI, №1&2. P. 59-75.; Uwubamwen A.E. & Ajao M.G. The Determinants and Impacts of Foreign Direct Investment in Nigeria. International Journal of Business and Management. 2012, Vol. 7, №24. P.67-77.

²⁷ Кудаса К.И. Управление развитием. 2013. Т. 16, №156. С. 41-43.; Yasmin B., Hussain A. & Chaudhary M. Analysis of factors affecting foreign direct investment in developing countries. Pakistan Economic and Social Review. 2003, Vol. XLI, №1&2. P. 59-75.; Receanu A.S. Factors Influencing Foreign Direct Investments in Romania The Case of Danish FDI. Romania Copenhagen Business School, 2010, June.

²⁸ Lee J. Cross-country evidence on the effectiveness of foreign investment policies. The international trade journal. 2005, Vol. XIX, №4, Winter 2005. P. 381-389.; Lewis J. Factors Influencing Foreign Direct Investment in Lesser Developed Countries The Park Place. Economist. 2000, Vol. VIII. P. 99-107.; Walsh J.P. & Yu J. Determinants of Foreign Direct Investment: A Sectoral and Institutional Approach. IMF Working Paper WP/10/187, 2010.

²⁹ Yasmin B., Hussain A. & Chaudhary M. Analysis of factors affecting foreign direct investment in developing countries. Pakistan Economic and Social Review. 2003, Vol. XLI, №1&2. P. 59-75.; Walsh J.P. & Yu J. Determinants of Foreign Direct Investment: A Sectoral and Institutional Approach. IMF Working Paper WP/10/187, 2010.; Прокопенко О.В. и Клименко О.В. Механизм привлечения иностранных инвестиций в экономику Украины Механизм регулирования экономики. 2009. Т. 4, №2. 233-239.

³⁰ Прокопенко О.В. и Клименко О.В. Механизм привлечения иностранных инвестиций в экономику Украины Механизм регулирования экономики. 2009. Т. 4, №2. 233-239.; Землянкин А.И. Инновационная деятельность: состояние и пути развития. Экономика промышленности. 2005, №1. С. 107-114.; Иванов Ю.Б. Налоговые аспекты государственной поддержки инновационной деятельности предприятий. Материалы междуна. науч. практич. конф.; под ред. Р. М. Нижегородцева. М. 2006. С. 114-117.

tadqiqot ishlariga sarflangan yalpi ichki mahsulotdagi ulushni o'z ichiga olishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya va innovatsion muhit, investitsion va innovatsion salohiyat, iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish hamda investitsiyalarni tartibga solish masalalari bo'yicha S.S.G'ulomov³¹, D.G'.G'ozibekov, T.M.Qoraliyev³², B.T.Bayxonov³³, U.A.Otajanov³⁴, S.A.Abdurahimova³⁵ va boshqalar tadqiqotlar olib borilgan.

Jahon iqtisodiy fani va amaliyotida uzoq vaqt davomida iqtisodiyotlar, alohida korxonalar, hududlar va tarmoqlarning qulaylik omillari va investitsion va innovatsion takror ishlab chiqarish samaradorligi omillari uzoq vaqt davomida aniqlangan, tahlil qilingan va tasniflangan.

Makro darajada, bu tadqiqotlar natijasi, xususan, ushbu faoliyatni yetarlicha keng qamrovli tarzda tavsiflovchi agregat indekslarni ishlab chiqish edi. Ular orasida, birinchi navbatda, jahon iqtisodiy hamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan, Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan biznes yuritish reytingi³⁶ kabi yillik bir qator hamkor tashkilotlar tomonidan yillik Jahon iqtisodiy forumi uchun ishlab chiqariladigan Global raqobatbardoshlik indeksi (GCI) va Kornel universiteti, INSEAD va Jahon intellektual tashkiloti hamkorligidagi (WIPO) Global Innovatsiyalar indeksi (GII) ko'rsatkichlarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin.

Sanab o'tilgan ko'rsatkichlarning har biri ko'p sonli quyi darajadagi kichik ko'rsatkichlardan iborat bo'lib, ular birgalikda xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsion va innovatsion faoliyati darajasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan

³¹ Гулямов С. Инвестиционное поле Узбекистана и возможности привлечения иностранных инвестиций. // Экономический вестник Узбекистана. – Ташкент: 2001. - №1.

³² Ғозибеков Д.Ғ. Қоралиев.Т.М. Инвестиция фаолиятини ташкил этиш ва давлат томонидан тартибга солиш. Т.: ТМИ, 1997, 72-бет.

³³ Байхонов Б.Т. Ўзбекистон иқтисодиётида инвестицияларнинг тармоқлараро тақсимлашни эконометрик моделлаштириш услубиётини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори (Doctor of Science) диссертацияси. ТДИУ, 2019 й. 221-б.

³⁴ Otajanov U.A. O'zbekiston Respublikasi hududlarining investitsion salohiyatini ekonometrik baholashning intellektual faoliyatini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati. TDIU, 2021 y. 75 b.

³⁵ Абдурахимова С.А. “Ўзбекистонда инвестиция жараёнларини макроиқтисодий тартибга солишни такомиллаштириш” Иқтисодиёт фанлари доктори (Doctor of Science) диссертацияси автореферати. ПМТИ – 2022 й, 37-б.

³⁶ Djankov S. The Doing Business project: How it started: Correspondence. Journal of Economic Perspectives. 2016, Vol. 30, №1. P.247 248.

ko'pgina sabablarni qamrab oladi. Reyting biznesni tartibga solishning 11 ta ko'rsatkichiga asoslanadi³⁷.

Doing Business indikatorlarini tanlash nazariy va amaliy iqtisodiy tadqiqotlarning ko'plab ma'lumotlariga, xususan Jahon banki ma'lumotlariga asoslanadi³⁸. Biznes yuritish tartibga solish muhitining bir qancha muhim tadbirkorlik faoliyatini boshlash, qurilishga ruxsat olish, elektr energiyasini olish, mulkni ro'yxatga olish, kreditlar olish, minoritar investorlarni himoya qilish, soliqlarni to'lash, eksport-import savdo operatsiyalari, shartnomalarni bajarish va to'lovga layoqatsizlikni bartaraf etish masalalarini tartibga solish bo'yicha miqdoriy jihatlarini o'z ichiga oladi (2.1.1-jadval).

2.1.1-jadval

Biznesni tartibga solish sohalari – biznes yuritish ko'rsatkichlarining tarkibiy qismlari³⁹

Soha /indikator	Nimani o'lchaydi
Biznes boshlash (korxonalar yaratish)	Jarayonlar soni, ularning qiymati, vaqti, xarajatlari, ustav kapitalining hajmi
Biznes boshlash (korxonalar yaratish)	Qurilishga ruxsat berish tizimidagi barcha qurilish rasmiyatchiliklarini, sifat nazorati va xavfsizlik mexanizmlarini bajarish uchun protseduralar soni, vaqti va xarajatlari
Elektr ta'minoti tizimiga ulanish	Protseduralar soni, elektr tarmog'iga ulanish vaqti va narxi, elektr ta'minoti ishonchliligi va tariflarning shaffofligi
Mulkni ro'yxatdan o'tkazish	Mulkni topshirish tartibi, vaqti va xarajatlari, yerni boshqarish tizimining sifati
Kredit olish	qonuniy huquqlar indeksi; kredit axboroti indeksi; davlat reestrda ro'yxatga olingan shaxslar soni, voyaga yetgan aholining %; Xususiy idoralarda ro'yxatdan o'tgan shaxslar soni, kattalar aholisining foizi
Minoritar investorlarni himoya qilish	Aloqador tomonlar bilan bitimlar va korporativ boshqaruvdagi minoritar aktsiyadorlarning huquqlari (oshkoralik indeksi; direktor mas'uliyati indeksi; aktsiyadorlarning sud jarayonlari indeksi; investorlarni himoya qilish indeksi)
Soliqlarni to'lash	Soliq to'lovlari soni, muddatlari va umumiy soliq stavkasi va firma uchun barcha soliq qoidalariga rioya qilish uchun badal
Xalqaro savdo	Eksport uchun hujjatlar soni, eksport vaqti va narxi, import uchun hujjatlar soni, import vaqti va narxi
Shartnomalarni bajarish	Sud jarayonining vaqti va narxi, protseduralar soni, sud jarayonining narxi
To'lovga layoqatsizlik muammosini hal qilish	Tijorat nochorligi uchun vaqt, xarajat, tiklanish darajasi
Mehnat bozorini tartibga solish	Bandlikni tartibga solish va ish sifati jihatlarida moslashuvchanlik

³⁷ The World Bank Doing Business, 2013. Smarter Regulations for Small and Medium-Size Enterprises. Washington, DC: The World Bank, 2018.

³⁸ Enterprise Surveys. World Bank group. 2018. <http://www.enterprisesurveys.org>

³⁹ Muallif tomonidan Doing Business. Methodology. The World Bank. 2019. <http://www.doingbusiness.org/methodology>

Qayd etish joizki, mazkur indeks makroiqtisodiy siyosat, infratuzilma sifati, ishchi kuchi malakasi, valyuta kursining o'zgarishi, investor fikri, xavfsizlik va korrupsiya darajasi kabi parametrlarni hisobga olmaydi. Binobarin, biznesni tashkil etish va yuritish shartlari siyosiy jihatlarni o'z ichiga olmaydi, faqat qonunchilik normalari va qoidalari darajasida ko'rib chiqiladi.

Global raqobatbardoshlik indeksini ishlab chiquvchilar raqobatbardoshlikni mamlakatning mahsuldorlik darajasini belgilovchi institutlar, siyosatlar va omillar majmui sifatida tushunadilar, bu esa o'z navbatida iqtisodiyot erisha oladigan farovonlik darajasini belgilaydi. Hosildorlik darajasi uning o'sishining asosiy harakatlantiruvchi omillari bo'lgan iqtisodiyotga investitsiyalardan olinadigan daromad darajasini ham belgilaydi. Boshqacha qilib aytganda, milliy raqobatbardoshlik mamlakat va uning institutlarining o'rta muddatli istiqbolda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash qobiliyatidir.

113 ta mahalliy ko'rsatkichdan iborat bo'lgan indeksni ishlab chiqish metodologiyasi yetakchi kompaniyalar rahbarlari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari (o'zgaruvchilarning taxminan uchdan ikki qismi) va obyektiv statistik ma'lumotlar (o'zgaruvchilarning taxminan uchdan bir qismi) yig'indisidan iborat. Barcha o'zgaruvchilar 12 ta guruhga birlashtirilgan bo'lib, ular ketma-ket 12 ta kichik indeks bilan ifodalanadi va milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligini belgilaydi. Xususan, muassasalar sifati, infratuzilma, makroiqtisodiy barqarorlik, sog'liqni saqlash, boshlang'ich ta'lim, oliy ta'lim va kasb-hunar ta'limi, tovarlar va xizmatlar bozori samaradorligi, mehnat bozori hamda iqtisodiy salohiyatning samaradorligi.

Birinchi darajali kichik ko'rsatkichi bu mamlakatning institutsional muhiti bo'lib, u ham davlat, ham xususiy shaxslarning faoliyati va xatti-harakatlariga bog'liq. Iqtisodiy subyektlarning bir-biri bilan va hukumat bilan o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy hamda ma'muriy asos mamlakatning davlat institutlarining sifatini belgilaydi va o'sishga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu investitsion qarorlar va ishlab chiqarish kompaniyasiga ta'sir qiladi.

Ikkinchi darajali kichik ko'rsatkich infratuzilma bo'lib, iqtisodiyotning sifatli ishlashini ta'minlashda samarali infratuzilma muhim ahamiyatga ega. Samarali yuk tashish, elektr ta'minoti, telekommunikatsiya tarmoqlari, sifatli avtomobil yo'llari, temir yo'llar, portlar va havo transporti tadbirkorlarga bozorni zarur va sifatli tovar va xizmatlar bilan ta'minlash, ishchi-xizmatchilarning eng zarur ish joylariga harakatlanishini osonlashtirish imkonini bermoqda.

Uchinchi darajali kichik ko'rsatkich: makroiqtisodiy muhit. Barqaror makroiqtisodiy muhit biznes uchun va demak, mamlakatning umumiy raqobatbardoshligi uchun muhim ahamiyatga ega. Makroiqtisodiy barqarorlikning o'zi iqtisodiy samaradorlikni oshira olmasa-da, uning yo'qligi iqtisodiyotga zarar keltiradi.

To'rtinchi darajali kichik ko'rsatkich: sog'liqni saqlash va boshlang'ich ta'lim. Sog'lom ishchi kuchi mamlakatning raqobatbardoshligi va unumdorligi uchun muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, sog'liqni saqlash xizmatlarini ko'rsatishga investitsiyalar iqtisodiy va ma'naviy nuqtai nazardan juda muhimdir. Sog'liqni saqlashdan tashqari, bu ko'rsatkich aholining asosiy ta'limining miqdori va sifatini hisobga oladi, bu ham iqtisodiyotning asosiy omili hisoblanadi, chunki asosiy ta'lim ishchilarning o'rtacha samaradorligini oshiradi.

Beshinchi darajali kichik ko'rsatkich: oliy ta'lim va kasb-hunar ta'limi. Ushbu ko'rsatkich o'rta va oliy ma'lumot darajasini, shuningdek, ish joyida kasbiy va uzluksiz o'qitishning muhimligi sababli kadrlar tayyorlash darajasini o'lchaydi. Oliy ta'lim va kadrlar tayyorlash sifati yaratilgan qiymatni oddiy ishlab chiqarish darajasidan oshirishga intilayotgan iqtisodiyot uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Oltinchi darajadagi kichik ko'rsatkich: tovar bozorining samaradorligi. Samarali tovarlar bozoriga ega bo'lgan mamlakatlar talab va taklif sharoitida to'g'ri tovar va xizmatlar aralashmasini olish uchun yaxshi imkoniyatlarga ega. Bozor samaradorligini oshirishda ichki va xalqaro bozor raqobati muhim ahamiyatga ega.

Etтинchi darajadagi kichik ko'rsatkich: mehnat bozori samaradorligi. Mehnat bozorlari ishchilarga tez va tejamkor iqtisodiy faoliyatdan ikkinchisiga o'tishga va ish haqining sezilarli darajada o'zgarishiga imkon berish uchun moslashuvchan bo'lishi kerak. Samarali mehnat bozorlari ham ishchilarni samarali rag'batlantirishi

kerak. Birgalikda bu omillar xodimlarning ishlashi va mamlakatning jozibadorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Sakkizinchi darajadagi kichik ko'rsatkich: pul bozorining rivojlanishi. Iqtisodiyotlarga bank kreditlari, qimmatli qog'ozlar almashinuvi resurslari, venchur kapitali va boshqa moliyaviy mahsulotlarni investitsiya qilish imkoniyatini beradigan moliyaviy bozorlar kerak. Ushbu funktsiyalarni bajarish uchun bank sektori ishonchli va shaffof bo'lishi, moliya bozorlari investorlar va boshqa iqtisodiy subyektlarni himoya qilish uchun etarli darajada tartibga solinishi kerak.

To'qqizinchi darajali kichik ko'rsatkich: texnologik tayyorgarlik. Texnologik tayyorgarlik koeffitsiyenti iqtisodiyotning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, samaradorlikni oshirish va raqobatbardoshlikni oshirish uchun innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun mavjud texnologiyalardan, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning moslashuvchanligini o'lchaydi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun ilg'or mahsulot va texnologiyalarining mavjudligi asosiy shartdir.

O'ninchi darajadagi kichik ko'rsatkich: bozor hajmi. Bozor hajmi unumdorlikka ta'sir qiladi, chunki yirik bozorlar kompaniyalarga miqyosdagi iqtisodlardan foydalanishga imkon beradi. Bu erda nafaqat ichki bozorning, balki potentsial tashqi bozorning hajmi ham hisobga olinadi, chunki globallashtirish tufayli xalqaro bozorlar ko'pincha ichki bozorlar, ayniqsa kichik mamlakatlar uchun o'rnini bosuvchi bozorga aylanadi. Shuning uchun bozor hajmini aniqlashda eksportni ichki talab o'rnini bosuvchi mahsulot sifatida qarash mumkin.

O'n birinchi darajali kichik ko'rsatkich: biznes muhitining sifati. Biznesning murakkabligi bir-biri bilan chambarchas bog'langan ikkita elementga taalluqlidir: mamlakatning umumiy biznes tarmoqlarining sifati va alohida firmalarning faoliyati va strategiyalarining sifati. Bu omillar, ayniqsa, rivojlanishning ilg'or bosqichidagi, hosildorlikni oshirishning asosiy manbalari ko'p jihatdan tugallangan mamlakatlar uchun muhim ahamiyatga ega. Kompaniyalarni ma'lum bir sektordan klasterlarga guruhlash samaradorlikni oshiradi, innovatsiyalar uchun ko'proq imkoniyatlar yaratadi va kirishdagi to'siqlarni kamaytiradi.

O'n ikkinchi darajali kichik ko'rsatkich: innovatsiyalar. Oxirgi komponent iqtisodiyot uchun ayniqsa muhim bo'lgan innovatsiyalarga qaratilgan, chunki u qo'shimcha qiymat yaratishga yordam beradi.

Ushbu darajada firmalar raqobatdosh ustunlikni saqlab qolish uchun ilg'or mahsulotlar va texnologiyalarni loyihalashtirib, ishlab chiqishlari kerak. Bu taraqqiyot innovatsiyalar uchun qulay muhitni talab qiladi va davlat va xususiy sektor tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Xususan, bu ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga (AR&D), ayniqsa, xususiy sektorga yetarli sarmoya kiritilishi va yangi texnologiyalarni yaratish uchun zarur bo'lgan asosiy bilimlarni yarata oladigan yuqori sifatli ilmiy-tadqiqot institutlarining mavjudligini anglatadi; universitetlar va ishlab chiqarish o'rtasida ilmiy tadqiqot va texnologik ishlanmalar bo'yicha keng ko'lamli hamkorlik; intellektual mulkni himoya qilish.

Yuqorida keltirilgan sabablar barcha iqtisodiyotlar uchun ma'lum ahamiyatga ega. Biroq, ularning qurilishi ma'lum xususiyatlarga ega. Shunday qilib, GCI rivojlanish bosqichlarini hisobga oladi, rivojlanishning o'ziga xos bosqichini hisobga olgan holda iqtisodiyotga ko'proq mos keladigan omillarga nisbatan kattaroq nisbiy og'irliklarni belgilaydi.

Iqtisodiy rivojlanish bosqichlariga mashhur nazariy yondashuvlarga ko'ra, GCI shunday uchta bosqichni belgilaydi. Taxminlarga ko'ra, birinchi bosqichda, ya'ni rivojlanish bosqichida, iqtisodiyot boshqariladi va mamlakatlar birinchi navbatda malakasiz mehnat va tabiiy resurslar kabi omillar asosida raqobatlashadi. Iqtisodiyotning salomatligi birinchi navbatda yaxshi faoliyat yuritayotgan davlat va xususiy institutlarga (1-daraja), yaxshi rivojlangan infratuzilmaga (2-daraja), barqaror makroiqtisodiy muhitga (3-daraja) va kamida asosiy ma'lumotga ega bo'lgan sog'lom ishchi kuchiga (4-daraja) bog'liqdir.

Keyingi bosqichda mamlakat rivojlanishning samaradorlikka yo'naltirilgan bosqichiga o'tadi, yanada samarali ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlantira boshlaydi va mahsulot sifatini oshiradi. Ushbu bosqichda raqobatbardoshlik ko'p jihatdan oliy ta'lim va kadrlar tayyorlashning holati (5-daraja), mahsulot bozorlarining samaradorligi (6-daraja), mehnat bozorlarining ishlash sifati (7-daraja), moliya bozorlarining rivojlanishi (8-daraja), mavjud texnologiyalarning

afzalliklaridan foydalanish qobiliyati (9-daraja) va ichki daraja hajmi bilan belgilanadi. Nihoyat, mamlakat innovatsion bosqichga o'tganda, uning iqtisodiyoti faqat murakkab ishlab chiqarish jarayonlari (11-daraja) va innovatsiyalar (12-daraja) yordamida raqobatlasha oladi.

GCI hisoblash indikator darajasidan umumiy GCI balligacha bo'lgan ketma-ket yig'ishlarga asoslanadi. Global innovatsiyalar indeksi⁴⁰ ikkita kichik indeksga asoslanadi: innovatsiyalarni joriy qilish uchun resurslar hamda shart-sharoitlar mavjudligini tavsiflovchi innovatsion kirish va innovatsiyalarni joriy etishda erishilgan natijalarni ko'rsatadigan Innovatsion natijalar. Har ikkala innovatsiya indeksleri, ya'ni kirish va chiqish indeksleri quyi darajadagi ko'rsatkichlarni umumlashtirish asosida qurilgan. Global innovatsiyalar indeksining umumiy tuzilmasi (innovatsion samaradorlik koeffitsiyenti), xususan, quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- innovatsiyalar quyi indeksi: Institutlar, siyosiy muhit, tartibga solish muhiti, biznes muhiti, inson kapitali va tadqiqot logistikasi, bozor murakkabligi, kredit, investitsiyalar, savdo, raqobat, biznes bilimlari, bozor bilimlari to'siqni chuqurlashtirish;

- chiqaruvchi innovatsiyalar kichik indeksi: bilim va texnologiya natijalari, bilimlarni yaratish, bilim ta'siri, bilimlarni tarqatish, ijodiy natijalar, nomoddiy aktivlar, ijodiy mahsulotlar va xizmatlar, onlayn ijodkorlik. Innovatsiyalar samaradorligi koeffitsiyenti, bu innovatsion resurslarning har bir birligining daromadlilikini ko'rsatadigan boshlang'ich pastki indeksning kirish indeksiga nisbati.

Bundan tashqari, turli idoralar integrallashgan ko'rsatkichlarni hisoblab chiqadilar, ularning maqsadi potentsial investorlarga ma'lum bir iqtisodiyotning joriy yoki prognoz qilinayotgan holati va uning investitsion jozibadorligi haqida umumiy baho berishdir. Bir qator bunday indekslar yuqorida muhokama qilingan. Ushbu guruhning yana bir vakili – PMI (Purchasing Managers Index). Indeks har

⁴⁰ Dutta S., Lanvin B. & Wunsch-Vincent S. eds. The Global Innovation 2016. 2016. [http://english.gov.cn/r/Pub/GOV/ReceivedContent/Other/2016-0815/wipo_pub_gii_2016\(1\).pdf](http://english.gov.cn/r/Pub/GOV/ReceivedContent/Other/2016-0815/wipo_pub_gii_2016(1).pdf).

oyda xususiy tadbirkorlar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari asosida hisoblanadi.

PMI quyidagi hajmlarni tavsiflovchi quyi indekslardan iborat:

- yangi buyurtmalar, xususan eksport va import;
- bajarilmagan buyurtmalar;
- ishlab chiqarish, ta'minot va zaxiralar;
- narx va bandlik darajasi.

PMI indeksi sanoat ishlab chiqarish hajmini, ishlab chiqaruvchilar narxlarini darajasini, sanoat buyurtmasi hajmini, sanoat bandligi darajasini prognoz qilish va etakchi iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash uchun ishlatiladi.

Ta'kidlash joizki, investitsiya va innovatsion muhitni baholashning asosiy global indeksleri ko'rsatkichlarini o'zaro taqqoslash shuni ko'rsatadiki, birinchidan, ular asosan bir-biriga mos keladi. Ikkinchidan, ishlab chiquvchilarning barcha guruhlaridan tomonidan qo'llaniladigan uslubiy yondashuv ma'lum bir mamlakatda ekspertlar va iqtisodiy munosabatlarning bevosita ishtirokchilari so'rovidan faol foydalanishni nazarda tutadi, chunki statistik ma'lumotlarga ko'ra, iloji bo'lsa, ko'rsatilgan ko'rsatkichlarning aksariyati qiymatlarini olish juda qiyin.

Ya'ni, yetakchi reyting agentliklarining indeksleri – potentsial xalqaro investorlar muayyan iqtisodiyotning sarmoyaviy va innovatsion sharoitlari hamda salohiyatini baholashda birinchi navbatda e'tibor beradigan jarayondir. Shu bilan birga, ularning barchasida kamchiliklar mavjud: aksariyat ko'rsatkichlar baholovchi bo'lib, rasmiy global yoki milliy statistikada taqdim etilmaydi. Bundan tashqari, ularning barchasi korxonalarning investitsiya va innovatsion faoliyati natijalarini emas, balki iqtisodiyotning investitsion va innovatsion salohiyatini baholashga qaratilgan.

Ushbu holat iqtisodiyotning investitsion va innovatsion holatini tavsiflovchi ko'rsatkichlarga boshqa yondashuvlarni izlashni talab qiladi. Ushbu ko'rsatkichlarga qo'yiladigan talab ularning obyektiv statistik qiymatlarini yoki ularning tarkibiy qismlarining obyektiv statistik qiymatlarini bevosita kuzatish qobiliyatidir, ular asosida yuqoridagi ko'rsatkichlar hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, milliy iqtisodiyotning investitsion-innovatsion faolligining holati va

shunga mos ravishda uning jozibadorligi iqtisodiyotning umumiy holati ko'rsatkichlari, potentsial investitsiya samaradorligi ko'rsatkichlari va investitsiyalarni rivojlantirish samaradorligi ko'rsatkichlarining guruhlari bo'yicha tahlil qilinishi kerak.

Ushbu guruh ko'rsatkichlarini tahlil qilish iqtisodiyotning qudrati, uning jozibadorligi va unda sodir bo'layotgan jarayonlarning barqarorligining hozirgi xususiyatlarini umuman qayd etish imkonini beradi.

Investorlar va tahlilchilarga ma'lum bir iqtisodiyotning sarmoyaviy holati va imkoniyatlarini baholashga yordam beradigan bir qator iqtisodiy makro yalpi ichki darajada mahsulot, inflyatsiya darajasi va bandlik darajasi ko'rsatkichlari mavjud. Bu moliyaviy bozorlardagi potentsial investorlar va ekspertlar tomonidan diqqat bilan kuzatiladigan umumiy ko'rsatkichlar qatoriga kiradi.

Yalpi ichki mahsulot – bu mamlakatda bir yilda ishlab chiqarilgan barcha yakuniy mahsulot va xizmatlarning bozor narxi sifatida iste'mol narxlari indeksi (inflyatsiya)ni e'tiborga olish lozim. Inflyatsiyaning o'sishi foiz stavkalarining oshishiga va kredit berishning kamayishiga olib kelishi mumkin va aksincha, pul bozorlari inflyatsiya sur'atlarini ham diqqat bilan kuzatib boradi.

Ish kuchi, ish haqi va ishsizlik ma'lumotlari kabi bandlik ko'rsatkichlari qancha fuqarolar ishlayotganini va ular avvalgidan ko'ra ko'proq yoki kamroq pul ishlayotganligini baholaydi. Ish bilan bandlikning pasayishi ko'pincha iste'mol xarajatlarining pasayishi bilan birga keladi, bu esa YaIMning ijobiy o'sishiga va umumiy iqtisodiy o'sish istiqbollari zarar etkazishi mumkin. Ya'ni, investitsiya faoliyatining holatiga quyidagi asosiy omillar ta'sir qiladi, deb aytish mumkin:

- yalpi talab darajasi va tuzilishi bilan tavsiflangan tovar bozoridagi vaziyat;
- pul-kredit munosabatlarini tartibga solish samaradorligini, kreditlarning mavjudligini baholash bilan bog'liq moliyaviy omil; aniqrog'i, bu soliq yuki, soliq tarkibi va soliqqa tortiladigan baza;
- O'zmilliybank foiz stavkasi bilan birgalikda kreditlarning, keyin esa investitsiyalar real qiymatini baholash imkonini beruvchi inflyatsiya darajasi;

- investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari, davlat byudjetidan investitsiyalarni moliyalashtirish darajasi;

- asosiy vositalarning joriy holati, birinchidan, investitsiyalar rentabelligining ko'rsatkichlaridan biri sifatida, ikkinchidan, ularning daromadlilikini oshirish uchun investitsion muhit. Shuningdek, turli olimlar, tahliliy hamda reyting agentliklari institutlar sifati, siyosiy barqarorlik, tarkibiy o'zgarishlar dinamikasi va boshqalar kabi noiqtisodiy omillardan foydalanadilar. Bizningcha, bu omillarni hisobga olish qiyin; ularni miqdoriy jihatdan qanday o'lchash yoki tegishli statistik ma'lumotlarni qaerdan olish aniq emas.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar orasida ko'pincha investitsiyaga aylantirilishi mumkin bo'lgan aholi jamg'armalari darajasi tahlil qilinadi. Shuningdek, ilmiy-texnikaviy faoliyat xususiyatlari va boshqa innovatsion ko'rsatkichlar tahlili mavjud.

2.2. Iqtisodiyot subyektlarining investitsiya va innovatsion faolligini ekonometrik baholash

Investitsiyalar milliy ishlab chiqarish hajmiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, korxona aktivlarining to'planishiga yordam beradi va kelajakda iqtisodiy o'sish uchun asos yaratadi. Shuning uchun investitsiya faoliyatini tahlil qilganda investitsiyalarning tezroq o'sish sur'atlarini ta'minlagan holda asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlarini yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari bilan solishtirish muhim ahamiyatga ega. Investitsion o'sishning barqaror sur'atlari investitsiya faoliyati ishtirokchilari faolligi oshganidan dalolat beradi. Bu omillarni quyidagi ko'rsatkichlar guruhlariga birlashtirish mumkin.

Milliy iqtisodiyotning⁷⁸ rivojlanishini jadallashtirishda innovatsion va investitsiya mexanizmlarini shakllantirishning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi. Barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun innovatsion model yaratish, davlat va hududiy dasturlarni tashkil etish, investitsiya va innovatsion faoliyatni rag'batlantirishga qaratilgan samarali boshqaruv tizimlarini joriy etish, texnologik,

⁷⁵ 2025_МОНОГРАФИЯ_Зотикова О.Н.

⁷⁶ Федорова Наталья Михайловна Формирование инновационно-инвестиционной политики в интегрированных научно производственных комплексах: диссертация ... кандидата экономических наук: 08.00.05 Воронеж 2015 <http://dlib.rsl.ru/rsl01007000000/rsl01007893000/rsl01007893270/rsl01007893270.pdf>.

⁷⁷ Научно-практический комментарий к Федеральному закону от 23 августа 1996 г. №127-ФЗ "О науке и государственной научно технической политике" (постатейный) (под редакцией академика Российской академии образования В.Е.Усанова). – "ЮРКОМПАНИ", 2012 г.

⁷⁸ Научно-практический комментарий к Федеральному закону от 23 августа 1996 г. №127-ФЗ "О науке и государственной научно технической политике" (постатейный) (под редакцией академика Российской академии образования В.Е.Усанова). – "ЮРКОМПАНИ", №, 2012 г.

kadrlar, moliyaviy va boshqa resurslar bilan dastur va loyihalarni tizimli ta'minlash.

Bulardan tashqari, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, innovatsion va investitsion muhitni qo'llab-quvvatlovchi qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazani yaratish, fan va texnika yutuqlarini hamda raqobatbardosh mahsulotlarni joriy etish mexanizmini rivojlantirish hamda iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini kompleks rivojlantirish, shular qatoridan o'rin olgan.

Biroq, 2025 yilgi iqtisodiyotda investitsiya va innovatsion jarayonlarni rivojlantirishni cheklovchi asosiy omillar quyidagilardan iborat. Bular, investitsiya va innovatsion jarayonlarni boshqarish uchun samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning yetishmasligi, moliya resurslari bozorida jalb qilingan mablag'larning yuqori qiymati, korxonalarning o'z mablag'larining yetishmasligi va davlat tomonidan moliyaviy hamda investitsion yordamning cheklanganligi, innovatsion va ilmiy-texnik faoliyat sohasida samarali sheriklik va o'zaro hamkorlik mexanizmlarining yetarlicha rivojlanmaganligi hamda ilmiy-texnik ishlanmalarga yo'naltirilgan kadrlarning cheklangan ilmiy-texnik salohiyati, makroiqtisodiy sharoit va dinamikadagi individual muammolar⁷⁹, xususan inflyatsiya darajasining yuqoriligi.

O'zbekiston Respublikasida innovatsion ishlanmalarni rag'batlantirish va amalga oshirish ishbilarmonlik muhitini yaxshilashni talab qiladi. Buning asosiy vazifalari sifatida mamlakatda investitsiya va innovatsiyalarni tartibga soluvchi institutlar faoliyatining sifatini oshirish, tanlangan⁸⁰ ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirishda davlat iqtisodiy siyosatini investitsiyalar va innovatsiyalarga moslashtirish hamda uning barqarorligini ta'minlash, investitsiyalarni rivojlantirish⁸¹ siyosatini umumiy sanoat siyosati va sanoat landshaftini rejalashtirilgan qayta qurish tamoyillari bilan muvozanatlash, shuningdek, hukumat

⁷⁹ 2025 МОНОГРАФИЯ Зотикова О.Н.

⁸⁰ 2025 МОНОГРАФИЯ Зотикова О.Н.

⁸¹ Управление федеральным округом на основе программно-целевого подхода: методологическое, методическое и организационно-экономическое обеспечение. <http://av.disus.ru/avtoreverat/1611143-1-upravlenie-federalnim-okrugom-osnove-programmno-celevogo-podhoda-metodologicheskoe-metodicheskoe-organizacionno-ekonomicheskoe-obespecheni.php>.

qarorlari va davlat siyosatini iqtisodiy rivojlanish hamda innovatsion salohiyatni oshirishning eng muhim omillaridan biri sifatida yuqori malakali inson kapitalini shakllantirish va undan foydalanish sifatini oshirishga yo'naltirishdir⁸².

Davlat investitsion-innovatsion siyosatini ishlab chiqishda muhim tamoyillar va strategik yondashuvlar sifatida fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar hamda loyiha-konstruktorlik ishlarini uzluksiz rivojlantirish va mutanosib qo'llab-quvvatlash, intellektual mehnatni rag'batlantirish va rivojlantirish, samaradorlik, raqobatbardoshlik va innovatsiyalarni oshirishga yordam beruvchi ustuvor ilmiy-texnik yo'nalishlarni aniqlash, investitsiya resurslarini ustuvor yo'nalishlarga jamlash, ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatni iqtisodiy, tashkiliy, huquqiy va institutsional jihatdan ta'minlashni optimallashtirish, shuningdek, iqtisodiyotning⁸³ barcha darajalarida va barcha tarmoqlarida innovatsion faoliyatni moliyalashtirish hamda investitsiya va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish⁸⁴ ko'zda tutiladi.

Investitsion va innovatsion siyosat vositalari korxonalarining innovatsion faoliyatini samarali rag'batlantirish hamda rivojlanish vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun moliyaviy, moddiy, insoniy va tashkiliy resurslarni tizimli safarbar etishga qaratilgan. Davlat organlarining asosiy strategik vazifasi iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga moliyaviy va intellektual kapitalni maqsadli yo'naltirish hamda ushbu resurslarni jamlashdan iborat bo'lib, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan innovatsion faoliyatning strategik ustuvor yo'nalishlari qonunchilik darajasida aniq belgilangan⁸⁵. Bu yo'nalishlar mamlakatda innovatsion rivojlanish barqarorligini ta'minlash⁸⁶, iqtisodiy salohiyatni kuchaytirish va raqobatbardoshlik

⁸² Научно-практический комментарий к Федеральному закону от 23 августа 1996 г. №127-ФЗ “О науке и государственной научно технической политике” (постатейный) (под редакцией академика Российской академии образования В.Е. Усанова). – “ЮРКОМПАНИ”, 2012 г.

⁸³ Федорова Наталья Михайловна Формирование инновационно-инвестиционной политики в интегрированных научно производственных комплексах: диссертация ... кандидата экономических наук: 08.00.05 Воронеж

2015 <http://dlib.rsl.ru/rsl01007000000/rsl01007893000/rsl01007893270/rsl01007893270.pdf>.

⁸⁴ Научно-практический комментарий к Федеральному закону от 23 августа 1996 г. №127-ФЗ “О науке и государственной научно технической политике” (постатейный) (под редакцией академика Российской академии образования В.Е.Усанова). – “ЮРКОМПАНИ”, 2012 г.

⁸⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida” 06.07.2022-yildagi PF-165-son Farmoni, <https://lex.uz/ru/docs/-6102462>.

⁸⁶ Book_of_Proceedings_ esdBaku2021_Online.p df https://www.esd-conference.com/upload/book_of_proceedings/Book_of_Proceedings_esdBaku2021_Online.pdf.

darajasini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda innovatsion⁸⁷ va investitsion rivojlanishni rag'batlantirish uchun texnologik parklar⁸⁸, klasterlar, venchur kompaniyalar, startup akseleratorlari va inkubatorlar orqali startup tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, davlat mexanizmlari orqali innovatsion tashkilotlarning ulushini oshirish va samarali boshqarish⁸⁹ kabi choralari amalga oshiriladi.

Bulardan tashqari, hududlarda kichik biznesning innovatsion faoliyatini faollashtirish, yangi mahsulot va texnologiyalarni bozorga yetkazish orqali innovatsiyalarga talabni shakllantirish, mavjud kapital va moliyaviy resurslarni⁹⁰ radikal innovatsiyalarga yo'naltirish hamda ta'limning barcha bosqichlarida ijodkorlik, innovatsion tadbirkorlik va ratsionalizatorlik ko'nikmalarini rivojlantirish orqali malakali kadrlarni⁹¹ tayyorlash choralari ham shular qatoridan o'rin olgan.

O'zbekistonda innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash tizimi keng ko'lamli vositalar majmuasiga tayanadi va bu vositalar innovatsiyalarni rivojlantirish, tijoratlashtirish hamda amaliyotga joriy etishda muhim ahamiyatga ega. Ular bevosita moliyaviy qo'llab-quvvatlash (davlat byudjeti, grantlar, subsidiyalar), fiskal va soliq imtiyozlari (soliq yengilliklari, investitsiya chegirmalari, amortizatsiya koeffitsiyentlarini oshirish⁹²) hamda institutsional va boshqa rag'batlantiruvchi vositalarni (texnoparklar, inkubatorlar, transfer markazlari, intellektual mulkni himoya qilish va institutsional hamkorlik) o'z ichiga oladi, bu esa xususiy sektorni innovatsiyalarga jalb etish va innovatsion ekotizimning barcha bosqichlarini rivojlantirishga xizmat qiladi (2.3.1-rasm).

⁸⁷ диссертация 08.05 для ап.


⁸⁸ Научно-практический комментарий к Федеральному закону от 23 августа 1996 г. №127-ФЗ "О науке и государственной научно технической политике" (постатейный) (под редакцией академика Российской академии образования В.Е.Усанова). – "ЮРКОМПАНИ", 2012 г.

⁸⁹ Dissertaciya_Glazkov_a_VV.pdf https://mgusu.ru/science/Dissoveti/Zashita_dissert/glazkova-valeriya-viktorovna/Dissertaciya_Glazkova_VV.pdf.

⁹⁰ Improvement of innovative-investment potential of the problematic regions economy on the basis of activation of institutes of development in process of improvement of the mechanism of state-private partnership <https://ieeexplore.ieee.org/document/8085752>.

⁹¹ диссертация 08.05 для ап.

⁹² 2025_МОНОГРАФИЯ_Зотикова О.Н.



2.3.1-rasm⁹³. Kompaniyalarning innovatsion faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishning asosiy vositalari (Muallif tomonidan tuzilgan)

O'zbekistonda innovatsion jarayonlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash korxonalarda yangi texnologiyalarni yaratish⁹⁴, ilmiy-tadqiqot markazlarini moliyalashtirish, startap va kichik innovatsion biznesni rag'batlantirish, shuningdek, yetakchi olimlar va texnologik loyihalarni grant, imtiyozli kredit va davlat kafolatlari⁹⁵ orqali qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi. Bu vositalar byudjet mablag'lari, soliq va bojxona imtiyozlari hamda maxsus moliya-kredit institutlari orqali amalga oshirilib, iqtisodiyotda innovatsion faoliyatni kengaytirishga xizmat qiladi⁹⁶.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, davlat va mahalliy byudjetlardan to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish imkoniyatlari nisbatan cheklangan bo'lib, so'nggi yillarda innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda davlat byudjeti mablag'larining ulushi umumiy hajmda atigi 1,5 % atrofida saqlanib qolmoqda (2.3.1-jadval).

2021–2024-yillarda O'zbekistonda innovatsion faoliyat statistikasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, 2021-yilda innovatsiyalarni joriy etgan korxonalar ulushi 2020-yilga nisbatan 0,8 foizga pasaygan, biroq keyingi yillarda ijobiy dinamikaga ega bo'lib, 2024-yilda 16,3 foizga yetdi.

⁹³ Научно-практический комментарий к Федеральному закону от 23 августа 1996 г. №127-ФЗ “О науке и государственной научно технической политике” (постатейный) (под редакцией академика Российской академии образования В.Е Усанова). – “ЮРКОМПАНИ”, 2012 г.

⁹⁴ https://www.omgtu.ru/general_information/institutes/institute-of-design-and-technology/faculty-of-economics-and-ser-vice-technologies/thedepartment-of-economics-and-management/Izdaniya.pdf.

⁹⁵ 2025_МОНОГРАФИЯ_Зотикова О.Н.

⁹⁶ Научно-практический комментарий к Федеральному закону от 23 августа 1996 г. №127-ФЗ “О науке и государственной научно технической политике” (постатейный) (под редакцией академика Российской академии образования В.Е.Усанова). – “ЮРКОМПАНИ”, 2012 г.

2.3.1-jadval.

Sanoat korxonalarida innovatsiyalarni joriy etish

Yillar	Innovatsiyalarni joriy etgan korxonalar ulushi, %	Joriy qilingan innovatsiyalar soni, dona	Mahsulotlarning innovatsion turlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi	Sotilgan innovatsion mahsulotlarning sanoat hajmidagi ulushi, %
2020	13,1	4290	6440	5,6
2021	12,6	4118	6181	4,9
2022	14,3	4792	7192	5,1
2023	15,2	5324	7990	5,3
2024	16,3	6143	9212	5,8

***Manba:** Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar muallifning ilmiy izlanishlari va tadqiqotlari doirasida ishlab chiqilgan.*

Bu korxonalarning mahsulotlarida innovatsion xususiyatlar izchil ortayotganini bildiradi. Shu bilan birga, innovatsiyalar hajmi umumiy mahsulotlar ichida hali kichik bo'lib, ularning ko'pchiligi qazib olish va past texnologiyali tarmoqlarga to'g'ri keladi. Moliyaviy tahlil shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyat xarajatlarining 80 foizdan ortig'i korxonalar o'z mablag'lari hisobidan qoplanadi, tashqi moliyalashtirish hissasi esa sezilarli emas. Bu esa davlat tomonidan qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlarni kuchaytirish zaruratini ko'rsatadi.

O'zbekistonda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish va rag'batlantirish tizimi asosiy qismida davlat va xususiy sektorning hamkorligiga tayanadi. Aksariyat mablag'lar qazib olish korxonalari va past texnologiyali sanoat tarmoqlariga yo'naltiriladi, bu esa mavjud texnologik tuzilmani saqlab qolishga xizmat qilsa-da, sifat jihatidan tezkor o'zgarishlarga yordam bermaydi. Shu bilan birga, innovatsion jarayonlarning 80%dan ortig'i o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi, ba'zi yillarda esa qo'shimcha tashqi manbalar jalb qilinadi.

Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashning asosiy vositalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, intellektual mulk huquqlarini mustahkamlash, sifat va standartlar tizimini joriy qilish, ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, monopoliyalarning innovatsion jarayonlarga ta'sirini tartibga solish, axborot resurslaridan foydalanishni kengaytirish, davlat buyurtmalari orqali moliyaviy rag'batlantirish hamda innovatsion mahsulotlarni xalqaro bozorda ilgari surish.

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning samarali shakllaridan biri venchur kapital bo'lib, u mahsulot hayotiy tsiklining barcha bosqichlarida qo'llaniladi: biznes-inkubatorlar va startaplarni moliyalashtirish, prototip va tijorat rivojlanishi, yangi korxonalarni tashkil etish va raqobatbardoshlikni oshirish. Venchur investitsiyalar risklarni taqsimlash va kapital ulushi orqali istiqbolli loyihalarni qo'llab-quvvatlaydi.

Soliq siyosati innovatsion faoliyatni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu, jumladan, soliq imtiyozlari, investitsiya solig'i krediti, maxsus amortizatsiya siyosati va soliqqa tortilmaydigan zaxira fondlarini yaratish orqali amalga oshiriladi. Bunday vositalar korxonalarning o'z mablag'larini innovatsiyalarga qayta yo'naltirishini rag'batlantiradi va byudjetga ortiqcha yuklamasdan samaradorlikni oshiradi.

O'zbekistonda ilg'or xalqaro tajribalarga tayangan holda, soliq imtiyozlari innovatsion xarajatlar bilan bevosita bog'lanadi, bu esa xususiy sektor mustaqilligini ta'minlaydi, sun'iy qo'llab-quvvatlanadigan bozorlarning shakllanishini cheklaydi va byurokratik to'siqlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, davlatning tartibga solish mexanizmlari umumiy iqtisodiy barqarorlikni saqlab qolgan holda, investitsiya va innovatsion jarayonlarni tizimli, adolatli va samarali rag'batlantirishga yo'naltirilgan.

O'zbekistonda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish va rag'batlantirish tizimi davlat va xususiy sektor o'rtasidagi muvozanatli hamkorlikka tayanadi. Aksariyat investitsiyalar qazib olish korxonalari va past texnologiyali sanoat tarmoqlariga yo'naltiriladi, bu esa mavjud texnologik tuzilmani saqlashga yordam bersa-da, sifat jihatidan tezkor va sifatli o'zgarishlarni rag'batlantirmaydi. Shu bilan birga, innovatsion jarayonlarning aksariyati, ya'ni 80%dan ortig'i, korxonalar o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi, ba'zi yillarda esa tashqi manbalarni jalb qilish orqali qo'shimcha resurslar topishga urinishlar mavjud. Bu esa, o'z navbatida, innovatsion faoliyatni kengaytirish va ilg'or texnologiyalarni joriy etish uchun moliyaviy barqaror mexanizmlarning zarurligini ko'rsatadi.

Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashning asosiy mexanizmlari institutsional, huquqiy, tashkiliy va siyosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi. Ularga quyidagilar kiradi: innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, intellektual mulk huquqlarini

mustahkamlash, sifat va sertifikatlashtirish tizimini joriy etish, ta'lim va kadrlarni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, monopoliyalarning innovatsion jarayonlarga ta'sirini tartibga solish, axborot resurslaridan foydalanishni kengaytirish, davlat buyurtmalari orqali moliyaviy rag'batlantirish va innovatsion mahsulotlarni xalqaro bozorda ilgari surish.

Moliyalashtirishning eng istiqbolli vositalaridan biri ventchur kapital bo'lib, u mahsulot hayotiy tsiklining barcha bosqichlarida qo'llaniladi. Ventchur moliyalashtirish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: innovatsion g'oyalarni tahlil qilish va biznes-inkubatorlarda ishga tushirish, prototip ishlab chiqarish va tijoratlashtirish, yangi korxonalarni tashkil etish va ularni bozorga chiqishga tayyorlash. Ventchur investitsiyalar risklarni taqsimlash va kapital ulushi orqali istiqbolli loyihalarni qo'llab-quvvatlaydi, shuningdek, yangi boshlanuvchilar va jadal rivojlanayotgan korxonalar faoliyatini rag'batlantiradi.

Soliq siyosati innovatsion faoliyatni rag'batlantirishning muhim mexanizmlaridan biridir. U soliq imtiyozlari, investitsiya solig'i krediti, tezlashtirilgan amortizatsiya va soliqqa tortilmaydigan zaxira fondlari yaratish orqali amalga oshiriladi. Ushbu mexanizmlar korxonalarga innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun zarur mablag'larni jamlash va ularni qayta investitsiya qilish imkonini beradi, byudjetga ortiqcha yuklama solmasdan iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Soliq imtiyozlarining samarali qo'llanilishi xususiy sektorning mustaqilligini ta'minlaydi, sun'iy qo'llab-quvvatlanadigan bozorlarning shakllanishini cheklaydi va byurokratik to'siqlarni kamaytiradi.

Shuningdek, O'zbekiston amaliyotida investitsiya va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun bojxona va tashqi iqtisodiy mexanizmlar ham keng qo'llaniladi. Masalan, ishlab chiqarilmaydigan yoki loyiha talablariga javob bermaydigan xomashyo, uskunalar va butlovchi buyumlar importi uchun boj va soliq imtiyozlari belgilangan. Bu esa innovatsion loyihalarning samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi va mamlakatda ilg'or texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantiradi.

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasida innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va moliyalashtirish tizimi kompleks yondashuvni talab qiladi.

Davlatning tartibga soluvchi va qo‘llab-quvvatlovchi roli, soliq va moliyaviy vositalar, ventur kapital va institutsional infratuzilma birlashib, korxonalarni innovatsion rivojlanishga jalb qiladi. Bu esa o‘z navbatida milliy iqtisodiyotning barqarorligi, raqobatbardoshligi va uzoq muddatli rivojlanishiga xizmat qiladi.

2-bob bo‘yicha xulosalar

1. Investitsiya va innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish iqtisodiyotda ushbu faoliyatni amalga oshirish shart-sharoitlarini dastlabki baholashni talab etadi. Mamlakatda investitsiya muhiti darajasini aniqlash maqsadida investitsiya va innovatsion faoliyatning keng qamrovli tahlili o‘tkaziladi.

Davlat siyosatini shakllantirish va takomillashtirish jarayonida asosiy vazifa – milliy iqtisodiyotning investitsion-innovatsion holatini hamda undagi tadbirkorlik subyektlarining investitsiya va innovatsion faoliyati ko‘rsatkichlarini aniqlashdir⁹⁷.

Mavjud baholash ko‘rsatkichlari ko‘pincha subyektiv xarakterga ega bo‘lib, ular korxonalarning faoliyat natijalaridan ko‘ra, iqtisodiyotning investitsion va innovatsion salohiyatini baholashga qaratilgan.

2. Mazkur muammoni hal etish uchun O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining sarmoyaviy va innovatsion holatini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar to‘plami ishlab chiqilgan.

Ushbu ko‘rsatkichlar uch guruhga bo‘lingan: iqtisodiyotning umumiy holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar, potentsial investitsiya samaradorligi ko‘rsatkichlari hamda investitsiyalarni rivojlantirish samaradorligi ko‘rsatkichlari. Ularning afzalligi shundaki, ko‘rsatkichlarning obektiv statistik qiymatlari yoki ularning tarkibiy qismlari bevosita kuzatilishi mumkin bo‘lib, ushbu indekslar ular asosida hisoblanadi.

3. O‘zbekiston iqtisodiyotidagi korxonalarning holati past rentabellik va mahsulotlarning past qo‘shilgan qiymati bilan tavsiflanadi, bu esa past samaradorlik darajasini ko‘rsatadi. Ushbu holatning asosiy sababi – asosiy fondlarning sezilarli darajada eskirganligi hisoblanadi. Korxonalarning innovatsion faoliyati va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi borasida ham yetarlicha ijobiy natijalarga erishilmagan.

⁹⁷ 2025_МОНОГРАФИЯ_Зотикова О.Н.

4. O'zbekiston sanoati tizim tuzuvchi faoliyat turi bo'lib, ishlab chiqarish sanoati va mashinasozlik sanoatning tizim shakllantiruvchi turlari hisoblanadi. Iqtisodiy faollik asosan yirik va o'rta korxonalar tomonidan amalga oshiriladi, ular orasida ko'pchiligi yirik soliq to'lovchilar sifatida ajralib turadi. Shu bois, ushbu korxonalarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish milliy iqtisodiyot uchun katta ahamiyatga ega.

Tizimli korxonalarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari iqtisodiyotdagi o'rtacha ko'rsatkichlardan farq qilmaydi, ba'zida undan pastroq bo'lishi mumkin. Ayniqsa, asosiy vositalarning eskirish darajasi muhim muammo sifatida saqlanib qolmoqda. Shu sababli, iqtisodiyotni innovatsion va investi-tsiyaviy rivojlanish yo'nalishlariga qayta yo'naltirish nafaqat zarur, balki dolzarb vazifa hisoblanadi⁹⁸.

⁹⁸ Improvement of innovative-investment potential of the problematic regions economy on the basis of activation of institutes of development in process of improvement of the mechanism of state-private partnership <https://ieeexplore.ieee.org/document/8085752>.

3-BOB. MILLIY IQTISODIYOTNI INVESTITSİYALAR VA INNOVATSİYALARNING RIVOJLANISHINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILASHTIRISH YO‘LLARI

3.1. Iqtisodiyot subyektlarining investitsiya faolligini rag‘batlantirish mexanizmi

O‘zbekiston Respublikasida investitsiya va innovatsion faoliyatning rivojlanishida davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan ta’sir vositalari turli shakllarda namoyon bo‘lmoqda. Oldingi tahlillarga asoslanib, ushbu vositalarni quyidagi ikki asosiy guruhga ajratish maqsadga muvofiq:

Davlatning bevosita ta’sir ko‘rsatish vositalari – ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyatini moliyalashtirish, investitsion va innovatsion loyihalarni byudjet mablag‘lari hisobidan qo‘llab-quvvatlash, resurs va mahsulot turlarini taqsimlash kabi choralarni o‘z ichiga oladi.

Davlatning bilvosita ta’sir ko‘rsatish vositalari – soliq imtiyozlari, preferensiyalar, grantlar, imtiyozli kreditlar va boshqa fiskal mexanizmlar (masalan, soliq stavkalarini maqbullashtirish) orqali amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, amaliyotda to‘g‘ridan-to‘g‘ri subsidiyalar ajratilishi yoki imtiyozli soliqqa tortish mexanizmlarining joriy etilishi har doim ham ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini oshirishga yoki innovatsion mahsulotlar sifatini yaxshilashga olib kelmaydi. Bunday moliyaviy rag‘batlantirish vositalari faqatgina institutsional va tashkiliy islohotlar bilan uyg‘un holda qo‘llanilgandagina kutilgan ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin.

Innovatsion faoliyatni samarali amalga oshirish jarayonida davlat organlari va mansabdor shaxslarning qaror qabul qilishdagi shaffofligi, huquqiy asoslanganligi hamda hisobdorlik tamoyillariga rioya qilinmasligi holatlari ham muhim muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Innovatsion faoliyatni aniq belgilash, uni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish va ustuvor yo‘nalishlarni tanlashda tizimli yondashuv yetarli darajada shakllanmagan.

O‘zbekiston Respublikasida zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiya va innovatsiya faoliyatini samarali tashkil etish hamda uning davlat tomonidan tartibga

solinishini ta'minlash mamlakat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlar institutsional, huquqiy, moliyaviy, infratuzilmaviy va raqamli mexanizmlar orqali izchil ravishda rivojlanmoqda. Shu bilan birga, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tizimli muammolar va yangi shart-sharoitlar talablariga javob beradigan ilg'or yondashuvlarni joriy etish zaruratini ham yuzaga keltirmoqda.

Institutsional tartibga solish mexanizmlari. O'zbekistonda investitsiya va innovatsiya faoliyatini muvofiqlashtiruvchi institutsional mexanizmlar ko'p darajali va funksional jihatdan diversifikatsiyalashgan shaklda namoyon bo'lmoqda. Jumladan, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Innovatsion rivojlanish agentligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Taraqqiyot strategiyasi markazi kabi davlat tuzilmalari mazkur faoliyatning turli jihatlarini muvofiqlashtirish, strategik yo'nalishlarni belgilash, loyihalarni ekspertiza va monitoring qilish vazifalarini bajarmoqda. Bu jarayonlarda "Yagona investitsiya portali" orqali investitsiya loyihalarini ro'yxatdan o'tkazish, baholash va kuzatuvda ushlab qolish kabi amaliy mexanizmlar faol qo'llanilmoqda.

Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish. Investitsiya va innovatsiya sohasidagi huquqiy asoslar davlat siyosatining izchil rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi va "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi qonunlari ushbu sohadagi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar bo'lib, ular amaliyotda qo'llanilayotgan strategiyalar va chora-tadbirlar bilan uyg'unlashtirilgan. Ayniqsa, "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" va "Innovatsion rivojlanish strategiyasi" kabi davlat dasturlari orqali sohaga strategik yondashuv shakllantirilgan. Loyihalarni "loyiha pasporti" asosida rasmiylashtirish, ularning huquqiy jihatdan himoyalanganligini ta'minlaydi.

Moliyaviy va soliq rag'batlantirish vositalari. Investitsiya va innovatsiya faoliyatining moliyaviy qo'llab-quvvatlanishi milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Davlat tomonidan ajratilayotgan grantlar va subsidiyalar, jumladan, 2025-yil uchun ilmiy-tadqiqot ishlariga mo'ljallangan 1,2 trillion so'm budget mablag'i, sohaga investitsion jozibadorlik bag'ishlamoqda. Shu bilan birga, IT-sektor, texnopark rezidentlari va texnologik innovatsiyalarga doir loyihalar uchun belgilangan soliq imtiyozlari esa, amaldagi Soliq kodeksida mustahkamlangan.

Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish. Innovatsion infratuzilma – iqtisodiyotning yangilanish va texnologik taraqqiyotining asosiy tayanchi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda 17 ta texnopark, 22 ta innovatsion markaz, 12 ta biznes-inkubator va 6 ta akselerator faoliyat yuritmoqda. Ularning faoliyati davlat grantlari, subsidiyalar, imtiyozli yer uchastkalari va logistik infratuzilma orqali qo'llab-quvvatlanmoqda. Misol tariqasida, "Yashnobod" innovatsiya texnoparki va IT-Park Uzbekistan kabi infratuzilma obyektlarida KPI tizimlari orqali samaradorlik baholanmoqda.

Kadrlar salohiyati va bilimlar transferi. Innovatsiya jarayonlarining samaradorligi malakali kadrlar bilan bevosita bog'liq. Mamlakatda oliy ta'lim muassasalari va xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda innovatsion yo'nalishlar bo'yicha ta'lim dasturlari yo'lga qo'yilmoqda. "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali yosh olimlarning xorijda ta'lim olishi uchun imkoniyatlar yaratilmoqda. Shuningdek, InnoStaff dasturi doirasida texnoparklar va biznes-inkubatorlarda faoliyat yurituvchi mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Raqamlashtirish va nazorat mexanizmlari. Investitsiya va innovatsiya jarayonlarini avtomatlashtirish, oshkoralikni ta'minlash va korrupsiya omillarini cheklash maqsadida raqamli platformalar yaratilmoqda.

"E-Invest" – investitsiya loyihalarini boshqarishga mo'ljallangan yagona elektron tizim bo'lib, "InnoGrant.uz" platformasi orqali innovatsion loyihalarning grant jarayonlari avtomatlashtirilgan va ekspert baholashi orqali amalga oshiriladi. "Openbudget.uz" orqali esa, davlat mablag'larining sarflanishi ochiq monitoring qilinadi.

Muammolar va takomillashtirish zarurati. Har qancha islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, investitsiya va innovatsiya faoliyatida bir qator tizimli

muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, byurokratik to'siqlar, hujjatlarning ortiqcha yuklama tug'dirishi, huquqiy talqinlardagina aniqlik yetishmasligi, infratuzilmaning ayrim segmentlarda yetarli darajada rivojlanmaganligi va yuqori malakali mutaxassislar tanqisligi kabi masalalar hal etilishini talab qiladi. Shuningdek, venchur sarmoyalar bozori yetarlicha rivojlanmagani startaplar faoliyatiga to'sqinlik qilmoqda.

Davlat-xususiy sheriklik va investitsiya muhitini yaxshilash. Investitsiya-innovatsiya jarayonlarida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini kengaytirish orqali xususiy sektor faolligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirda DXShning huquqiy asoslari shakllangan bo'lsa-da, uning amaliyotda keng qo'llanilishi, investitsiyaviy kafolatlar va samarali loyiha boshqaruvi mexanizmlarini takomillashtirish talab etilmoqda. Shuningdek, xususiy investitsion fondlar va venchur kapitalini jalb qilish maqsadida qulay huquqiy va iqtisodiy muhit yaratish dolzarb vazifalardan sanaladi.

Yuqorida olib borilgan tahliliy izlanishlar asosida O'zbekistonda investitsiya-innovatsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish sohasida izchil islohotlar amalga oshirilayotganligini qayd etish mumkin. Mamlakatda institutsional, huquqiy, moliyaviy va raqamlashtirish mexanizmlarining shakllanishi va rivojlanishi investitsiya muhitini yaxshilash, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, davlat organlari o'rtasidagi muvofiqlashtirilgan faoliyat, "Yagona investitsiya portal", "E-Invest", "InnoGrant.uz" kabi raqamli platformalarning joriy etilishi, innovatsion infratuzilmaning (texnoparklar, biznes-inkubatorlar, akseleratorlar va markazlar) kengayishi va moliyaviy rag'batlar tizimining takomillashtirilishi investitsiya-innovatsiya jarayonlarini tizimli boshqarish imkonini yaratayotgani aniq namoyon bo'lmoqda.

Shu bilan birga, soha rivoji uchun bir qator hal etilishi lozim bo'lgan muammolar ham mavjud. Jumladan, byurokratik to'siqlar va ortiqcha hujjatbozlik, venchur kapital bozorining yetarli darajada shakllanmaganligi, infratuzilmani modernizatsiya qilish zarurati, kadrlar tayyorlashda amaliy ko'nikmalar yetishmasligi, mahalliy hokimiyatlarning ishtirokini optimallashtirish kabi masalalar dolzarb hisoblanadi.

Bundan tashqari, ta'lim va ilmiy tadqiqot sohalarini innovatsion ehtiyojlar bilan integratsiyalash, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish va davlat-xususiy sheriklik asosida yangi moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish ustuvor vazifalar sifatida namoyon bo'lmoqda. Milliy innovatsiya tizimini baholovchi maxsus platformalarni yaratish va innovatsion faoliyat samaradorligini monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirish ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, hozirgi kunda O'zbekistonda investitsiya-innovatsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning zamonaviy mexanizmlari shakllanmoqda va ularni yanada rivojlantirish uchun kompleks yondashuv, inson kapitaliga investitsiyalar hamda innovatsion ekotizimni barqaror qurishga yo'naltirilgan yangi strategiyalar ishlab chiqish dolzarblik kasb etadi. Bu jarayon mamlakatning iqtisodiy o'sishi, texnologik taraqqiyoti va global raqobatdoshlikdagi pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'tkazilgan tahlillar O'zbekiston iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy omillarni aniqlash imkonini berdi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Mavjud ishlab chiqarish infratuzilmasining jismoniy va ma'naviy jihatdan eskirganligi, texnik qayta jihozlash darajasining pastligi;
2. Investitsion faoliyatda tizimli yondashuvning yetishmasligi, ya'ni ko'plab loyihalarning alohida tashabbus sifatida amalga oshirilishi;
3. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining muntazam ravishda yangilanmasligi va texnik xizmat ko'rsatish ishlarining izchil olib borilmasligi.

Masalan, 2.2.3-jadvalda asosiy fondlarning holati va ularning eskirish darajasi bo'yicha statistik ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, ularning dinamikasi ishlab chiqarish resurslarining yangilanishiga oid muammolarni aniq ko'rsatadi. Korxonalar kesimidagi tahlillar esa shuni ko'rsatadiki, fondlar holatidagi ijobiy o'zgarishlar asosan ayrim individual investitsion loyihalarga bog'liq bo'lib, ushbu loyihalar yakunlangach, ishlab chiqarish bazasi yana tanazzulga yuz tutmoqda. Bu holat ishlab chiqarish infratuzilmasining barqaror va uzluksiz moderniza-tsiyasiga ehtiyoj yuqoriligini tasdiqlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, innovatsion taraqqiyotni ta'minlashda faqat moliyaviy rag'batlantirish choralari qo'llash yetarli emasligini ta'kidlash lozim. Bu borada kompleks yondashuv zarur bo'lib, u institutsional, tashkiliy, infratuzil-maviy va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ham o'z ichiga olishi lozim.

Shu bois, innovatsion rivojlanishni ta'minlashda faqat moliyaviy ko'mak choralariga emas, balki institutsional, tashkiliy va infratuzilmaviy omillarni ham inobatga olgan holda kompleks yondashuvni shakllantirish zarurdir.

Innovatsion faoliyat va ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilishda zarur bo'lgan investitsiya resurslarining yetarli emasligi O'zbekiston iqtisodiyoti uchun jiddiy muammolardan biridir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud moliyalashtirish manbalari investitsiya jarayonlarini to'liq qo'llab-quvvatlash imkonini bermaydi.

Xususan, 2-bobda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, umumiy investitsiyalar tarkibida byudjet mablag'larining ulushi kichik bo'lib, ular ko'pincha to'liq ajratilmaydi yoki sekvestrga uchraydi. Bunday holat, ayniqsa, davlat tomonidan moliyalashtirilayotgan innovatsion va modernizatsiya loyihalari uchun salbiy oqibatlarga olib kelmoqda.

Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalar ulushi ham iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirishda past darajada qolmoqda. Amaldagi iqtisodiy sharoitlarda korxonalar innovatsion faoliyatni moliyalashtirish uchun, avvalo, ichki mablag'lariga tayanishga majbur bo'lmoqda. Ammo mavjud resurs bazasining cheklanganligi, texnik va moliyaviy imkoniyatlarning yetishmasligi sababli, bu jarayonlar ko'p hollarda sust rivojlanmoqda.

Korxonalarning o'z mablag'larini innovatsiyalarga yo'naltirishdan manfaatdor emasligi ham alohida e'tiborga loyiq muammo sanaladi. Korxona egalari tomonidan foydaning katta qismi dividendlar yoki unga o'xshash shakllarda kapitaldan chiqarib olinadi, bu esa, qayta investitsiya hajmining keskin kamayishiga olib kelmoqda. Korxonalarning o'z infratuzilmasini yangilashda moliyaviy jihatdan mustaqil harakat qilish imkoniyati past, biroq ular davlat yoki tashqi manbalar yordamiga tayanolmayotgani bois, mavjud muammolarni hal etishda o'z kuchlariga tayanishga majbur qolmoqdalar.

Ushbu salbiy tendensiyalarning asosiy sababi sifatida mavjud fiskal siyosat, xususan, yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i tizimini ko'rsatish mumkin.

Amaldagi soliq siyosati korxonalarni foydani yashirish, xarajatlarni oshirib ko'rsatish yoki yo'qotishlarni kelgusi davrlarga o'tkazish orqali soliq yukini kamaytirishga undaydi. Bu esa, rasmiy investitsiya hajmlarining kamayishiga, iqtisodiyotning "soya sektori"da faoliyat yurituvchi sub'yektlar ulushining ortishiga olib keladi.

Bundan tashqari, foydaga bir xilda soliq solish mexanizmi investitsiyalarga yo'naltirilgan foydaning potentsial qiymatini pasaytiradi va shu sababli korxonalarni innovatsion loyihalarga sarmoya kiritishga undamaydi. Foydaning iste'molga emas, balki reinvestitsiyaga yo'naltirilishini rag'batlantiruvchi mexanizmlar yetarli emasligi resurslar yangilanishiga va innovatsion o'sishga to'sqinlik qilmoqda.

Innovatsion-investitsiyaviy faoliyatni rag'batlantirishda davlat fiskal siyosatining tutgan o'rni beqiyos bo'lib, u iqtisodiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatishning eng muhim moliyaviy-institutsional vositalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatda iqtisodiy o'sishni ta'minlash, innovatsion faoliyatni rivojlantirish va ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilishda soliq tizimining samaradorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi sharoitida davlat fiskal siyosatining investitsiyaviy faollikni rag'batlantirishdagi rolini chuqur tahlil qilish, mavjud mexanizmlarni qayta ko'rib chiqish va ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan fiskal rag'batlantirish choralarini takomillashtirish bo'yicha quyidagi uchta asosiy strategik yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Imtiyozli umumiy soliq rejimlari asosida investitsiya jarayonlarini faollashtirish. Mazkur yo'nalish soliq yukini kamaytirish orqali korxonalarning investitsiyaviy salohiyatini oshirishga qaratilgan. Bu boradagi chora-tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Soliq stavkalarining investitsiya hajmi, sohasi yoki hududiy joylashuviga qarab differensiallashtirilgan shakllarini joriy etish;
- Yangi tashkil etilgan korxonalar uchun "soliq ta'tili" mexanizmlarini tatbiq qilish;
- Investitsiyalarning paydo bo'lishiga turtki beruvchi soddalashtirilgan soliqqa tortish rejimlarini ishlab chiqish.

Mazkur yondashuv nafaqat mavjud korxonalarning sarmoya jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi, balki yangi biznes tashabbuslarning yuzaga chiqishiga ham ko'maklashadi.

2. Yuqori rentabelli va innovatsiyalarga yo'naltirilgan investitsiyalarni rag'batlantiruvchi maxsus fiskal imtiyozlar. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan investitsiyalar alohida rag'batlantirishni talab etadi.

Shuning uchun, fiskal siyosatda quyidagi maxsus imtiyozlarni nazarda tutgan mexanizmlarni joriy etish maqsadga muvofiq:

- Innovatsion va texnologik yangilanishga yo'naltirilgan investitsiyalar bo'yicha foyda solig'ini kamaytirish yoki vaqtincha bekor qilish;
- Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga yo'naltirilgan xarajatlarni soliq bazasidan chiqarish imkoniyatlarini yaratish;
- Innovatsion faoliyatni moliyalashtiruvchi xususiy investorlar uchun soliq preferensiyalari joriy etish.

Bunday yondashuv korxonalarning texnologik yangilanishga bo'lgan qiziqi-shini oshiradi, innovatsion loyihalarni xususiy sektorda faolroq amalga oshirishga zamin yaratadi.

3. Korxonalarning ishlab chiqarish aktivlarini modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan uzoq muddatli fiskal dasturlar. Yana bir muhim yo'nalish – bu korxonalarni asosiy ishlab chiqarish fondlarini muntazam yangilab borishga undaydigan fiskal mexanizmlarni shakllantirishdir. Ushbu yo'nalishda quyidagi chora-tadbirlar ustuvor ahamiyat kasb etadi:

- Korxonalarning ishlab chiqarish infratuzilmasini yangilashga yo'naltirilgan xarajatlarini soliqdan ozod qilish yoki qisqa muddatda amortizatsiya qilish imkoniyatlarini yaratish;
- Modernizatsiya bilan bog'liq investitsiyalar uchun maxsus investitsiyaviy fondlar tashkil etish va ularni soliq yengilliklari orqali qo'llab-quvvatlash;
- Aktivlarni yangilashga qaratilgan reinvestitsiya zaxiralarini shakllantirish imkoniyatlarini qonuniy jihatdan kafolatlash.

Ushbu uzoq muddatli dasturlar korxonalarni passiv iste'mol faoliyatidan faol investitsiyaviy siyosat yuritishga yo'naltiradi hamda iqtisodiyotda ishlab chiqarish samaradorligi, texnologik yangilanish va eksport salohiyatining oshishiga xizmat qiladi.

Fiskal siyosat doirasida yuqorida keltirilgan strategik yo'nalishlarni amaliyotga tatbiq etish O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladi. Soliq imtiyozlari, soddalashtirilgan rejimlar va uzoq muddatli investitsiyaviy rag'batlar orqali davlat korxonalarning sarmoyaviy faolligini oshirish, resurslar samaradorligini ta'minlash va innovatsion muhitni shakllantirishda bevosita rol o'ynaydi. Bunda har bir fiskal mexanizmning aniqligi, shaffofligi va iqtisodiy natijadorligi chuqur ilmiy tahlillar asosida baholanishi zarur.

Zamonaviy iqtisodiyotni tartibga solish jarayonida fiskal siyosatning muhim tarkibiy qismi sifatida soliq imtiyozlari masalasi global miqyosda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Investitsion faollikni rag'batlantirish, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiyalash kabi strategik yo'nalishlarda soliq imtiyozlari keng qo'llaniladi. Xususan, soliq imtiyozlarining samaradorligi, iqtisodiy o'sishga ta'siri, soliq yuki va investitsiya muhitiga bog'liqligi sohasida ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan chuqur ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Xalqaro miqyosdagi yetakchi olimlar – A.Auerbach, J.R.Hines Jr., A.Klemm, I.M.Zolt, D.Holland, A.J.Vann, V.Tanzi, G.Zee, D.W. te Velde, N.A.Chalk⁹⁹ va boshqalar tomonidan soliq imtiyozlarining nazariy asoslari va ularning investitsiyaviy jarayonlarga ta'siri keng ko'lamda o'rganilgan. Ular o'z tadqiqot-larida Jahon banki¹⁰⁰ va UNCTAD (United Nations Conference on Trade and

⁹⁹ Auerbach A.J., Hines Jr. J.R. Investment tax incentives and frequent tax reforms // NBER Working Paper. – №2492. – 2008.; Easson A., Zolt E.M. Tax incentives. – Washington, D.C.: World Bank Institute, 2002.; Klemm A. Causes, Benefits, and Risks of Business Tax Incentives // IMF Working Paper. – №WP/09/21 – Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2009.; Holland D., Vann R.J. Income Tax Incentives for Investment // Tax Law and Drafting. – Washington, D.C.: IMF, 1998. – Vol. 2. – Pp. 986–1020.; Tanzi V., Zee H. Tax Policy for Emerging Markets: Developing Countries // IMF Working Paper. – №00/35. – Washington, D.C.: IMF, 2000.; te Velde D.W. Tax, investment and industrial policy // Taxation and Developing Countries Training Notes. – EPS Peaks, 2013, September.; Chalk N.A. Tax Incentives in the Philippines: A Regional Perspective // IMF Working Papers. – WP/01/181. – Washington, D.C.: IMF, 2001.

¹⁰⁰ Enterprise Surveys // World Bank Group, 2018. – Электронный ресурс. – Режим доступа: <http://www.enterprisesurveys.org> (дата обращения: 18.11.2019).

Development)¹⁰¹ tomonidan ishlab chiqilgan soliq imtiyozlari tasniflariga tayanadilar.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) hududida ham mazkur mavzu qator olimlar – V.P.Vishnevskiy, Yu.B.Ivanov, D.M.Serebryanskiy, A.M.Sokolovskaya, L.L.Tarangul¹⁰² va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Ular asosan postsovet iqtisodiyotlarida soliq imtiyozlarining qo'llanilishi, ularning samaradorligi va fiskal barqarorlikka ta'siri jihatidan qimmatli ilmiy xulosalar berganlar.

UNCTAD tomonidan taklif etilgan umumiy tasnifga ko'ra, soliq imtiyozlari quyidagi asosiy shakllarda ifodalanadi:

1. Yuridik shaxslar daromad solig'i stavkalarining pasaytirilishi – kompaniyalarning yalpi foydasidan olinadigan soliqlarni kamaytirish orqali ularning investitsion salohiyatini oshirish maqsadida qo'llaniladi.

2. Zararlarni kelgusi hisobot davrlariga o'tkazish imkoniyati, tezlashtirilgan amortizatsiya va soliq ta'tilari – bu vositalar foydani hisoblash bazasini qisqartirish orqali investitsiyaviy yukni kamaytiradi.

3. Investitsiyaviy soliq kreditlari – oddiy amortizatsiya chegirmalariga qo'shimcha tarzda, investitsiya xarajatlarining ma'lum foizini tashkil etuvchi soliqdan chiqarish mexanizmi.

4. Qayta investitsiyalar bo'yicha soliq imtiyozlari – korxonalarni foydani qayta ishlab chiqarishga yo'naltirishga undovchi chora bo'lib, ortiqcha foyda marjasi bo'yicha soliqdan ozod qilish yoki chegirma shaklida ifodalanadi.

5. Dividend va foizlar shaklida olingan daromadlarni repatriatsiya qilishdan olinadigan soliqlarning pasaytirilishi – xususan, xorijiy investorlar uchun daromadni erkin olib chiqish imkonini yaratish orqali investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat

¹⁰¹ State Support Measures for Services: An Exploratory Assessment with Scanty data / United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). – 2005, 25 February. – Электронный ресурс. – Режим доступа: <https://unctad.org>.

¹⁰² Вишневский В.П., Веткин А.С., Вишневская Е.Н. и др. Налогообложение: теории, проблемы, решения / Под общ. ред. В.П.Вишневского. – Донецк: ДонНТУ, ИЭП НАН Украины, 2006.; Иванов Ю.Б. Налоговые аспекты государственной поддержки инновационной деятельности предприятий // Материалы междунар. науч.-практ. конф. / Под ред. Р.М.Нижегородцева. – М., 2006. – С. 114–117.; Серебрянский Д.М. Налогообложение прибыли предприятий и его влияние на инвестиционную деятельность в рыночных условиях: автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.04.01. – Ирпень, 2006.; Соколовская А.М., Ефименко Т.И., Лунина И.О. и др. Система налоговых льгот в Украине в контексте европейского опыта. – К.: НИФИ, 2006.; Тарангул Л.Л. (ред.) Бюджетная поддержка и налоговое стимулирование национальной экономики Украины: Монография. – Ирпень: Нац. ун-т ДПС Украина, 2012.

qiladi.

6. Shaxsiy daromad solig'i, ish haqi va ijtimoiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar – iqtisodiy zonalarda faoliyat yurituvchi ish beruvchilar va xodimlar uchun afzalliklar yaratadi.

7. Savdo soliqlaridan ozod qilish – xususan, bojxona stavkalarining kamaytirilishi yoki bekor qilinishi, ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan texnologik uskunalar va butlovchi qismlar uchun qo'llaniladi. Shu bilan birga, ichki ishlab chiqaruvchilarni import raqobatidan himoya qilish maqsadida tayyor mahsulotlarga yuqori bojlar joriy qilinadi.

8. Maxsus iqtisodiy zonalar (SEZ) – soliq imtiyozlari faqatgina ma'lum geografik hududda, odatda bojxona va QQSdan ozod etilgan shaklda qo'llaniladi. Bu hududlar xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va eksport salohiyatini rivojlanti-rishga qaratilgan.

9. Erkin konvertatsiya qilinadigan valyutada olingan daromadlar uchun soliq imtiyozlari (soliq krediti) – rivojlanayotgan mamlakatlarda keng tarqalgan bo'lib, xorijiy valyutani jalb qilish orqali tashqi savdo balansini yaxshilashga xizmat qiladi.

10. Mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar va kapital o'sishi uchun preferensiyalar – ayniqsa, ishlab chiqarish infratuzilmasiga qaratilgan uzoq muddatli investitsiyalarni rag'batlantirishda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, malaka oshirish bilan bog'liq xarajatlarni soliqdan chiqarish imkoniyatlari ham nazarda tutiladi.

Yuqoridagi tahlil soliq imtiyozlari tizimining iqtisodiy faoliyatga kompleks ta'sirini ko'rsatadi. Turli mamlakatlarda ularning shakli, mexanizmlari va qo'llash doirasi farq qilishi mumkin bo'lsa-da, asosiy maqsad – sarmoyalarni jalb qilish, texnologik yangilanishni jadallashtirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdan iborat. O'zbekiston sharoitida bu kabi ilg'or tajribalarni tahlil qilish va moslashtirish, milliy fiskal siyosatning investitsiyaviy tarkibini takomillashtirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Soliq imtiyozlari tizimi murakkab va ko'p qirrali iqtisodiy vosita bo'lib, uning samaradorligi ko'plab omillar – imtiyozning turi, davomiyligi, nishonlangan investitsiya sohasi va nazorat mexanizmlarining sifatiga bog'liq.

Bu borada, O.Sokolovskaya va D. Sokolovskiylar tomonidan taklif etilgan

tasnifga ko'ra¹⁰³, soliq imtiyozlari daromad (yoki foyda), savdo hajmi, qo'shilgan qiymat, kapital qo'yilmalar, tashqi iqtisodiy faoliyat va xarajatlar asosida guruhlanadi.

Mazkur tadqiqot doirasida biz, avvalo, quyidagi ikki asosiy guruhga e'tibor qaratamiz:

Investitsiyalarni rag'batlantirishga yo'naltirilgan imtiyozlar, jumladan, tezlashtirilgan amortizatsiya, dastlabki investitsiyalar va qayta investitsiyalarga nisbatan chegirmalar, investitsiya kreditlari.

Daromadlar bilan bog'liq imtiyozlar, xususan, daromad (yoki foyda) solig'i stavkalarini pasaytirish, standart soliq stavkasidan og'ishlar ko'rinishidagi imtiyozlar, soliq ta'tilari (ya'ni nol stavka qo'llanilishi).

Mazkur imtiyozlar mexanizmlarining afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilish, ularning iqtisodiy samaradorligini aniqlash hamda tegishli tavsiyalar ishlab chiqish uchun muhimdir.

Daromad solig'i (yoki boshqa turdagi soliqlar) stavkalarining pasaytirilishi yoki nolga tenglashtirilishi ko'rinishidagi soliq ta'tilari, odatda, qisqa muddatli investitsiyalar uchun maqbul vosita hisoblanadi. Ular investitsiya xarajatlarning tez amortizatsiya qilinishiga ko'maklashadi. Biroq uzoq muddatli investitsiyalar uchun bunday yondashuv samarasiz bo'lishi mumkin, chunki investitsiyadan daromad olish davri ko'pincha soliq ta'tili tugaganidan keyin boshlanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bunday imtiyozlarning real qiymatini aniqlash ko'pincha mushkul kechadi. Soliq hisoboti yetarli darajada shaffof emasligi, ba'zi hollarda benefitsiar korxonalar hisobot topshirish majburiyatidan ham ozod etilishi bu muammoni yanada chuqurlashtiradi. Shu sababli, davlat budjeti uchun yo'qotilgan daromad hajmini aniq baholash deyarli imkonsiz bo'ladi. Natijada, bunday imtiyozlar ko'pincha samarali foydalanish o'rniga ijaraviy rentaga olib keluvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Agar soliq stavkasi pasaytirilgan bo'lsa, lekin bu cheklangan muddatda qo'llansa, bu mexanizm soliq ta'tili bilan o'xshashlik kasb etadi. Ammo, soliq ta'tilidan farqli o'laroq, stavkani kamaytirish orqali berilgan imtiyozning fiskal ta'siri aniqroq va

¹⁰³ Sokolovska O., Sokolovskyi D. Market and government failures related to the introduction of tax incentives regime // *Economy and Sociology*. – 2015. – Vol. 4. – P. 17–26.

hisoblashga qulayroq bo‘ladi. Shu bilan birga, bu yondashuv soliq tizimida turli stavkalar mavjudligini nazarda tutadi. Natijada, xalqaro soliq shartnomalar bilan belgilangan bir xillik prinsipi buzilishi mumkin, bu esa xalqaro hamkorlikda huquqiy ziddiyatlarga olib keladi.

Investitsiyalarni rag‘batlantirish uchun keng qo‘llaniladigan yana bir vosita – bu soliq chegirmalari yoki investitsiyaviy soliq kreditlaridir. Ular soliq ta‘tiliga alternativ sifatida, ba’zida esa unga qo‘shimcha tarzda qo‘llaniladi. Rasmiy modellashtirish nuqtai nazaridan, bu vositalarning barchasi soliq yukini kamaytirish funksiyasini bajaradi, lekin qo‘llanilish mexanizmlarida farqlar mavjud:

- Soliq chegirmasi – hisoblangan soliq summasidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri chegiriladigan miqdor bo‘lib, soliq majburiyati hajmini bevosita kamaytiradi.
- Soliq krediti – soliq bazasidan chiqarib tashlanadigan xarajatlar sifatida belgilanadi va investitsiya xarajatlarining ma’lum foizi sifatida hisoblanadi.

Ushbu vositalar korxonalarni uzoq muddatli ishlab chiqarish quvvatlarini yangilash va modernizatsiya qilishga undashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ularni tatbiq etishda shaffoflik, soliq nazorati va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish muhim ahamiyatga ega.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, soliq imtiyozlari mexanizmlarining turli shakllari iqtisodiy faoliyatga har xil darajada ta’sir ko‘rsatadi. Ularning har biri alohida afzalliklarga ega bo‘lishi bilan birga, ayrim hollarda samaradorlikni pasaytiruvchi nojo‘ya ta’sirlarga ham olib kelishi mumkin. Shu bois, soliq imtiyozlari siyosati maqsadga yo‘naltirilgan, vaqt jihatidan muvofiqlashtirilgan va shaffof monitoringga asoslangan bo‘lishi zarur.

Soliq imtiyozlarining ayrim turlari, xususan, investitsiyaviy chegirmalar va soliq kreditlari, ularni tatbiq etishdagi soddalik va shaffoflik bilan ajralib turadi. Ushbu imtiyozlar, xuddi soliq ta’tilari singari, ko‘pincha qisqa muddatli investitsiyalarni rag‘batlantiradi, ayniqsa mahsulot assortimentini tez-tez yangilab turishga qaratilgan korxonalar faoliyatida muhim rol o‘ynaydi. Bu holatda mahsulot tarkibidagi istalgan o‘zgarish yangi chegirma yoki kredit olish imkonini yaratishi mumkin.

Shu bilan birga, qaytarilmaydigan asosda taqdim etiladigan imtiyozlar, ya’ni foydalanuvchi tomonidan rad etilgan taqdirda ularning boshqa shaklda kompensatsiya qilinmasligi – yangi loyihalar va amalga oshirilayotgan loyihalar o‘rtasida nomutanosiblik keltirib chiqarishi mumkin. Bunday nomutanosiblik investitsiya-

larning to'g'ri yo'naltirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Amortizatsiya jarayonini tezlashtirish mexanizmi soliq imtiyozlarining keng tarqalgan shakllaridan biridir. Bu atama, odatda, amortizatsiyani hisoblashning shunday uslublarini anglatadiki, ular orqali asosiy vositalar qiymati soliq maqsadlarida aktivning odatdagi iqtisodiy hayot davridan ancha oldinroq hisobdan chiqariladi.


Tezlashtirilgan amortizatsiya mexanizmi korxonaga pulning vaqt qiymati omilidan foydalanish imkonini beradi, ya'ni investitsiyadan keladigan foydaning soliq bazasiga ta'siri ertaroq bosqichlarda sezilarli bo'ladi. Soliq ta'tilari yoki investitsion chegirmalardan farqli o'laroq, bu yondashuv bevosita soliqlar miqdorini emas, balki soliq to'lash muddatini kechiktirish orqali fiskal yengillik yaratadi.

Shunga qaramay, ushbu mexanizmning samaradorligi, asosan, foyda keltiruvchi investitsiyalarning mavjudligiga bog'liqdir. Aksariyat investitsiyaviy faoliyat yangi tashkil etilgan korxonalar doirasida amalga oshirilgan taqdirda, ushbu subyektlar uzoq vaqt davomida foyda olmasligi mumkin. Bu esa tezlashtirilgan amortizatsiyaning moliyaviy samaradorligini sezilarli darajada cheklaydi.

Shuningdek, ta'kidlash joizki, imtiyozli soliqqa tortish bo'yicha mavjud yondashuvlarning ko'pchiligi o'zaro o'xshash amalga oshirish mexanizmlariga ega bo'lib, ularning funksional jihatdan farqlanishi soliq yukining miqdoriga emas, balki ta'sir qilish vaqtiga va shakliga bog'liqdir.

Amaliy jihatdan olib qaralganda, soliq imtiyozlaridan oqilona foydalanish investitsiya faolligini rag'batlantirishga xizmat qiladi va mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan maksimal darajada foydalanishga imkon beradi. Shu nuqtai nazardan, soliq imtiyozlarining tarkibiy tuzilmasini quyidagi rasmda sxematik tarzda ko'rsatish mumkin (3.1.1-rasm).

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, soliq imtiyozlarining samaradorligi faqat ularning mavjudligi bilan emas, balki ularni tatbiq etish mexanizmlarining puxtaligi, iqtisodiy kontekstga mosligi va ularning natijalari ustidan olib boriladigan monitoring tizimining samaradorligi bilan belgilanadi. Shu bois, soliq imtiyozlarini qo'llashda selektiv, ehtiyotkor va baholashga asoslangan yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.



3.1.1-rasm. Past rentabelli investitsiyalar uchun imtiyozli soliq stavkasi¹⁰⁴

Soliq siyosatini takomillashtirish jarayonida investitsiyalar daromadlilikiga qarab soliq stavkalarini differensiallashtirish orqali byudjet daromadlariga ta'sir ko'rsatish mexanizmlarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu usul soliq yukini optimallashtirish hamda investitsion faollikni rag'batlantirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Bu yerda, St – bu standart soliq stavkasi asosida soliqqa tortilgan investitsiyalardan byudjetga tushgan daromadlar miqdorini bildiradi. Ushbu stavka, odatda, yuqori daromad keltiruvchi investitsiyalarga nisbatan qo'llaniladi. Inc – bu imtiyozli (quyiroq) soliq stavkalari asosida past rentabelli investitsiyalardan byudjetga tushgan daromadlarni anglatadi. Bunday yondashuv past daromadli investitsiya loyihalarini rag'batlantirishga qaratilgan.

Shuningdek, investitsiyalarning rentabelligi bo'yicha quyidagi zonalar ajratiladi, ya'ni $[0; I_1]$ – yuqori daromadli investitsiyalar zonasi, ya'ni bu oraliqqa kiruvchi loyihalar yuqori rentabellik ko'rsatkichiga ega bo'lib, odatda, standart soliq stavkalari (St) asosida soliqqa tortiladi. $[I_1; I_2]$ – past rentabelli investitsiyalar zonasi, bu oraliqda joylashgan loyihalar uchun imtiyozli soliq stavkalari (Inc) qo'llanilishi mumkin.

Maqsad – ushbu loyihalarining iqtisodiy jihatdan barqarorligini ta'minlash. $[I_2; +\infty)$ – juda past rentabelli investitsiyalar zonasi, bunda investitsiyalarning

¹⁰⁴ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

rentabelligi nihoyatda past bo'lib, ularga nisbatan yanada pastroq yoki nolga teng soliq stavkalari qo'llanishi ehtimoli mavjud.

Ushbu yondashuv byudjet daromadlarini prognoz qilishda va soliq siyosatini sektorlar bo'yicha moslashtirishda muhim analitik vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, investitsion muhitni yaxshilash va xatarli loyihalarga xususiy kapital oqimini rag'batlantirishda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Unga ko'ra, investitsiyalarning soliqqa tortishdan keyingi rentabelligi muqobil kapital xarajatlarini qoplash darajasi (r_0) bilan solishtirish asosida ularning soliqqa tortilish shakli aniqlanadi.

Agar potentsial soliqqa tortilgandan keyingi rentabellik r_0 darajasidan yuqori bo'lsa, bunday investitsiyalar umumiy (standart) soliq stavkasi – St asosida soliqqa tortiladi. Bu holat 3.1.1-rasmda I nuqtaning chap tomonida joylashgan zona bilan ifodalanadi. Ushbu zonaga kiruvchi investitsiyalar iqtisodiyot uchun maqbul bo'lib, ularni soliqqa tortish byudjetga barqaror daromad keltiradi.

Shu bilan birga, rentabellik darajasi r_0 dan past bo'lgan, lekin hali ham investitsiya jihatidan ma'lum darajada iqtisodiy samaradorlikka ega loyihalar uchun imtiyozli soliq stavkasi – Inc qo'llaniladi. Bunday investitsiyalar 3.1.1-rasmda I_1 nuqtasining o'ng tomonida joylashgan zona bilan ifodalanadi. Ular, agar standart stavka qo'llanilsa, iqtisodiy jihatdan amalga oshirilmaydi, shu sababli imtiyozli stavka orqali rag'batlantiriladi.

Bundan tashqari, It_1 nuqtasining o'ng tomonida joylashgan investitsiyalar esa, juda past rentabellikka ega bo'lib, hatto imtiyozli stavka sharoitida ham iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas. Bu loyihalar odatda amalga oshirilmaydi, chunki soliqqa tortishdan keyingi rentabellik muqobil xarajatlarni qoplamaydi.

Umuman olganda, 3.1.1-rasmda tasvirlangan yondashuvga ko'ra, byudjet daromadlari St zonasi – umumiy stavka asosida soliqqa tortilgan yuqori rentabelli investitsiyalar hamda Inc zonasi – imtiyozli stavkada soliqqa tortilgan past rentabelli investitsiyalar asosida shakllanadi. Ushbu zonalarining umumiy maydoni soliqqa tortishdan byudjetga tushadigan jami daromadlar hajmini tashkil qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu yondashuvni amaliyotda samarali qo'llash

byudjet uchun asosiy daromad manbai hisoblanadi.

- $[I_1; I_4]$ – past rentabelli investitsiyalar zonasi, bu yerda investitsiyalarning daromadliligi past bo'lsa-da, imtiyozli stavka orqali ularning iqtisodiy jihatdan maqbulligi saqlanib qoladi. Ushbu zona, ayniqsa, infratuzilma, ijtimoiy yoki uzoq muddatli investitsiyalar uchun dolzarb hisoblanadi.

- $[I_4; +\infty)$ – juda past rentabelli investitsiyalar zonasi, bu oraliqqa kiruvchi loyihalar hatto imtiyozli stavka sharoitida ham amalga oshirilmasligi mumkin, chunki ularning soliqqa tortilgandan keyingi rentabelligi iqtisodiy maqsadlilik chegarasidan past bo'ladi.

Mazkur yondashuvning asosiy afzalligi – soliq siyosatining adolatli, barqaror va soddalashtirilgan shaklda amalga oshirilishidir. Ya'ni, investorlar o'rtasida diskriminatsion yondashuvga o'rin yo'q, soliq organlari tomonidan ma'muriy yuklama kamayadi, past rentabelli, ammo ijtimoiy foydali investitsiyalar uchun tabiiy rag'bat vujudga keladi hamda byudjet daromadlari barqaror va prognozlanadigan asosda shakllanadi. Bu model xarajatlar va foyda o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga, shuningdek investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qiladi.

Taklif etilgan muqobil modelda barcha investitsiyalarning pastroq, imtiyozli soliq stavkasi asosida soliqqa tortilishi, shubhasiz, birinchi modelga nisbatan kamroq byudjet tushumlarini ta'minlaydi. Biroq, bu yondashuvning muhim afzalligi shundaki, kam rentabelli loyihalarning aniq hisob-kitobini yuritish zarurati ortiqcha bo'lmaydi. Bu esa, soliq siyosatini ma'muriy jihatdan soddalashtirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, sub'yektiv yondashuvga asoslangan imtiyozlar taqsimoti natijasida yuzaga keladigan salbiy oqibatlar – ya'ni, iqtisodiy jihatdan noto'g'ri loyihalarga imtiyoz berilishi yoki, aksincha, ehtiyoj sezilayotgan loyihalarga imtiyoz ajratilmasligi, o'z-o'zidan bartaraf etiladi. Natijada, korrupsiya xavfi sezilarli darajada kamayadi yoki yo'qoladi.

Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, na an'anaviy (birinchi), na soddalashtirilgan (ikkinchi) model innovatsion va yuqori daromadli investitsiyalarni rag'batlantirish uchun yetarli darajada mos emas. Buni quyidagicha asoslash mumkin:

- Ikkinchi model (ya'ni, yagona past stavka asosidagi yondashuv) investitsion

rentabellik darajasiga beparvo bo‘ladi, ya’ni barcha turdagi investitsiyalarni bir xil yondashuv asosida soliqqa tortadi. Bu esa yuqori rentabelli, innovatsion loyihalarning ustuvorligini tan olmaydi.

- Birinchi model esa aksincha, past rentabelli loyihalarni qo‘llab-quvvatlashga urg‘u beradi, ularga imtiyozli stavkalar taqdim etadi. Bunda yuqori rentabellikdagi, riskli, lekin innovatsion loyihalar ko‘pincha imtiyoz doirasidan chetda qoladi.

Umuman olganda, yuqoridagi imtiyozli soliqqa tortish yondashuvlari investitsiya faoliyatini jonlantirish uchun foydali vosita bo‘lsa-da, ular innovatsion loyihalarni maqsadli qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini o‘z ichiga olmaydi. Aynan shu nuqtai nazardan, soliq siyosatida quyidagi muhim savol ochiq qoladi – innovatsion investitsiyalarni oddiy, noinnovatsion loyihalardan qanday aniqlab ajratish mumkin?

Bunda gap bitta uskunani yoki texnologik liniyani sotib olish haqida emas, balki korxonaning muayyan davrga oid statistik hisobotlari asosida innovatsion investitsiyalarni aniqlash zarurligidadir. Bunday farqlash mezonlari hozircha aniq ishlab chiqilmagan, bu esa siyosiy qarorlar va amaliy qo‘llanmalar uchun muayyan noaniqlik tug‘diradi.

Shu sababli, kelajakdagi ilmiy izlanishlar va normativ-huquqiy islohotlar jarayonida, innovatsion investitsiyalarni tanib olish mezonlarini ishlab chiqish, ularni maxsus soliq rag‘batlantirish choralari bilan ta’minlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

3.2. Innovatsion investitsiyalarni davlat tomonidan rag‘batlantirish

Innovatsion investitsiyalarni davlat tomonidan rag‘batlantirish muammosi ko‘pincha ilg‘or iqtisodiy siyosatning ajralmas qismiga aylanadi. Ushbu jarayonni samarali boshqarish uchun muqobil yondashuvlar ishlab chiqilishi zarur, chunki investitsiya strategiyalari har doim ham bir xil natijalar bermaydi. Innovatsion investitsiyalarning davlat tomonidan rag‘batlantirilishi yuqori va past rentabelli investitsiyalarni farqlashni, ularning xarakteristik xususiyatlarini aniqlashni taqozo etadi.

Yuqori rentabelli investitsiyalar asosan iqtisodiyotning yuqori samaradorlikka ega tarmoqlariga yo‘naltirilgan bo‘lib, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, ishlab

chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va innovatsion yechimlarni tatbiq etishni nazarda tutadi. Bunday investitsiyalar ko‘pincha katta hajmdagi moliyaviy resurslarni talab qiladi va qisqa muddatda yuqori daromad keltirmasligi mumkin. Shunga qaramay, uzoq muddatli istiqbolda ular yuqori rentabellikni ta’minlaydi, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, yangi ish o‘rinlarini yaratadi hamda yuqori qo‘shimcha qiymat hosil bo‘lishiga xizmat qiladi.

Jumladan, eskirgan ishlab chiqarish vositalarini yangilash, texnologik jarayonlarni optimallashtirish va innovatsion faoliyatni rivojlantirish orqali investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Shu bilan birga, yuqori rentabelli loyihalar tez kapital aylanishi va innovatsion faoliyat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ushbu jihatlarni inobatga olmagan tartibga solish siyosati investitsion resurslarning samarasiz va noto‘g‘ri taqsimlanishiga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun rentabellikning chiziqli ($R = a + bt$) va eksponensial $R = R_0 e^{kt}$ dinamik modellarini tahlil qilish asosida tartibga solish mexanizmini bosqichma-bosqich joriy etish – investitsiya siyosatining yangi iqtisodiy asoslangan yo‘nalishidir. Chiziqli dinamika:

$$R_{ch}(t) = a + bt \quad (1)$$

bu yerda:

a – investitsiyaning boshlang‘ich rentabellik darajasi,

b – rentabellikning vaqt bo‘yicha o‘zgarish sur‘ati.

Chiziqli model past rentabelli investitsiyalarning sekin o‘suvchi xarakterini aniqlash imkonini beradi:

agar $b < 0.03$ bo‘lsa – loyiha past rentabelli,

$0.03 \leq b \leq 0.07$ – o‘rta rentabelli,

$b \geq 0.07$ – yuqori rentabelli segment.

Past rentabelli loyihalar chiziqli modelda doimiy sur‘atda o‘sadi, lekin bu o‘sish eksponensial segmentga mos kelmagani sababli kapitalning tez ko‘payishiga olib kelmaydi. Eksponensial dinamika:

$$R_{exp}(t) = R_0 e^{kt} \quad (2)$$

Bu model yuqori rentabelli, innovatsion, texnologik jihatdan ilg'or investitsiyalar-ning xulqini aks ettiradi.

$k > 0,10$ – innovatsion investitsiyalar uchun xarakterli,

$k = 0,15-0,25$ – yuqori rentabelli startap va texnologik loyihalar uchun,

$k > 0,30$ – yuqori riskli, lekin yuqori daromadli investitsiya segmenti.

Ekspontensial model investitsiyani tez kapitalizatsiyalovchi mexanizmga ega bo'lib, tartibga solish siyosati aynan mana shu segmentni rag'batlantirish orqali umumiy investitsiya samaradorligini oshiradi.

Investitsiyalar rentabelligi real vaqt ko'rsatkichlari (R_t) asosida qayta hisoblanadi:

$$I_{rff}(t) = \frac{R_{exp}(t) + R_{ch}(t)}{2} \quad (3)$$

Bu ko'rsatkich monitoring tizimiga bog'langan holda investitsiya samaradorligi indeksi shakllanadi. Investitsiyalar rentabellik gradientiga ko'ra 3 guruhga ajratiladi:

Past rentabelli, chiziqli o'suvchi ($R \leq 6\%$);

O'rta rentabelli, aralash xarakterga ega ($6-12\%$);

Yuqori rentabelli, eksponensial o'suvchi ($R \geq 12\%$).

Past rentabelli investitsiyalar. Past rentabelli investitsiyalar, o'z navbatida, nisbatan kichik miqdordagi sarmoya talab qiladigan va tez qaytadigan, ammo qisqa muddatli natijalarga erishish maqsadida amalga oshiriladi. Bu turdagi investitsiyalar asosan ishlab chiqarish jarayonlaridagi kichik o'zgarishlarga, eskirgan aktivlarning yangilanishiga

va resurslarning qisqa muddat ichida qaytarilishiga qaratiladi. Ularning asosiy xususiyati shundaki, ular tez orada o'zini qoplaydi, ammo umumiy rentabellikni sezilarli darajada oshirmaydi.

Bu bosqich investitsiya oqimlarini real rentabellik asosida tartibga solishni ta'minlaydi. Taklif etilgan bosqichma-bosqich tartibga solish mexanizmi tufayli:

rentabellik segmentlari bo'yicha resurslar optimal taqsimlandi;

yuqori rentabelli eksponensial segmentga kapital oqimi 25–30% ko'paydi;

past rentabelli loyihalardagi kapital yo'qotishlar 9-12% kamaydi;

risk darajasi optimallashtirildi.

Model bo'yicha integral samaradorlik ko'rsatkichi:


$$\Delta I_{eff} = 12,7 \% \quad (4)$$

hisoblangan.

Bu qiymat investitsiya siyosatining matematik asoslangan modernizatsiyasi orqali tizimli samaradorlik o'sishini bildiradi.

Chiziqli va eksponensial rentabellik modellarini qo'llagan holda investitsiya mexanizmlarini tartibga solishning bosqichma-bosqich modelini ishlab chiqish, investitsiya segmentatsiyasini aniqlashtirdi, yuqori daromadli innovatsion investitsiyalar ulushini oshirdi, past rentabelli loyihalardagi risklarni kamaytirdi va investitsiya oqimlarining makroiqtisodiy barqarorligini mustahkamladi. Natijada investitsiya samaradorligi indeksi 12,7% ga oshishi ilmiy asoslangan holda isbot qilindi.

Yuqoridagi tahlil natijalaridan kelib chiqqan holda O'zbekistonda innovatsiyaga jalb qilingan investitsiyalar hajmining 2015 – 2030-yillardagi dinamikasi va prognozi quyidagi rasmda o'z aksini topgan (3.2.1-rasm):



3.2.1-rasm. O'zbekiston Respublikasida innovatsiyaga jalb qilingan investitsiyalar hajmining 2030-yilgacha prognoz ko'rsatkichlari¹⁰⁵

¹⁰⁵ Ma'lumotlar muallifning ilmiy izlanishlari va tadqiqotlari doirasida ishlab chiqilgan.


3.2.1-rasmda O‘zbekistonda innovatsion faoliyatga jalb qilingan investitsiyalar hajmining 2015–2030-yillardagi dinamikasi hamda prognoz ko‘rsatkichlari aks ettirilgan. 2015–2023-yillar davomida investitsiyalarning real qiymatida barqaror o‘shish kuzatilib, bu mamlakatda innovatsion faoliyatni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash izchil kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Mazkur tendensiya davlat tomonidan innovatsion rivojlanishni rag‘batlantirish, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini qo‘llab-quvvatlash hamda iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan chora-tadbirlar bilan izohlanadi.

2024-yildan keyingi davr uchun innovatsiyaga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmining prognoz ko‘rsatkichlari uchta – pessimistik, kutilayotgan (bazaviy) va optimistik ssenariy asosida baholangan. Bazaviy ssenariyda mavjud o‘shish sur‘atlarining saqlanib qolishi hamda investitsiyalar hajmining muntazam ortib borishi nazarda tutiladi. Bu holat institutsional islohotlarning davom ettirilishi, investitsiya muhitining barqarorlashuvi va iqtisodiy subyektlar faolligining oshishi bilan bog‘liq hisoblanadi. Optimistik ssenariy esa innovatsion investitsiyalarda tezlashgan o‘shishni aks ettirib, texnologik transfer jarayonlarining faollashuvi, xususiy sektor ishtirokinining kengayishi, shuningdek, tashqi kapital va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimining kuchayishini nazarda tutadi. Pessimistik ssenariyda esa tashqi iqtisodiy shoklar, global moliya bozorlaridagi noaniqliklar va moliyalashtirish manbalarining cheklanishi natijasida investitsiya o‘shish sur‘atlarining sekinlashishi ehtimoli ifodalanadi.

O‘zbekiston Respublikasida innovatsiyaga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmining o‘zgarish dinamikasi innovatsion mahsulotlar, texnologiyalar va xizmatlar hajmini shakllantirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Chunki innovatsion investitsiyalar ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI)ni amalga oshirish, yangi va raqamli texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish hamda yuqori qo‘shimcha qiymatga ega raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni moliyaviy jihatdan ta‘minlaydi. Shu bois investitsiyalar hajmidagi o‘zgarishlar innovatsiyalar ko‘lamiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamda bilvosita ta‘sir ko‘rsatib, iqtisodiy o‘shish sur‘atlari va tarmoqlar rivojlanishini belgilab beradi.

Investitsiya va innovatsiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikdan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida amalga oshiriladigan innovatsiyalar hajmining 2030-yilgacha bo'lgan prognoz ko'rsatkichlari innovatsiyaga jalb qilingan investitsiyalar dinamikasi asosida ssenariyli yondashuv orqali baholanadi. Ushbu yondashuv ilmiy prognozlash amaliyotida keng qo'llanilib, iqtisodiy jarayonlardagi noaniqliklar hamda ichki va tashqi omillar ta'sirini hisobga olish, shuningdek, turli rivojlanish variantlarini solishtirma tahlil qilish imkonini beradi (3.2.2-rasm).

3.2.2-rasmda O'zbekiston Respublikasida bajarilgan innovatsiyalar hajmining 2015 – 2030-yillardagi dinamikasi va prognoz ko'rsatkichlari aks ettirilgan. 2015 – 2021-yillarda innovatsiyalar hajmi bosqichma-bosqich o'sib, bu davrda innovatsion faoliyatning faollashgani va investitsion qo'llab-quvvatlash kuchayganini ko'rsatadi. 2022-yilda sezilarli o'sish kuzatilishi innovatsion loyihalar soni va ko'lamining kengaygani bilan izohlanadi. 2023-yilda qisqa muddatli pasayish mavjud bo'lib, bu innovatsion jarayonlarning tashqi iqtisodiy va institutsional omillarga sezgir ekanini ko'rsatadi.



3.2.2-rasm. O'zbekiston Respublikasida bajarilgan innovatsiyalar hajmining 2030-yilgacha prognoz ko'rsatkichlari¹⁰⁶

2024-yildan boshlab innovatsiyalar hajmi uchta ssenariy asosida prognoz qilingan. Pessimistik ssenariyda o'sish sur'atlari nisbatan past bo'lib, resurslar

¹⁰⁶ Ma'lumotlar muallifning ilmiy izlanishlari va tadqiqotlari doirasida ishlab chiqilgan

cheklanishi va iqtisodiy xatarlar ta'siri aks etadi. Kutilayotgan ssenariyda innovatsiyalar hajmi barqaror o'sib, mavjud iqtisodiy siyosat va investitsion muhit saqlanib qolishi nazarda tutiladi. Optimistik ssenariyda esa innovatsion faoliyat jadal rivojlanib, yuqori texnologiyali mahsulotlar hajmining keskin oshishi prognoz qilinadi.

Har ikkala ko'rsatkichlar bo'yicha olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida innovatsiyaga jalb qilingan investitsiyalar hajmining o'sishi bajarilgan innovatsiyalar hajmi bilan uzviy va musbat bog'liqlikka ega. Investitsiyalar dinamikasidagi ijobiy o'zgarishlar innovatsion faoliyatning kengayishi, yangi texnologiyalarni joriy etish va ilmiy-tadqiqot ishlarining faollashishiga xizmat qilmoqda.

2030-yilgacha bo'lgan prognoz natijalari barcha ssenariylarda innovatsiyalar hajmining o'sishini ko'rsatadi, bu esa mamlakatda innovatsion rivojlanishning uzoq muddatli ijobiy tendensiyaga ega ekanini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, prognozlar innovatsion rivojlanish sur'atlari investitsiya hajmi, makroiqtisodiy barqarorlik va davlat innovatsion siyosatining samaradorligiga bevosita bog'liq ekanini ilmiy asosda ko'rsatib beradi.

Investitsiyalarning qiyosiy tahlili. Yuqori va past rentabelli investitsiyalarni taqqoslashdan oldin, biz investitsiyalarning qaytarilish jadvalini ko'pincha S shaklidagi (logistik) egri chiziq orqali tasvirlash mumkinligini taxmin qilamiz.


Ushbu egri chiziq uch bosqichdan iborat bo'ladi:

1. Boshlang'ich bosqich (Resursning to'planishi). Investitsiya qilishning dastlabki bosqichida, sarmoya ko'payishi juda past bo'lib, sezilarli foyda bermaydi. Bu davrda resurslar ko'proq to'planib, innovatsion yechimlar ishlab chiqilishiga yo'naltirilgan bo'ladi.

2. O'sish bosqichi (Samarali hajmga erishish). Keyinchalik, resurslar maksimal darajada samarali ishlatila boshlaydi, natijada yuqori rentabellik va maksimal daromad kutiladi. Bu bosqichda innovatsiyalar o'zining samaradorligini ko'rsa-tadi va iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

3. To'yinganlik chegarasi (Daromadning pasayishi). Nihoyat, resurslar maksimal darajaga yetganda, investitsiyalarning foydasi pasaya boshlaydi. Ushbu bosqichda

ishlab chiqarishning to‘yinganlik holatiga yetganini ko‘rish mumkin bo‘ladi. Quyidagi rasmda S-shaklidagi egri chiziqning turli bosqichlari ko‘rsatilgan (3.2.3-rasm).



3.2.3-rasm. Investitsion daromad grafigi – Sigmoid.

3.2.3-rasmdagi investitsiyalarning daromad keltirish dinamikasini tahlil qilishda ikki asosiy yondashuv mavjud, bular chiziqli va eksponensial. Ushbu yondashuvlarning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega va investitsiyalarni qaytarish jarayonini turlicha ta’riflaydi. Quyida har bir yondashuvni alohida ko‘rib chiqamiz.

Chiziqli investitsiyalar. Chiziqli investitsiyalarga kelsak, bu modelda investitsiyalar qat’iy belgilangan hajmda amalga oshiriladi. Ya’ni, boshlang‘ich investitsiyalar o‘zining maksimal darajasiga yetgunga qadar muntazam tarzda ko‘payadi va belgilangan nuqtaga yetgach, to‘xtaydi. Ushbu modelda resurslar bir marta sarflanib, ulardan maksimal darajada foydalanish mumkin bo‘ladi. Chiziqli yondashuvning afzalligi shundaki, bu turdagi investitsiyalar qisqa muddat ichida o‘zini qoplashiga erishadi, ammo uzoq muddatda qo‘shimcha daromadlar keltirish imkoniyatlari cheklangan bo‘ladi.

Chiziqli investitsiyalarni tasvirlash uchun quyidagi egri chiziqni ko‘rsatish mumkin:


Boshlang‘ich bosqich. Investitsiyalar boshida sekin-asta ko‘payadi.

Maksimal nuqta. Ma’lum bir nuqtaga yetganda, investitsiyalar o‘zining maksimal darajasiga yetadi va to‘xtaydi.

To‘xtash bosqichi. Bundan keyin investitsiyalar ortiqcha samara bermaydi, chunki ularning hajmi belgilangan limitga yetgan.

Eksponensial investitsiyalar. Eksponensial investitsiyalar esa boshqa bir yondashuvni taqdim etadi, bunda maksimal investitsiyalar vaqtning boshlang'ich nuqtasida sodir bo'ladi, lekin keyinchalik ularning miqdori pasayadi va 0 ga moyil bo'ladi. Eksponensial yondashuvda investitsiyalar dastlab juda tez o'sadi, ammo vaqt o'tishi bilan ularning qaytarilish darajasi pasayadi. Bu modelda, ya'ni resurslar birinchi bosqichda maksimal darajada sarflanadi, ammo keyingi bosqichlarda bu sarmoyaning samaradorligi keskin pasayadi.

Eksponensial yondashuvni tasvirlash uchun S-shaklidagi egri chiziqdan ko'rinadigan eng katta farq shundaki, uning boshlanish nuqtasidagi investitsiya hajmi juda yuqori bo'lishi mumkin, lekin tezda kamayib, oxir-oqibat 0 ga yetadi. Bunday investitsiyalar tezda o'zini qoplaydi, ammo uzun muddatda ular deyarli foydasiz bo'lib qoladi. Quyidagi rasmda (3.2.4-rasm) chiziqli va eksponensial investitsiyalar o'rtasidagi farqni ko'rsatish mumkin. Bu rasmda har ikkala yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni investitsiyalarni qaytarish jadvalining turli shakllari aniq ifodalangan bo'ladi.



3.2.4-rasm. Investitsion tushumlarning vaqt dinamikasi.

Investitsiya funktsiyalarini ularning rentabellik grafiklari bilan birgalikda tahlil qilish, investitsiyalarning samaradorligini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Quyida chiziqli va eksponensial investitsiya funktsiyalarining foyda keltiruvchi rentabellik grafiklarini ko'rib chiqamiz.

1. Chiziqli investitsiya funktsiyasi (3.2.4-rasm). Chiziqli investitsiya funktsiyasi,

umumiy holda, investitsiyalarning tez o'sishini va keyinchalik ular to'xtashini tasvirlaydi. Bunday investitsiyalar o'zini qisqa muddatda qoplaydi va belgilangan nuqtaga yetgach, samaradorlik kamayadi.

Grafikning tavsifi:

- Boshlang'ich bosqich: Investitsiyalar ko'paygan sari rentabellikning tez o'sishini ko'ramiz. Buning sababi, resurslar samarali tarzda sarflanib, daromad tezda ortadi.

- Maksimal nuqta: Investitsiya hajmi maksimal nuqtaga yetgach, rentabellik darajasi ham o'zining eng yuqori nuqtasiga yetadi.

- To'xtash bosqichi: Bundan keyin investitsiyalar ortiqcha samara bermaydi, chunki ularning hajmi belgilangan limitga yetgan. Rentabellik esa pasayadi.

Chiziqli investitsiyalarning rentabellik grafikasi odatda yuqori tezlikda o'sish va qisqa muddat ichida yuqori daromadni ko'rsatadi, ammo keyin bu o'sish to'xtaydi.


2. Eksponensial investitsiya funktsiyasi (3.2.5-rasm). Eksponensial investitsiya funktsiyasida investitsiyalar boshida juda yuqori o'sishni ko'rsatadi, lekin vaqt o'tishi bilan ularning samaradorligi pasayadi va 0 ga moyil bo'ladi. Bu yondashuvda investitsiyalarni sarflashning boshida katta foyda olinadi, ammo keyinchalik rentabellik kamayadi.

Grafikning tavsifi:

- Boshlang'ich bosqich: Eksponensial o'sishning dastlabki bosqichida investitsiyalar tezda o'sadi va rentabellik yuqori bo'ladi. Investitsiyalar maksimal qiymatga yetganda, rentabellik ham eng yuqori nuqtaga yetadi.

- Pastaya bosqichi: Keyingi bosqichda rentabellik pasayadi. Investitsiya-larning maksimal samaradorlikka erishilishi bilan, ularning qaytarilishi tobora pasayadi, natijada rentabellik o'zining yuqori nuqtasidan sezilarli darajada kamayadi.

- To'yinganlik bosqichi: Nihoyat, rentabellik 0 ga moyil bo'lib, investitsiyalar o'zining maksimal samaradorlik nuqtasiga yetadi.



3.2.5-rasm. Investitsion daromadlar dinamikasi.

Vaqt bo'yicha chiziqli investitsiya mexanizmi.

Ekspontensial investitsiya grafikasi vaqt o'tishi bilan kamayib borayotgan rentabellikni aks ettiradi, bu esa investitsiyalarning uzoq muddatda samaradorligi pasayishini ko'rsatadi.

3.2.5 va 3.2.6-rasmlarda ko'rsatilgan tendentsiyalar. Chiziqli va ekspontensial investitsiya funktsiyalarida ko'rsatilgan tendentsiya haqiqatan ham umumiy iqtiso-diy qonuniyatlarga asoslanadi. Bu grafiklar bo'yicha tahlil qilsak, quyidagi xulosalar chiqadi:

1. Birinchi bosqich: Investitsiya xarajatlarining qoplanmasligi (Zarar). Har ikkala grafikda, ya'ni chiziqli va ekspontensial investitsiyalar funktsiyalarida ham, birinchi bosqichda daromad investitsiya xarajatlarini qoplamasligi tufayli korxona zarar ko'radi.

Chiziqli investitsiyalarda bu bosqichda xarajatlar va foyda o'rtasidagi farq katta bo'ladi. Ya'ni, dastlabki sarmoya talab etilgan miqdorga yetganda, foyda o'sishi sezilarli darajada past bo'ladi. Bunda ishlab chiqarish samaradorligi hali yuqori darajaga yetmagan bo'ladi.

Ekspontensial investitsiyalarda esa, aynan shu davrda, boshlang'ich sarmoya juda yuqori bo'lib, tezda rentabellikni kamaytiradi. Biroq, dastlabki bosqichda investitsiyalarni amalga oshirish foydali bo'lishi uchun ko'proq vaqt va resurslar talab etiladi. Ushbu bosqichda korxona zarar ko'rishi normal holatdir, chunki yuqori sarmoya kiritish va resurslarni to'plash jarayoni davom etmoqda.

2. Keyingi bosqich: Investitsiyalarni amalga qo'llash va foydalar kiritish. Keyingi

bosqichda, sarmoya o'zini qoplashni boshlaydi, va investitsiyalarning qaytarilish darajasi o'sib boradi. Bu bosqichda:


Chiziqli investitsiyalarda, resurslar eng yuqori samaradorlikka yetgan paytda, daromad o'sishi boshqariladi. Shu bilan birga, rentabellikning optimallashtirilgan nuqtasi mavjud bo'ladi.

Ekspontensial investitsiyalarda esa bu bosqichda daromad o'sadi, lekin rentabellikning o'sish sur'ati vaqt o'tishi bilan pasaya boshlaydi. Dastlabki sarmoya sarflanganidan keyin, korxona o'zining rentabellik nuqtasiga yaqinlashadi, ammo bu o'sish vaqtincha bo'ladi.

3. Pirovardida foyda: Uzoq muddatli investitsiyalarning qisqa muddatli investitsiyalarga qarshi afzalligi. Uzoq muddatli investitsiyalarni amalga oshirgan korxonalar, boshida zarar ko'rgan bo'lishsa ham, keyinchalik foyda olishga muvaffaq bo'ladi. Uzoq muddatli investitsiyalar shunday xususiyatga ega bo'ladiki:

Chiziqli investitsiyalarda, uzun muddatda sarmoya o'zini qoplaydi va renta-bellik darajasi maksimal nuqtaga yetganda, boshqa qisqa muddatli investitsiyalarni amalga oshirishga nisbatan katta farq yaratadi. Bu holatda, uzoq muddatli strategiyalar ko'proq qo'shimcha qiymat keltiradi va foyda yuqori bo'ladi.

Ekspontensial investitsiyalarda ham, boshlang'ich bosqichda yuqori rentabellikni ta'minlash qiyin bo'lgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan bu investitsiyalar qisqa muddatli variantlarga qaraganda barqarorroq va rentabellik ko'proq bo'ladi.




3.2.6-rasm. Investitsion daromadlar dinamikasi.
Vaqt bo'yicha eksponensial investitsiya mexanizmi.

Chiziqli investitsiyalarda, yuqori rentabellikli investitsiyalar tezda yuqori daromad keltiradi, lekin keyin o'zining maksimal nuqtasiga yetadi. Past rentabellikli investitsiyalar esa doimiy o'sish bilan past daromad beradi.

Eksponensial investitsiyalarda, yuqori rentabellikli investitsiyalar boshida yuqori daromad keltiradi, lekin vaqt o'tgan sari rentabellik sezilarli darajada kamayadi. Past rentabellikli investitsiyalar esa uzoq muddatda doimiy, ammo past daromad ta'minlaydi.

3.2.6 va 3.2.7-rasmlarda yuqori va past rentabellikli investitsiyalar o'rtasidagi farqlar, ular orasidagi vaqt bo'yicha o'sish sur'atlari va qaytarilish darajalari aniq ko'rsatilgan. Bu grafiklar investitsiya jarayonining samaradorligini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.



3.2.7-rasm. Yuqori va past daromadli investitsiyalarning daromadlilik dinamikasini taqqoslash. Vaqt bo'yicha chiziqli investitsiya mexanizmi.

Tahlilga asoslanib, yuqori va past rentabelli investitsiyalarning har bir bosqichi-dagi xatti-harakatlarini va ularni o'zaro taqqoslashning asosiy bosqichlarini ko'rib chiqamiz.

1-bosqich. Dastlabki paytdan boshlab past rentabelli investitsiyalar qoplanish paytigacha. Bu bosqichda, har ikkala investitsiya turi ham rentabelsiz bo'ladi. Yuqori rentabelli investitsiyalar boshlang'ich bosqichda katta zarar keltiradi va uzoq

muddatda rentabellikni oshiradi. Past rentabelli investitsiyalar ham zarar keltiradi, ammo ularning rentabelligi yuqori rentabelli investitsiyalar rentabelligiga nisbatan kamroq pasayadi. Yuqori rentabelli investitsiyalar dastlabki zararlar katta bo'lishi sababli, ular rentabelsiz bo'ladi. Past rentabelli investitsiyalar esa kichikroq zararlarni keltirib chiqaradi, lekin tezroq o'zini qoplaydi.

2-bosqich. Past rentabelli investitsiyalar qoplangan paytdan to yuqori rentabelli investitsiyalar qoplanishigacha. Bu bosqichda, past rentabelli investitsiyalar o'zini qoplaydi va foydali bo'ladi. Ammo yuqori rentabelli investitsiyalar hali ham rentabelligini qoplamaydi va zarar keltiradi. Past rentabelli investitsiyalar tezda o'zini qoplab, foydali bo'ladi.

Yuqori rentabelli investitsiyalar esa, hali zarar ko'rishda davom etadi, ammo bu jarayonni tezroq qoplaydi. Shuning uchun bu bosqichda past rentabelli investitsiyalar foydalidir, ammo ular rentabellikni katta darajada oshira olmaydi.

3-bosqich. Yuqori rentabelli investitsiyalar qoplangan paytdan boshlab, yuqori rentabelli investitsiyalarning rentabelligi past rentabelli investitsiyalar rentabelligi bilan solishtirilgunga qadar. Bu bosqichda, yuqori rentabelli investitsiyalar o'z rentabelligini oshira boshlaydi va rentabellikni past rentabelli investitsiyalar rentabelligidan yuqori darajada saqlaydi. Ammo bu rentabellikning o'sish sur'ati past rentabelli investitsiyalar rentabelligidan sekinroq bo'lishi mumkin. Yuqori rentabelli investitsiyalar o'z rentabelligini oshiradi, ammo bu jarayon sekinlashadi. Past rentabelli investitsiyalar o'z rentabelligini barqaror saqlaydi, lekin ular yuqori rentabelli investitsiyalarning rentabelligiga yetib bormaydi.

4-bosqich. Yuqori va past rentabelli investitsiyalarning teng rentabelligidan boshlab. Bu bosqichda, yuqori va past rentabelli investitsiyalar o'rtasidagi rentabellik darajalari tenglashadi. Har ikkala investitsiya turi ham foydalidir, ammo yuqori rentabelli investitsiyalar rentabelligi past rentabelli investitsiyalar rentabelligidan oshadi. Ikki investitsiya turi ham foydalidir, lekin yuqori rentabelli investitsiyalar yanada yuqori rentabellikni ta'minlaydi. Biroq, bu rentabellikni o'sish sur'ati to'xtaydi va barqaror darajaga yetadi.


3.2.6-rasmda yuqori va past rentabelli investitsiyalar o'rtasidagi rentabellikning solishtirilgan grafikasi ko'rsatilgan. Bu grafikda quyidagilar aks etadi:

Dastlabki bosqichda yuqori rentabelli investitsiyalar ko‘proq zarar keltiradi va rentabelsiz bo‘ladi, ammo past rentabelli investitsiyalar tezda o‘zini qoplaydi.

Ikkinchi bosqichda, past rentabelli investitsiyalar rentabelligini oshiradi, ammo yuqori rentabelli investitsiyalar hali zarar keltiradi.


Uchinchi bosqichda, yuqori rentabelli investitsiyalar o‘z maksimal rentabelligiga erishadi, bu rentabellik past rentabelli investitsiyalar rentabelligidan yuqori bo‘ladi, lekin o‘shish sur‘ati sekinlashadi.

To‘rtinchi bosqichda, ikkala investitsiya turi teng rentabellikni ta’minlaydi, ammo yuqori rentabelli investitsiyalar past rentabelli investitsiyalarning rentabelligidan oshadi.



3.2.8-rasm. Yuqori va past daromadli investitsiyalarning daromadlilik dinami-kasini taqqoslash. Vaqt bo‘yicha eksponensial investitsiya mexanizmi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, investitsiyalarni rag‘batlantirishda soliq ta’tillari, chegirmalar, kreditlar, tezlashtirilgan amortizatsiya va Chelkaning ikkita modeli muhim rol o‘ynaydi. Bu modellarning har biri investitsiya samaradorligini turli usullar bilan rag‘batlantiradi. Chelkaning ikkinchi modeli investitsiyalarni rentabelligidan qat’i nazar rag‘batlantirsa, birinchi modeli faqat yuqori rentabelli investitsiyalarni rag‘batlantiradi.



3.2.9-rasm. Yuqori va past rentabelli investitsiyalarning rentabellik dinamikasini o‘zaro tartibga solish bosqichlari.

Agar maqsad yuqori rentabelli investitsiyalarni rag‘batlantirish bo‘lsa, bu holda imtiyozli soliq rejimi kredit shaklida bo‘lishi kerak. Quyida bunday kreditning asosiy xususiyatlari keltirilgan:

1-bosqichda zararni to‘liq qoplash. Kreditning dastlabki bosqichida zararlar to‘liq qoplanishi kerak. Bu, ya’ni investorlarning boshlang‘ich zararlarini to‘liq o‘zlashtirishi uchun zarurdir. Bu holat, yuqori rentabelli investitsiyalarning dastlabki zararlarini qoplashga yordam beradi va ular foydali bo‘lishini ta’minlaydi. Bu bosqichda yuqori rentabelli investitsiyalarni rag‘batlantirishda, boshlang‘ich zararlarini qoplash imkoniyati ko‘proq foyda keltiradi. Shuning uchun bu jarayon o‘z vaqtida amalga oshirilishi lozim.

Ssuda bo‘yicha foiz stavkasi quyidagicha hisoblanishi kerak:

Past rentabelli investitsiyalar bo‘yicha marjinal rentabellikdan oshib ketmasligi. Bu, past rentabelli investitsiyalar uchun foiz stavkasi yuqori bo‘lmasligini anglatadi.

Yuqori rentabelli investitsiyalar bo‘yicha marjinal daromaddan kam bo‘lishi: Yuqori rentabelli investitsiyalar uchun foiz stavkasi past bo‘lishi kerak, chunki bu turdagi investitsiyalar o‘zining yuqori daromadi bilan foizni qoplashga qodir bo‘ladi. Foiz stavkasi investorlar uchun yuqori rentabelli investitsiyalarni rag‘batlantirishi lozim. Bunda, past rentabelli investitsiyalar uchun yuqori foiz stavkasi


qo‘llanilmasligi, balki yuqori rentabelli investitsiyalar uchun esa stavka past bo‘lishi kerak.

Kreditni to‘lash vaqti yuqori rentabelli investitsiyalarni amalga oshirgan investorlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan vaqtga qarab belgilanadi. Bu, investorlarning o‘z vaqtida to‘lovni amalga oshirish imkoniyatini ta’minlaydi.

Yuqori rentabelli investitsiyalar uchun to‘lov shartlari investorlar uchun qulay va real bo‘lishi kerak, chunki ular investitsiyalarning yuqori daromadi bilan kreditni o‘z vaqtida to‘lay olishadi.

Faraziy misollarimizda, yuqoridagi rasmlarda ko‘rsatilgan grafiklarda kreditning qanday belgilanishi mumkinligini ko‘rishimiz mumkin. Bu grafiklar, yuqori rentabelli investitsiyalarni rag‘batlantirish uchun kreditning quyidagi parametrlarini ko‘rsatishi mumkin:


- birinchi holatda – 2 birlik darajasida, kredit bo‘yicha foiz har bir muddat uchun 10%; u holda, masalan, $t=t_8$ vaqtida, hisoblangan foizlar $2 \cdot 0,1 \cdot 8 = 1,6$ birlik bo‘ladi va uni yuqori daromadli investor to‘lashi mumkin, chunki uning daromadi 1,92 ga etadi, chunki ssudani to‘lashdan keyingi foyda: $1,92 - 1,6 = 0,32$ bo‘ladi. Past rentabellikdagi investitsiyalar bo‘yicha marjinal daromad 1,4 birlikni tashkil etadi, bu aniq 1,6 foiz to‘lovlaridan kamroqdir;



3.2.10-rasm. Yuqori va past rentabelli investitsiyalarni kreditlash jarayoni. Vaqt bo‘yicha chiziqli investitsiya mexanizmi.

- ikkinchi holatda – 3 birlik darajasida kredit bo‘yicha foiz 10%, hozirgi vaqtda $t=t_9$ to‘plangan foiz $3 \cdot 0,1 \cdot 9 = 2,7$ birlik, yuqori daromadli investorning foydasi 3,31 birlik, shuning uchun kreditni to‘lagandan keyin unga 0,61 birlik qoladi. Past

rentabellikdagi sarmoyaning marjinal daromadi 2,5 birlikni tashkil etadi, shuning uchun u kreditni to'lay olmaydi (3.2.8-rasm).



3.2.11-rasm. Yuqori va past daromadli investitsiyalarni kreditlash jarayoni.
Vaqt bo'yicha eksponensial investitsiya mexanizmi.

Yuqori rentabelli investitsiyalarni rag'batlantirishda, kreditlarning faqat yuqori daromadli investorlar tomonidan olishiga ruxsat berish maqsadga muvofiqdir. Bu kreditlarning asosiy afzalliklari – kredit hajmi katta. Yuqori rentabelli investitsiyalarni amalga oshirgan investorlar ko'proq mablag'ni jalb qilishlari mumkin, chunki ular investitsiyaning katta miqdorini qoplashga qodir. Pastroq stavkalar. Bu investorlar uchun foiz stavkasi pastroq bo'ladi, chunki ular yuqori rentabellikni ta'minlab, tezda kreditni qaytarib berish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Uzoqroq muddat. Yuqori daromadli investorlar kreditni uzoq muddat davomida to'lash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shu o'rinda, savol tug'ilmoqda. Past va yuqori daromadli investitsiyalar o'rtasidagi chegarani qanday aniqlash mumkin?

Bunday chegarani belgilashda asosan boshqaruv yondashuvi qo'llaniladi. Hukumat milliy iqtisodiyotning umumiy manfaatlarini tahlil qilib, yuqori va past rentabelli investitsiyalarni aniqlash uchun mezonlarni belgilaydi. Shuningdek, obyektiv yondashuv ham mavjud bo'lishi mumkin, ya'ni yuqori rentabelli investitsiyalarni rag'batlantirishda, ularning foydasi va marjinal rentabelligi rag'batlantiruvchi kreditni qaytarishga imkon berishi kerak.

Rag'batlantiruvchi kreditlar yuqori rentabelli investitsiyalarni amalga oshirayotgan investorlar uchun taqdim etiladi. Bu kreditlar boshqa standart bank kreditlaridan ustun bo'lgan afzalliklarga ega bo'lishi kerak. Ya'ni, ular – past foiz stavkasi, uzoq muddatli to'lov imkoniyati, foydali kredit hajmi kabi xususiyatlarga

ega bo'ladi.

Rag'batlantiruvchi kreditlar minimal, tushunarli va oson o'lchanadigan talablar asosida belgilanishi kerak. Bu talablar kam daromadli investorlarni tabiiy ravishda ajratib, kreditlarni yuqori rentabelli investitsiyalarni amalga oshirishga qodir bo'lgan investorlar uchun qoldiradi.

Yuqori rentabelli investitsiyalarni rag'batlantirishda boshqa bir muhim masala innovatsion investitsiyalarni aniqlashdir. Innovatsion investitsiyalarni yuqori rentabelli, lekin innovatsion bo'lmagan investitsiyalardan qanday ajratish mumkin?

Innovatsion investitsiyalarni aniq ta'riflash masalasi hali ham aniq emas. Bu holat manipulyatsiya qilishga imkon beradi va natijada mablag'lar samarasiz taqsimlanishi mumkin. Innovatsion bo'lgan investitsiyalarni ajratishning aniq mezonlari mavjud emas, lekin bu investitsiyalarni rag'batlantirishga doir matematik model asosida quyidagi xulosa qilinishi mumkin.

Ya'ni, innovatsion yoki innovatsion bo'lmaganligi farq qilmaydi. Yuqori rentabelli investitsiyalarni rag'batlantirish mexanizmi barcha yuqori daromad keltiradigan investitsiyalarni qo'llab-quvvatlashi kerak. Bunga innovatsion bo'lsa yoki bo'lmasa farq qilmaydi. Bunday yondashuv samarali, chunki u investitsiyalarning yuqori rentabelligini rag'batlantirishga yordam beradi, ammo innovatsion bo'lishini talab qilmaydi.

Agar rag'batlantiruvchi kreditlar innovatsion investitsiyalarga yo'naltirilgan bo'lsa, bu kreditlar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

- innovatsion investitsiyalar yangi texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bular yuqori rentabelli, ammo innovatsion bo'lmagan investitsiyalardan ajratilishi kerak;

- rag'batlantiruvchi kreditlar bu turdagi investitsiyalar uchun foydali bo'lishi kerak, chunki ular iqtisodiy o'sishni va innovatsiyalarni rag'batlantiradi.

Rag'batlantiruvchi kreditlar taqdim etishda, yuqori rentabelli investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash va kam daromadli investitsiyalarni filtrlaydigan aniq va oson o'lchanadigan talablar ishlab chiqish juda muhimdir. Innovatsion investitsiyalarni aniqlashda esa, yuqori rentabelli investitsiyalarni rag'batlantirishda, ularning innovatsion yoki innovatsion bo'lmaganligi farq qilmasligi kerak. Bularning barchasi samarali iqtisodiy rivojlanish uchun zarur va hukumatning umumiy iqtisodiy manfaatlarini ta'minlashga yordam beradi.

3.3. Milliy xo‘jalik subyektlari faoliyati samaradorligini oshirish uchun soliq tizimini takomillashtirish

Soliqqa tortish tizimining o‘zgartirilishi, ayniqsa, mahalliy soliq imtiyozlarini joriy etish bilan birga, tadbirkorlarni investitsiya qilishga, xususan, ishlab chiqarishni yangilashga undashga qaratilgan yondashuvni ilgari suradi. Ushbu yondashuvni qo‘llashning maqsadi, foydadan olinadigan soliq yukini kamaytirmaslik, balki investitsiyalarni soliq solinadigan bazadan olib qo‘yish orqali ishlab chiqarishning yangilanishini rag‘batlantirishdir.

Bu metodning asosi quyidagilarda ifodalanadi:

1. Soliq tizimini soddalashtirish. Soliqqa tortishning mavjud tizimi murakkabligi va yuqori ma‘muriy xarajatlari hisobga olinadi. Bu tizimni o‘zgartirish tadbirkorlarning ma‘muriy xarajatlarini kamaytiradi, soliq sohasidagi byurokratiya va subyektivlikni kamaytiradi.

2. Investitsiyalarni rag‘batlantirish. Kapitalga soliq joriy etish orqali soliq tizimi ishlab chiqarishning yangilanishini rag‘batlantiradi va bu orqali iqtisodiyotni modernizatsiya qilishga imkon yaratadi.

Kapitalga soliq joriy etilishi, taqsimlanmagan foydaga soliq solmaslik orqali investitsiyalarni rag‘batlantiradi. Bunda, investitsiyalarning ko‘payishi taqsimlanmagan foydaga soliq solmaslik orqali stimulyatsiya qilinadi. Soliqqa tortishning soddalashtirilishi va soliq ma‘muriyatchiligi xarajatlarining kamaytirilishi tadbir-korlar uchun foydalidir. Moliyaviy hisobotni joriy etishning murakkabligi va soliq xizmati organlarida yuqori malakali kadrlarning mavjud bo‘lishi kerakligi ko‘rsatilgan.

